

E-ISSN: 2181-3914

№2(2) 2024



XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL VA TALQIN

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Murodova Nigora Qulliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari

Yusubova Rano Norboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yarasheva Nasiba Jumayevna

filologiya fanlari doktori, dotsent

Editor – in – chief

Murodova Nigora Kulliyevna
doctor of philological sciences, professor

Deputy Editor-in-Chief

Yusubova Rano Norboyevna
doctor of philological sciences, professor

Yarasheva Nasiba Jumayevna

doctor of philological sciences, associate professor

TAHRIRIYAT A‘ZOLARI

Sobirov Baxodir Boypulatovich – NavDPI rektori,
texnika fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Aynur Öz Özcan - filologiya fanlari doktori,
professor (Turkiya)

Milyugina Yelena Georgievna - filologiya fanlari
doktori, professor (Rossiya)

Tosheva Dirlabo Shokirovna – falsafa fanlari
doktori (Avstraliya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich - filologiya fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston)

Sayfullayeva Ra‘no - filologiya fanlari doktori,
professor (O‘zbekiston)

Iskandarova Sharifa - filologiya fanlari doktori,
professor (O‘zbekiston)

Ravshanov Mahmud - filologiya fanlari doktori,
professor (O‘zbekiston)

Pardayev Azamat Baxronovich - filologiya fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston)

Abuzalova Mehriniso Kadirovna - filologiya
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Ernazarova Manzura Sapparboyevna - filologiya
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Davlatova Ra‘no Haydarovna - filologiya fanlari
doktori (O‘zbekiston)

Bahriddinova Bashorat Madiyevna - filologiya
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Agzamova Dildora Baxadirjanovna - filologiya
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Ibragimova Zamira - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O‘zbekiston)

Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich - filologiya
fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston)

Oripov O‘rolboy - filologiya fanlari nomzodi

Qurbanova Xolbibu Qirboyevna - pedagogika
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Sharopova Ra‘no Jaxonovna - filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
(O‘zbekiston)

Jumayeva Feruza Ruzikulovna - pedagogika
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Ernazarova Gulnoza Murodovna - filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

Norova Gulsanam Maxsutovna - filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

Raxmonov Navro‘z Sattorovich - filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

Yuldashev Farrux Haqberdiyevich - filologiya
fanlari doktori (O‘zbekiston)

Nasridinov Ilhom Burxaniddinovich - texnika
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Qurbonov Xurshid Raupovich - tarix fanlari
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Shodiyev Hamza Ro‘ziqulovich - texnika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

Utapov Toyir Usmonovich - pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Qayumova Munavvar Sanoqulovna - filologiya
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Yarashova Nasiba Jumayevna - filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

Boltayeva Gulchehra Shokirovna - filologiya
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Tuxtayeva Quysin Davlatovna - filologiya fanlari
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Shamsiyeva Dilorom Mardonovna - pedagogika
fanlari falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)

Najmiddinov Fazliddin Nasriddinovich - filologiya
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Kosheva Dirlabo Xudoyorovna - filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

Musayev Erkin Xalilovich – katta o‘qituvchi

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li – texnik muharrir,
filologiya fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Tahririyat bilan bog‘lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy

Web-site: <http://lingeji.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://lingeji.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

MUNDARIJA / CONTENT

Yuldashev Farrux Haqberdiyevich	7
Dialektal lingvoma'naviyatshunoslik va uning mazmun mohiyati	
Baxriddinova Bashorat Madiyevna	14
Zamonaviy o'zbek o'quv lug'atchiligining nazariy va amaliy masalalariga doir	
Oripov O'ralboy Axmedovich	22
NUROTAMI YOXUD NURATO	
Yarashova Nasiba Jumayevna	30
Bola tomonidan idrok etiladigan matnlarda olam lisoniy manzarasi tasviri	
Xolibekova Omongul Kenjaboyevna	36
Semantic analysis of diplomatic terms in english and uzbek languages	
Yuldashev Jo'rabek Uralovich	43
Said Ahmad romanlarida o'xshatishlar lingvopoetikasi	
Norova Gulsanam Maxsutovna	48
O'zbek shevalarida o'rin-payt ma'nosini ifodalovchi so'zlarning ifodalanishi	
Suvanova Mavjuda Xamrakulovna	56
Toponim va nekronimlarning leksik xususiyatlari (Navoiy viloyati Navbahor tumani misolida)	
Jo'rayeva Gulhayo Xakim qizi	64
Shaxslashtirish va predmetlashtirish asosida hosil bo'lgan metaforalarning lingvomadaniy tahlili (Tog'ay Murod qissalari misolida)	
Bozorova Gulchehra Nazarovna	74
Alliteratsiya poetik individuallikni belgilovchi vosita sifatida (Mirtemir she'riyati misolida)	
Maxammadov Bobir Isan o'g'li	80
Vindovs operatsion tizimi terminologiyasi	

Navoiy davlat pedagogika institutining 40 yilligiga bag‘ishlanadi

TAMADDUN VA MA’RIFAT O‘CHOG‘I

O‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli kuch sanalgan ma’naviyat manbaidan oziqlanib, O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligining sababi aslida shundandir.

Bugun tiklangan ma’naviy qadriyatlarni milliy o‘zlikni anglashning o‘shidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishidan anglab turibmiz. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi o‘tgan davr ichida mamlakatimizning barcha soxalarida bo‘lganidek, milliy-ma’naviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlari, ta’lim va ma’rifat negizlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zotan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”.

Ko‘hna Sharq zaminida o‘tkir aql, go‘zal axloq, yuksak bilim ma’naviy yetuk inson bo‘lib yetishishning asosiy shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Zero, Navoiy davlat pedagogika instituti ham ilm-ma’rifat o‘choqlaridandir.

Navoiy davlat pedagogika instituti 1983-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti filiali sifatida faoliyat boshlagan. Ustozimiz **Raxmonov Ravshan Raxmonovich** institutimiz asoschisi, uzok yillar rektorlik qilgan yurt fidoyisi bo‘lganligini eslashni joiz deb bildim.

Shahardagi 8-maktabning 1 tagina sinf xonasida asos solingan filial **1992-yilda** mustaqil institut sifatida faoliyatini boshlagan. Bu yil institutimizga asos solinganligiga **40 yil to‘ladi**.

Bugungi kunga qadar institutimizda professor **Xolboy Ibragimovich Ibragimov, Jozil Ostonovich Toxirov, Baxtiyor Xudoyberdievich Daniyarovlar** rektorlik qilishgan. Ularning asosiy maqsadlari ham yosh avlodni barkamol shaxs sifatida kamol toptirish, institut ravnaqini yuksaltirish bo‘lgan.

Bugungi kunda Navoiy davlat pedagogika instituti tasarrufida **8 ta o‘quv binosi, 4 ta talabalar turar joyi, 5 ta ochiq, 4 ta yopiq sport zallari, axborot resurs markazi, o‘quv laboratoriyalari, talabalar oshxonasi** hamda **Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi** faoliyat olib bormoqda.

Eng quvonarlisi shuki, **2023-yilning 7-iyun kuni** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “**Navoiy davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” gi qarori e‘lon qilindi. Qarorga

muvofig 2027-yilga qadar **12 000 o‘rinli o‘quv, 2400 o‘rinli talabalar turar joylari, sport inshootlari, amfiteatr, sayilgoh va zamonaviy o‘quv laboratoriyalariga ega “Kampus”** qurilishini boshlash arafasida turibmiz.

Bundan tashqari joriy yilda Davlatimiz rahbari Navoiy viloyatiga tashriflari chog‘ida Navoiy davlat pedagogika instituti negizida **Navoiy Davlat Universiteti** tashkil qilinadi, deb ta’kidladilar.

Bugungi kunda institutimizda **11 ta fakultet, 31 ta ta’lim yo‘nalishi, 18 ta magistratura** mutaxassisligida **20 000 nafardan** ortiq talaba tahsil olmoqda.

Institutda o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy tadqiqot va moliyaviy faoliyatda respublikadagi **216 ta** oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida munosib o‘ringa ega.

Oliy dargohimiz Xorijiy oliy ta’lim muassasalari, ya’ni **AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Kanada, Belarussiya, Latviya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston davlatlari yetakchi oliy ta’lim muassasalari** bilan hamkorlik shartnomalari doirasida ham faoliyat olib borilmoqda.

2023-yil 1-iyun holatiga ko‘ra, Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting agentligi tomonidan e‘lon qilingan reytingida O‘zbekiston Respublikasining **47 ta** oliy ta’lim muassasalari qayd etildi. Jumladan, mazkur ro‘yxatda Navoiy davlat pedagogika instituti – 1001+ o‘rinda qayd etilganligini e’tirof etish lozim.

2023-yil 22-iyun kuni Xitoyning Gonkong universitetida tashkil etilgan “Osiyo universitetlari reytingi – 2023” natijalari e‘lon qilindi. Mazkur reytingda respublikamizning **32 ta** oliy ta’lim muassasasi qatorida Navoiy davlat pedagogika instituti **“REPARTYoR”** maqomida qayd etildi.

Oliy ta’lim muassasalari milliy reytingida ham institutimiz **15 pog‘onaga** ko‘tarildi.

Agar institutimizda 2017-yilda ilmiy unvonli va ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar **89 (19,7%) nafarni** tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich **205 (38,2%) nafarni** tashkil etdi. 2026-yilga kelib, ilmiy salohiyat **60 foizga** yetkaziladi.

Professor-o‘qituvchilarimiz tomonidan 2017-yilda **2 ta** o‘quv qo‘llanma, **20 ta** monografiya, xorijiy ilmiy jurnallarda **59 ta**, Respublika ilmiy jurnallarida **119 ta** maqolalar chop etilgan bo‘lsa, 2023-yilda **38 ta** darslik, **82 ta** o‘quv qo‘llanma, **36 ta** monografiya, xorijiy ilmiy jurnallarda **419 ta**, Respublika ilmiy jurnallarida **579 ta** ilmiy maqolalar chop etildi.

So‘nggi yillarda institutimizda yosh avlod ta’limi va tarbiyasi borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab talabalarimiz respublika va xalqaro tanlovlarda ishtirok etib fahrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Mana **4 yildan** buyon talaba qizlarimiz **Zulfiya nomidagi davlat mukofotini** qo‘lga kiritib, yana qancha-qancha talabalarimiz yosh avlodga kasb-hunar sirlarini o‘rgatmoqdalar.

2022-yilning 10-dekabr kuni o‘tkazilgan Davlat madhiyasiga bag‘ishlangan Respublika OTMlari o‘rtasida **“Shuhrating porlasin toki bor jahon!”** tanlovida Institut talabalari **Respublika g‘olibi** bo‘lishdi.

2022-2023-o‘quv yili davomida institut iqtidorli talabalarining **10 nafari Prezident va davlat stipendiya g‘oliblari** bo‘lishdi.

30-iyun “Yoshlar kuni” munosabati bilan **1 nafar** talabamiz **Gulhayo Ravshanova “Kelajak bunyodkori”** Davlat mukofoti, **1 nafar** talabamiz **Olimjon Normurodov “Mard o‘g‘lon”** Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

Bundan tashqari **Nargiza Shonazarova** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **“Innovatsion g’oyalar tashabbuskori”** ko’krak nishoni soxibasi bo’ldi.

Institut “Notiqlik” klubi talabalari **“Munozara”** bellashuvining respublika bosqichida ishtirok etib **110 ta** Oliy ta’lim muassasalari o’rtasida talabalarimiz **Lobar Jalolova, Feruza Saidmurodova, Akram Tojiyevlar** faxrli birinchi o’rinni egalladilar.

Binobarin, jamiyatda bilimga asoslangan o’zaro ahillik va hamjihatlik kayfiyati Uchinchi Renessans eshiklarini ochib beradi. Zotan, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, **“Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!”**. Shunday ekan, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizga zamonaviy bilimlarni berish, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash Biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Insoniyat yaralibdiki, o’z tarixiy taraqqiyoti jarayonida qanday yutuqlarga erishmasin, albatta, unga faqat ilm olish, ma’rifatli bo’lish bilan erisha olgan. Chunonchi, yaxshi ekilgan urug’, albatta, o’zining mo’l hosilini bergani kabi Alisher Navoiyning munosib vorislari bugungi Navoiy davlat pedagogika institutining munosib vakillaridir. Zero, Navoiy davlat pedagogika institutining ilm-ma’rifat ahllari mustaqil O’zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo’lishi uchun komil, har tomonlama barkamol, ma’naviy va axloqiy pok, vatanparvar, mehnatsevar insonlarni kamol toptirib, jaholatga ma’rifat bilan qarshi kurashib, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ma’naviy merosimizni, boy tariximizni asrash kabi g’oyat muhim va dolzarb masalalarni har bir yosh avlod qalbiga jo aylab, Navoiyning munosib izdoshlari ekanligini dunyoga taratayotirlar. Shunday ekan, Navoiy davlat pedagogika institutining 40 yillik muborak yoshini keng nishonlash hamda dunyo jamoatchiligi miqyosida tan olinishi yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni qo’llab-quvvatlab, barchani shunga da’vat etib qolamiz.

***Bahodir Boypulatovich Sobirov**
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori,
texnika fanlari doktori, professor*



DIALEKTAL LINGVOMA'NAVİYATSHUNOSLIK VA UNING MAZMUN MOHIYATI



Farrux Haqberdiyevich YULDASHEV,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Bugun yer yuzida o'tgan asr oxiridan boshlab milliy o'zligini, milliy qadriyatini saqlab qolishga, uni kelajak avlodga “sog'lom” yetkazib berishga intilayotgan har bir xalq uchun ma'naviyat masalasi alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Bugungi globallashuv davrida jamiyatni, birinchi navbatda, yoshlarni mafkuraviy va g'oyaviy jihatdan muhofaza etish insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan. Bu muammolarni qanday bartaraf qilish esa har bir shaxsni o'ylantirishi zarur.

Kalit so'zlar: til, sheva, dialektal lingvoma'naviyatshunoslik, konsept, freym.

Аннотация. Сегодня на земле с конца прошлого века вопрос духовности стал приобретать особое значение для каждого народа, стремящегося сохранить свою национальную идентичность, национальную ценность, передать ее “здоровым” будущим поколениям. В сегодняшнюю эпоху глобализации идеологически и идейно защита общества, в первую очередь молодежи, является одной из самых насущных проблем, стоящих перед человечеством. Важно, чтобы каждый человек думал о том, как устранить эти проблемы.

Ключевые слова: язык, диалект, диалектная лингва-франка, понятие, фрейм.

Annotation. Today on earth, since the end of the last century, the issue of spirituality has become of particular importance for every nation seeking to preserve its national identity, national value, and pass it on to “healthy” future generations. In today's era of globalization, ideologically and ideologically, the protection of society, primarily youth, is one of the most pressing problems facing humanity. It is important that everyone thinks about how to fix these problems.

Keywords: language, dialect, dialect lingua franca, concept, frame.

Kirish. Jahon tilshunosligida “shaxsning ma'naviy qiyofasi” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini to'g'ri va aniq tavsiflash bo'yicha ko'plab nazariy va amaliy ishlar yuzaga kelmoqda. Kun tartibiga alohida masala sifatida o'rganilmoqda, turli fan sohalarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ma'naviyatning tildagi ahamiyati va milliy qiymatini aniqlash – shaxs ma'naviyatini yuksaltirish amallarining ibtidosi. Bugun jamiyatimizning barcha bo'g'inlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga katta e'tibor berib kelinmoqda. Sohalar kesimida turli loyihalar, tanlovlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, jumladan,

shaxs ma'naviyati tushuncha va tamoyillarini o'rganish, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatan taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, taraqqiyotga yot g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimiga ko'proq ustuvorlik berilmoqda. Shunday ekan, mazkur amalga oshirilayotgan ishlardan unumli foydalanishni kuchaytirish barchamizning vazifamiz, qolaversa, muqaddas insoniy burchimiz ham hisoblanadi.

Mazkur masalalarni til va ma'naviyat mushtarakligida amalga oshirish o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi. Xususan, adabiy til va shevalarning milliy ma'naviyatni aks ettirish imkoniyatini aniqlash, shaxs ma'naviy sifatlarini ifodalovchi birliklarni to'plash, tasniflash va tizimlashtirish, lug'atlarda berilishini takomillashtirish hamda ta'lim-tarbiya uchun lingvistik baza tayyorlash juda ham muhim va yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri. Bu izlanishlarning natijasi o'laroq o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari uchun “Dialektal lingvoma'naviyatshunoslik” o'quv fani o'qitish amaliy ahamiyatga ega

O'qitilayotgan fanlarning maqsad va vazifalari, predmeti hamda ko'zlagan maqsadlariga qarab turlicha nomlaymiz. “Dialektal lingvoma'naviyatshunoslik” o'quv fani orqali talabalarga sheva xususida bilim berishdan tashqari shaxs ma'naviyatini takomillashtirishga hamda ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shaxsning ma'naviy tarbiyasi ko'p hollarda maxsus fanlar bilan chegaralanib, e'tibordan chetda qolmoqda. Olib borilayotgan ma'naviy ishlarning aksariyati ko'proq mafkuraviy xarakterga ega. Bu esa ma'naviy ishlarni tizimli – ilmiy, innovatsion va amaliy yondashuvlar asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Tadqiqotlar, ta'lim va tajribalar bu tizimni ishga solishning uzviy aloqador shakllaridir.

“Dialektal lingvoma'naviyatshunoslik” o'quv fani sifatida o'qitishning bir necha asoslari va sabablari mavjud. Avvalo, millatning butun borlig'i o'zining ona tilda aks etadi. Barchamizga ma'lumki, xalq shevalari esa tilning o'zagi hisoblanadi. Millatning shaxs ma'naviyatiga xos ifodalarining aksariyati shevalar bag'rida yashamoqda. Tilimizda ma'naviyatga oid juda ko'p manbaalar aynan shevalarimiz bag'rida “qo'riq yerdek” egasini kutib turibdi. Shu boisdan tadqiqotlar natijalari asosida dialektal ma'naviyatshunoslik ta'limi yo'lga qo'yilishi lozim. Yuqorida bayon qilingan mulohazalar, takliflar asosida shakllantirilgan va oliy filologik ta'limda o'qitilishi lozim bo'lgan “Dialektal lingvoma'naviyatshunoslik” kursi ma'naviyatga oid so'zlarning xalq shevalarida uchraydigan variantlarini, ularning nutqda qanday tarzda va qay vaziyatlarda qo'llanishini, tarqalish jo'g'rofiyasini, badiiy, publitsistik, adabiy so'zlashuv uslublaridagi variantlari bilan munosabatlarini qiyoslab, zarur o'rinlarda adabiy nutqdagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz. Shu bilan birgalikda tilimizdagi yo'qolib borayotgan ayrim til birliklarining qayta “jonlanishiga” turtki bo'ladi.

Ushbu fan ma'naviyatga oid birliklarni nutqiy jarayon bilan bog'liq holda o'rganib, izohli va maxsus lug'atlar bilan qiyoslash, ma'nolarini teran idrok etish, ma'nolarini oson va tez his qilish hamda shaxsning ma'naviy yuksalishidagi amaliy ahamiyati haqida bahs yuritadi.

O'quv kursi bugungi globallashuv davrida ma'naviyatga oid so'z va atov birliklarni saqlash bilan birga uni o'tmishdan kelajak avlodlarga yetkazib berishni ham zimmasiga oladi. Fanning mohiyati shaxs ma'naviy sifatlarini rivojlantirish, takomillashtirish hamda kishilarning ma'naviy komillik darajasini egallashlariga ko'maklashadi, ma'naviyatga oid birliklarning (adabiy) til yoki boshqa lahja va til variantlari bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi va o'rgatadi. Zero, kishi ma'lum bir muloqot kontekstida qaysi til varianti ijtimoiy jihatdan eng maqbuliga qarab ulardan o'rinli va unumli foydalanmoqlari lozim.

Shevalar zamiridagi ma'naviyat ifodalovchilari ta'limini o'z ichiga olgan o'quv kursini "Dialektal lingvoma'naviyatshunoslik" degan akademik nom bilan berish mumkin. O'quv kursining ta'limi shaxsning ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutadi. Chunki til tadqiqi va ta'limi sohasida olib borilayotgan ishlarda ham shaxsning ma'naviy kamoloti masalasi yuqori o'rinlarda chiqishi ayni muddao. Globallashuv sharoitida dialektal lingvoma'naviyatshunoslikning o'rganish obyekti millat va shaxs ma'naviyatiga jiddiy yondashish muammosi doirasida bo'ladi. Muammo yechimi turli lahja (sheva) vakillarining ma'naviy-ruhiy yaqinligini, vatandoshlik jamiyatining yaxlitligini ta'minlash va el va qavmlarning bir-biridan o'zaro ma'naviy oziqlanishiga olib keladi.

O'quv fanining maqsadi – yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasiga xizmat qiladigan tizim uchun ma'naviyatga oid dialektal birliklarning lingvistik bazasini yaratish, ta'limini amalga oshirish. O'quv predmeti ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi.

Shevalardan jonli nutq, og'zaki adabiyot namunalari orqali shaxs ma'naviy portreti bo'yicha to'laqonli tasavvur beruvchi lingvistik ma'lumotlarni to'plash. Bunda yoshi ulug' insonlar nutqi, baxshilar tomonidan kuylangan turli janrdagiasarlardan, qolaversa, terma va dostonlarlardan, qadriyatlarimizga xos urf-odatlar jarayonidan ma'naviyatga oid ma'lumotlar to'planadi. Shevalardagi mazkur til birliklarini aniqlash va to'plash orqali har bir hududga xos ma'naviy muhitni baholash va bu orqali esa shu etnosga mansub shaxslarning ma'naviy portretini chiziladi. Bunda lahjalar kesimida va o'zaro qiyosi asosida tadqiqotlar amalga oshiriladi. Shaxs ma'naviyati bilan bog'liq, uning tarkibiy qismlari va unsurlari bo'lgan shevaviy til ifodalari (so'z, ibora, so'z birikmasi, maqol, matal kabi) ni alohida maxsus tizim sifatida to'plash, saralash, tasniflash amalga oshiriladi.

Shevaga xos ma'naviyatga oid birliklarni tushunish, his qilish va idrok etish asosida ularning yoshi va hududiga xos birliklarning lug'at, qomus, albom kabi vositlarini yaratish muhim. Chunki yoshlarni ma'naviy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash va ularda millatparvarlik tuyg'usini shakllantirishda shevaga oid so'zlarning ahamiyatini anglatish, ularni ommapob tarzda izohlash muhim. Shu orqali shevalardagi ma'naviyatni ifodalovchi birliklarning didaktik ahamiyatini belgilab berish kursning vazifalaridan biri.

Nazariy va amaliy jihatdan omixta o'quv kursi sifatida bo'lajak mutaxassislar vositasida dialektlardagi ma'naviyatga oid birliklarning mohiyati, tuzilishi, tarkibiy qismlari va elementlari, munosabatlari, ularning adabiy tilga va adabiy tilning ularga ta'sirini aniqlash, jarayonda tayaniladigan manbalarni yaratish, o'rganish va o'rgatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Mazkur kursning amaliy ahamiyati sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

–fan va amaliyot uyg‘unligida foydali lingvistik tadqiqotlar olib borishlari mumkin. Turli sheva vakillari nutqidan yozib olingan ertak, matal va rivoyatlardagi ma’naviyatga oid so‘zlarni o‘rganish orqali tilning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy jihatlarini tushunish va tushuntira olish salohiyatiga ega bo‘ladi;

–ta’lim oluvchilarning ma’naviy yuksaklashiga yordam beradigan o‘quv dasturi, o‘quv adabiyotlari va metodlarini ishlab chiqishda samarali faoliyat yuritish malakasiga ega bo‘ladi;

–globallashuv davri murakkabliklari sharoitida ma’naviyatga doir bilim va ko‘nikmalarni shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda samarali qo‘llaydi;

–insoniyat yaratgan ma’naviy boylikni sheva vakillari orqali o‘zlashtirib, uni ommalashtirish – saqlab qolish va rivojlantirishga hissa qo‘shadi;

–turli sheva vakillari nutqidagi millat ma’naviy kamolotini ifodalovchi unsurlarni to‘plash, tasniflash va tavsiflash kabi amaliy malakalarni hosil qiladi.

Fan ta’limi natijalari til va muloqot bilan bog‘liq turli sohada amaliy ahamiyatga ega, bu uni kelajakdagi kasbiy va ma’naviy faoliyati uchun muhim vositaga aylantiradi.

O‘quv kursining uslubiy asoslari quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

–akkumulyativ (saqlovchi) yondashuv “ma’naviyat” lisoniy kategoriyasining shevaga oid birliklarini tavsiflash, ulardagi til va ma’naviyat mushtarakligini ko‘rsatish, ta’limda amaliy foydalanish samaradorligini oshirish va kelajak avlodga yetkazib berish vazifasini o‘taydi;

–dialektologik yondashuv turli shevalardagi ma’naviyat ifodalovchilarining geografik tarqalishiga doir ma’lumotlarni o‘rganishga ahamiyat beradi;

–falsafiy yondashuv dialektikaning miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, inkorni inkor va qarama-qarshiliklar birligi hamda kurashi qonuni, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab va alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat kategoriyalari, bilish nazariyasining empirik va nazariy bilim turlarini farqlash haqidagi ta’limoti asosida komil inson konsepsiyasi uchun tayanch vazifasini o‘taydi;

–sistema yondashuv “ma’naviyat” lisoniy kategoriyasiga sistema sifatida yondashib, bu sistemaning yashash qonuniyatlariga doir masalalarni bayon etishda qo‘l keladi;

–chog‘ishtirma va tipologik yondashuv tillararo ma’naviy ifoda va istilohlarni qiyoslaydi.

Fan ko‘plab metodlar vositasida ish ko‘radi. Ularning fanni o‘zlashtirishdagi ahamiyati katta. Masalan, “konsept tahlili” metodi – dialektal lingvoma’naviyatshunoslikda ma’naviyat bilan bog‘liq ma’no va tushunchalarni o‘rganish uchun qo‘llanadigan samarador tahlil usullaridan. U til va ma’naviyatning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi g‘oyaga asoslanadi hamda tadqiqotchilarga semantik tuzilma va tushunchalar, ular orasidagi munosabatlarini tahlil qilish va tavsiflash imkonini beradi.

Konsept tahlil usuli quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

–konseptlarni identifikatsiya qilish: o‘rganiladigan konsept hamda undagi sheva va ma’naviyatga qanchalik aloqadorligini aniqlash;

–ma’lumotlar yig‘ish: konsept haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan matn materiallari, intervyu yoki boshqa manbalar to‘plami;

– ma’lumotlarni tahlil qilish: konsept bilan bog‘liq kalit so‘z va iboralarni aniqlash uchun matn va boshqa manbalarni tahlil qilish;

– izoh va tavsif: to‘plangan ma’lumotlarni izohlash va shevaviy konseptning semantik tuzilishi, ma’nolarining ma’naviyat bilan aloqasini tavsiflash;

– natijalarni sharhlash: olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash, konseptning asosiy xususiyatlarini aniqlash.

“Konsept tahlili” usuli talabalarga ma’naviyat va shevaning o‘ziga xosliklarini, shuningdek, buning ma’naviy konsept va ular ma’nolarini shakllantirishga ta’sirini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Sheva so‘zlarida aks etgan ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq bilim va tasavvurlarni o‘rganish uchun “freym tahlili” usuli qo‘llanadi. Bu talabalarga shevaga xos so‘z va iboralarning muayyan vaziyatlar, obyektlar, harakatlar va atributlar bilan qanday bog‘liqligini tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida sheva ifodalaridagi ma’naviyat in’ikosi tahlilida tasniflash, tavsiflash, lingvistik rekonstruksiya kabi tahlil usullarini samarali qo‘llash mumkin. Ularning har biri o‘z o‘rni va rolga ega, usullarni qo‘llash o‘rganish obyektining qaysi tomoniga qanday sharoitda yondashuv bilan bog‘liq.

Kurs ta’limi quyidagi izchil jarayonlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

– dialektologiya, lingvoma’naviyatshunoslik, aksiolingvistika, axloq (etika), psixologiya, lingvokulturologiya, etnografiya, sotsiolingvistika va korpus tilshunosligi kabi qator fanlar sirasida tutgan o‘rni haqida ma’lumot beriladi va talabalarga dialektal lingvoma’naviyatshunoslik nima ekanligi, qanday muammolarni o‘rganishi, qanday usullardan foydalanishi, nazariy-amaliy ahamiyati hamda natijalari, shuningdek, yondosh fanlar sirasida tutgan o‘rni tushuntiriladi;

– nazariy asoslar qismida talabalar dialektal lingvoma’naviyatshunoslikka oid asosiy kategoriya va tushunchalar, yondashuv (dialektologik, falsafiy, sistemaviy kabi)larni o‘zlashtirishlari lozim bo‘ladi;

– keyslar yaratish nazariy tushuncha va tadqiqot usullarini amaliyotda qo‘llashni tushunish uchun dialektal lingvoma’naviyatshunoslik sohasida bajarilgan amaliy ishlarni qamrab oladi;

– amaliy mashg‘ulotlarda o‘rganilgan tadqiqot usullarini aniq misollarda qo‘llash mumkin bo‘lgan amallar bajariladi va o‘quv loyihalari yaratish ko‘zda tutiladi;

– natijalar muhokamasi qismida tadqiqot natijalari taqdim etilib, ular avvalgi bosqichlarda o‘rganilgan nazariy tushuncha va usullardan foydalangan holda himoya va tahlil qilinadi;

– yakuniy bosqich kursni o‘rganish jarayonida qanday bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lganliklari, ularni kasbiy faoliyatida qanday qo‘llashlari mumkinligi haqida xulosa chiqarishni o‘z ichiga oladi.

O‘quv kursi ta’limi talabada quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Talaba quyidagi malakalarga ega bo‘ladi:

– sheva va uning tarbiya uchun xizmat qiluvchi, aniq amaliy samarani ko‘zda tutgan lingvoma’naviy bazasini shakllantirish, lingvistik hodisalarni tahlil qilish va ularning ijtimoiy, ma’naviy omillar bilan bog‘liqligini tushunish va tushuntira olish (til kompetensiyasi);

– yuksak ma'naviyatli yosh avlodni voyaga yetkazishning va amaliy asos va manbalarini yaratish, sheva va adabiy tilning o'zaro aloqasi orqali shaxs tarbiyasiga munosib hissa qo'shish (kommunikativ kompetensiya);

– lingvistik tadqiqot olib borish va ma'lumotlarni tahlil qilish, anketa, intervyu, kuzatish va matn tahlili kabi turli tadqiq usullaridan foydalanish (tadqiqotchilik kompetensiyasi);

– shevalar asosida to'plangan lingvistik bazadan shaxs ma'naviyati rivojiga, yosh avlodning shaxsiy takomillashuviga ko'maklashish, bunga daxldor sohalar oqimida o'z o'rnini topish (lingvoma'naviy muloqot kompetensiyasi);

– tanqidiy fikrlash, sheva hodisalari va ijtimoiy kontekstlarni o'zaro bog'lab tahlil qilish, ma'lumot va tadqiqot natijalarini baholash va sharhlash (tanqidiy fikrlash kompetensiyasi).

Umuman olganda, o'quv predmeti talabada til va ma'naviyat munosabatlarini o'zaro izchil o'rganish orqali amaliy ahamiyatga molik kompetensiyalar shakllanadi. Fan taqlid va ergashuvchanlikdan xoli bo'ladi, mamlakatimizda shakllanayotgan va dunyo tilshunosligi sahnasiga chiqayotgan amaliy samarador milliy fan yo'nalishi bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, "Dialektal lingvoma'naviyatshunoslik" o'quv kursini yo'lga qo'yish xalq shevalari bo'yicha mavjud fanlarni davr talablari asosida isloh qilish barobarida shaxs ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi muhim qadamlardan biri o'laroq oliy amaliy filologik ta'lim taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Bayon qilingan fikrlardan amaliy shevashunoslik bo'yicha fan dasturlarini yaratish uchun tavsiyalar mazmunida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бородина М. А. Проблемы лингвистической географии. – Москва, Л., 1966. – 220 с.
2. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекского язычного массива. – Ташкент, 1991. – С. 218.
3. Решетов В.В. О диалектологическом атласе узбекского языка // Второе региональное совещание по диалектологии тюркских языков. – Казань, 1958. – С.16-20.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I. II. III. – Тошкент, 1960 – 1963.
5. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. Филология фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 1963. – 483.
6. Шерматов А., Шоабдурахмонов Ш. Атлас узбекских народных говоров // Тюркское языкознание: материалы III Всесоюзной конференции. – Ташкент, 1985. – С.75-77.
7. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент, 1981. – 58 б.
8. Проблемы исторического развития и современного функционирования узбекских диалектов (По материалам говоров Низовья Кашкадарьи). Дисс...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1978. – 339 с.
9. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана. Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1988. – 44 с.

10. Иброҳимов Й. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. Филология фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2000. – 366 б.

11. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини (лексика материаллари асосида). Филология фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2006. – 309 б.



ZAMONAVIY O'ZBEK O'QUV LUG'ATCHILIGINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARIGA DOIR



*Bashorat Madiyevna BAXRIDDINOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshi davlat universiteti*

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida tildan amaliy foydalanish ko'nikmalarini oshirish, tilni tasvirlash bilan birga uni tez va oson o'qitish maqsadini birlashtirgan lingvodidaktik vositalar tadqiqiga e'tibor kuchaymoqda. XX asr boshlariga kelib ko'pgina rivojlangan davlatlarda nafaqat til o'rganish, balki intellektual salohiyatga ega, yuksak ma'naviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi deb o'quv lug'atlari tan olindi. Zamonaviy shaxsning muhim ko'rsatkichi hisoblangan kommunikativ qobiliyatini o'stiruvchi antroposentrik lug'atlarni yaratish va ularni elektronlashtirish zarurati lingvodidaktika, lingvometodika, pedagogik leksikografiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi amaliy tilshunoslik sohalari taraqqiyotini taqozo qilmoqda.

Kalit so'zlar: antroposentrik lug'atlar, elektronlashtirish zarurati, lingvodidaktika, lingvometodika, pedagogik leksikografiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvodidaktik vositalar.

Аннотация. В мировой лингвистике все больше внимания уделяется изучению лингводидактических средств, объединяющих цель совершенствования навыков практического использования языка, быстрого и легкого обучения языку вместе с его описанием. К началу XX века во многих развитых странах образовательные словари признавались важным средством не только изучения языка, но и воспитания личности с интеллектуальным потенциалом, высокой духовностью, верности общенациональным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: антропоцентрические словари, необходимость электронизации, лингводидактика, лингвометодика, педагогическая лексикография, компьютерная лингвистика, корпусная лингвистика, лингводидактические инструменты.

Abstract. In world linguistics, more and more attention is being paid to the study of linguistic didactic tools that combine the goal of improving the skills of practical use of language, quick and easy language learning along with its description. By the beginning of the 20th century, in many developed countries, educational dictionaries were recognized as an important means not only of learning a language, but also of educating a person with intellectual potential, high spirituality, loyalty to national and universal values.

Keywords: anthropocentric dictionaries, the need for electronics, linguodidactics, linguometrics, pedagogical lexicography, computational linguistics, corpus linguistics, linguodidactic tools.

Kirish. Globallashuv sharoitida milliy madaniyat fenomenining asosiy belgisi bo'lgan tilning maqom va mehqeyini saqlab qolish, axborot-kommunikatsiya, internet tiliga aylanish darajasini oshirishda ta'limning turli bo'g'inlari uchun mo'ljallangan yangi avlod o'quv lug'atlari hamda ularning elektron qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan mobil ilovalarini yaratish, foydalanuvchilarda leksikografik kompetentlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda til siyosati borasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar nafaqat o'zbek tili taraqqiyotida yangi davr boshlanishi, balki tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ham yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi, tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganuvchi amaliy tadqiqotlarga e'tibor kuchaydi. Oldimizga qator vazifalar bilan birga "o'zbek tilidagi mavjud lug'atlar asosida uzluksiz ta'limning barcha turlari uchun o'quv lug'atlarini yaratish"¹ vazifasi ham qo'yildi. Bu esa ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish va xorijiy tillarni tezkor o'rgatishga xizmat qiluvchi zamonaviy o'quv lug'atlariga bo'lgan talabni yanada oshirdi.

Adabiyotlar tahlili. O'quv lug'atlarini ilmiy asosda o'rganish XVII asrda birinchi ingliz leksikografi S.Jonson, XIX asrda fransuz tilshunosligida J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, B.Kyumada, Amerika tilshunosligida K.D.Bak, ispan tilshunosligida J.Malkil, rus tilshunosligida P.N.Denisov, V.G.Gak, L.A.Novikov, V.V.Morkovkin, S.G.Barxudarov, Y.N.Karaulov, M.A.Skopina, A.Y.Suprun, L.G.Sayaxov, T.A.Kadirbayeva kabi tilshunos va pedagoglarning ishlaridan boshlanadi.

XX oxiri XXI asr boshlarida jahonning AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina kabi ilg'or mamlakatlarida o'quv lug'atlarining zamonaviy avlodlarini yaratish, mavjud lug'atlarni elektronlashtirishning nazariy va amaliy masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, V.V.Dubichinskiy, S.V.Lebedova, I.L.Voronsova, YE.Y.Balalayeva, A.I.Olxovskaya, I.Fedorov, M.A.Shaxmatov, G.A.Miller, A.K.Suleymanova, M.V.Trabukina, T.I.Kobyakova, I.L.Starikova, G.F.Bogacheva, I.N.Savchenkova, L.K.Mullagaliyeva, Y.A.Rumyanseva, R.I.Rogalyova, pedagogik aspektda T.V.Jerebilo, L.A.Balobanova va boshqalarning tadqiqotlarini keltirib o'tish o'rinli.

O'zbek o'quv leksikografiyasi taraqqiyotida uch bosqichni ajratish mumkin:

1. XX asrning 80-yillari – sobiq sho'ro davri o'zbek o'quv lug'atchiligi. Bu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlar uchun ilk marta sobiq sho'ro davrida milliy maktablarda rus tilini samarali o'qitish maqsadida yaratilgan ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha ikki tilli o'quv lug'atlar tadqiq manbayi bo'lib xizmat qilgan. Xususan, M.X.To'xtaxo'jayeva, M.M.Abduraximov, U.Sh.Tursunovalarning² tadqiqotlari rus tili negizida yaratilgan ikki tilli o'quv lug'atlarni tuzish prinsiplari, frazeologik birliklar va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сонли "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони // www.lex.uz

² Тохтаходжаева М.Х. Двухязычные учебные словари и принципы их составления. – Ташкент: Ўқитувчи, 1981. - 183 с.; Абдурахимов М.М. Узбекская языковая афористика как объект системы учебных двухязычных словарей (на материале узбекского и русского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. - 17 с.; Турсунова У.Ш. Лингводидактические основы описания многозначных слов в двухязычном учебном словаре (на материале полисемичных глаголов): Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Москва, 1985. – 17 с.; Каллибекова Г. А. Проблемы учебной лексикографии: Автореф. дисс. .канд.филол.наук. –Нукус, 1992. –48 с.

aforizmlar talqini, ko‘p ma’noli so‘zlarni ikki tilli lug‘atlarda berishning lingvodidaktik asoslarini yoritishga bag‘ishlanadi.

2. XX asrning 90-yillari – XX asrning boshlari o‘quv lug‘atchiligi. Bu davrda bajarilgan tadqiqotlar uchun ham, asosan, rus tili negizida tuzilgan ikki tilli o‘quv lug‘atlari obyekt vazifasini o‘taydi. Jumladan, G.A.Kallibekovanning o‘quv leksikografiyasi muammolari, I.A.Siddiqovanning sifat sinonimlarning o‘quv lug‘atlarda berilishi³, G.I.Boboyevaning ikki tilli lug‘atlarda leksik birliklarni semantizatsiyalashning lingvistik asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlari⁴ni ko‘rsatish mumkin.

3. XX asrning ikkinchi o‘n yilligi – tom ma’noda istiqbol davri o‘zbek o‘quv lug‘atchiligi. Bu davr o‘zbek lingvodidaktikasi va pedagogik leksikografiyasida yangi bosqich sifatida alohida o‘rin tutadi. B.Bahriddinovaning “O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari” mavzusidagi doktorlik ishidan so‘ng o‘quv lug‘atchiligi o‘zbek tilshunosligida yangi bosqichga ko‘tarildi⁵. O‘quv lug‘atlari Z.Rahmatova, Z.Rajabova, G.Mirxanova, Sh.Nabiyeva, Sh.Nashirova va boshqalarning⁶ ishlarining bevosita obyektiga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Jahonning qator ilg‘or davlatlarida o‘tgan asr boshlaridayoq tilshunoslikning eng “qaynoq” sohasiga aylangan “o‘quv lug‘atchiligi” (*учебная лексикография, educational lexicography*), lingvistik kompetentlikni oshirishning “strategik” vositasi deb tan olingan “o‘quv lug‘ati”, “maktab lug‘ati” (*учебный словарь, школьный словарь, school dictionary, children’s dictionary, learning dictionary, educational dictionary, dictionary for kids, kindle edition, booculchacha*) kabi tushunchalar leksikografiyaning faol terminlariga aylandi. So‘nggi yillarda shu yo‘nalishda bajarilgan ishlarda o‘quv lug‘atchiligiga antroposentrik lug‘atchilik, o‘quv lug‘atlariga esa antroposentrik lug‘at sifatida qarash ommalashib borayotgani kuzatilmoqda. V.V.Morkovkin barcha lug‘atlarni ikki guruhga bo‘ladi: 1) Lingvosentrik lug‘atlar – bu til uchun va til haqida bo‘lgan lug‘atlar. Asosiy vazifasi – mavjud til faktlarini yozish, tavsiflash va baholash. 2) Antroposentrik lug‘atlar – inson uchun yaratilgan lug‘atlar. Asosiy vazifasi – insonga yordam berish, birinchidan, inson ongida tilning manzarasini shakllantirish, ikkinchidan, uni ushbu tildan samarali foydalanishga o‘rgatish⁷. Bu jihatdan V.V.Dubichinskiyning “O‘quv lug‘atchiligining tadqiq sohasini

³ Сиддикова И.А. Семантизация прилагательных в учебном узбекско-русском синонимическом словаре: Автореферат дисс. канд.филол.наук. –Ташкент, 1995. –21 с.

⁴ БОБОЕВА Г.И. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ СЕМАНТИЗАЦИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ДВУЯЗЫЧНОМ УЧЕБНОМ СЛОВАРЕ: ДИСС... КАНД, ФИЛОЛ. НАУК. – ДУШАНБЕ, 2007. 177 с.

⁵ Бахридинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истикболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., –252 б.

⁶ Раҳматова З.Х. Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ўстиришнинг лингвистик асослари. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2021. – 141 б.; Ражабова З.И. Ўзбек ўқув фразеогрфиясининг лингвистик аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2022. – 145 б.; Мирханова Г.Р. Синоним сўзлар ўқув луғатининг умумий тузилиши // “Yosh tadqiqotchi” ilmiy elektron jurnali, Vol. 1 No. 2 (2022) –Б.173-178; Nabiyeva Sh.I. Ortologik o‘quv lug‘atlar taraqqiyoti va muammolar // Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент, 2022 йил, 5-сон. –Б. 38-41

⁷Морковкин В.В. Антропоцентрический versus лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и её отражение в нормативном словаре. – М., 1988. С. 132–133.

uch tizimga mansub bo'lgan uch koordinatali maydon – lingvistik, psixologik va sotsiologik mezonlarga asoslangan tizim sifatida belgilash mumkin"⁸, degan fikrlari o'rinli. O'quv lug'atlariga bunday yondashuv, haqiqatan ham, uning antroposentrik lug'at ekani, insonni har tomonlama qamrab oluvchi vosita ekanini ko'rsatadi.

O'quv lug'ati ko'p hollarda maktab lug'ati ham deb yuritiladi. Maktab lug'ati o'quv lug'atining maktab o'quvchilariga mo'ljallangan bir ko'rinishi. Masalan, rus, ingliz tillarida uzluksiz ta'limning maktabgacha ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan *дошкольный словарь*, *kindergarten dictionary*, *kids dictionary* kabi turlari ham uchraydi.

Demak, so'zligi ma'lum bir mezon asosida tartiblangan, o'quv-uslubiy talabga javob beradigan, ta'lim oluvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ma'lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo'ljallangan antroposentrik vositaga **o'quv lug'ati** deyiladi. **O'quv leksikografiyasi** – o'quv lug'atchiligi tarixini o'rganish, o'quv lug'atlari, leksik minimumlar, o'quv lingvostatistikalar, leksikani o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni tuzish va nashrga tayyorlash, o'quv lug'ati tiplari va turlarini aniqlash, ularni muntazam takomillashtirib borish, til o'qitishga mo'ljallangan darsliklarda leksikani taqdim etish va semantizatsiyalash bilan shug'ullanadigan amaliy fan.

O'quv lug'atlarining umumiy tipologiyasi quyidagi eng muhim to'rt omil – *psixologik, sotsiologik, lingvistik, semiotik (ishoraviy) omillarga* asoslanishi yoritiladi.

Barcha umumiy lug'atlar kabi o'quv lug'ati ham o'z ichki qurilishi (kompozitsiya, struktura)ga ega. Yangi avlod o'quv lug'ati strukturasi uch qism – mega, makro va mikrostrukturalarga ajraladi. Zamonaviy o'quv lug'atining **megastrukturasi**: 1) kirish; 2) o'quv-metodik ta'minot; 3) lug'at korpusi; 4) ilovadan; **makrostrukturasi**: 1) alfavit tartibli; 2) mavzuviy; 3) mavzuviy-alfavit tartibli lug'at maqola yoki so'zlikdan; **mikrostrukturasi**: bosh so'z; izoh; leksikografik pometa (ko'rsatkich) va illyustratsiyalardan tashkil topadi.

Dunyoning boshqa tillarida bo'lgani kabi o'zbek leksikografiyasida ham amaliy leksikografiyaning shakllanishi nazariy leksikografiyaga qaraganda bir necha asr oldinga borib taqaladi. O'zbek tilida o'quv lug'atlari – amaliy leksikografiyaning taraqqiyoti quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan:

1) X-XIV asrlar. Arab leksikografiyasi an'analari asosida yaratilgan va o'z davrida turkiy tilli aholining arab tili, arablarning turkiy tilni o'rganishi uchun xizmat qilgan arabcha-turkcha, turkcha-arabcha ikki tilli lug'at-grammatikalar;

2) XV-XVII asrlar. O'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan badiiy, ilmiy-ma'rifiy asarlar, xususan, A.Navoiy asarlari matni bo'yicha yaratilgan forscha-turkcha, turkcha-forscha ikki tilli lug'at-grammatikalar;

3) XIX-XX asrlar. Sobiq sho'ro davrida yaratilgan ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha ikki tilli va adabiy til meyorlarini o'rgatish maqsadida yaratilgan o'quv lug'atlar;

4) XXI asr boshlaridan hozirgacha bo'lgan davrda yaratilgan yangi avlod o'quv lug'atlari.

Istiqlol yillarida o'quv lug'ati qamrovi kengaygani, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlari uchun mo'ljallangan lug'atlar nashr qilingani, elektron lug'atchilik taraqqiy

⁸Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб.пособие. – М.: Наука, Флинта, 2008.–Б.336

etayotgani ijobiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Biroq garchi o'z foydalanuvchilariga ega bo'lgan bo'lsa-da, mazkur lug'atlarni zamonaviy lug'atlar darajasida mukammal deb bo'lmaydi, ular ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan:

1) ularning aksariyati o'zbek lug'atchiligida avvaldan mavjud bo'lgan lug'atlarni maxsuslashtirish, ixchamlashtirish yo'li bilan yuzaga kelgan;

2) aksariyat lug'atlar, xususan, uzluksiz ta'limning quyi bo'g'ini uchun tuzilgan bolalar ensiklopediyalari, shuningdek, oliy o'quv yurti talabalari uchun yaratilgan o'quv terminologik lug'atlar kompilyativ xarakterga ega: rus, ingliz va boshqa tillarda yaratilgan shu nomli lug'atlardan nusxa olish, tarjima qilish yo'li bilan yuzaga kelgan. Izoh tipidagi lug'atlarda so'zlar ma'nosini sharhlashda, hatto bolalar uchun mo'ljallangan lug'atlarning illyustratsiyasi, bezaklarida ham milliy ruh sezilmaydi;

3) lug'at so'zligini tanlashda, ularda so'zlar izohini berishda, strukturasi shakllantirishda qat'iy prinsiplarga amal qilinmagan;

4) o'quv lug'atchiligining tipografik talablariga javob bermaydi;

5) turli lug'atlarda, masalan, o'quv izohli lug'at, ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati va boshqa leksik sath birliklari izohlangan lug'atlarda muayyan bir so'z izohini berishda muvofiqlik ta'minlanmagan kuzatiladi.

Ayni paytda jahon o'quv lug'atchiligining quyidagi faol janrlari taraqqiy etib bormoqda:

Kompleks o'quv lug'atlar – o'quv leksikografiyasining ham lug'at, ham leksik minimum vazifasini bajarishi, ham leksik sathni turli tomonlama o'rganish imkonini berishi bilan xarakterlanadigan ko'p maqsadli janri. Kompleks lug'at til leksik sathining barcha qirralarini bittada aks ettiradi, ya'ni unda so'zning atash ma'nosi, kelib chiqishi, maqsadi, qo'llanishi, talaffuzi, imlosi haqida tizimli va har tomonlama mukammal ma'lumot beriladi. Bugungi kunda ingliz, rus va boshqa tillarda "3&1" (uchtasi birda), "5&1" (beshtasi birda) yoki "10&1" (o'ntasi birda) ko'rinishlarida yaratilgan kompleks o'quv lug'atlarning son-sanoqsiz turlarini uchratish mumkin⁹.

Leksik minimumlar (*word list, vocabulary list*) – ta'lim oluvchining muayyan til leksikasidan muloqot jarayonida maksimal darajada foydalanishi uchun eng kamida bilishi zarur bo'lgan so'zlar ro'yxati. Leksik minimumda so'zlar qo'llanish chastotasi, o'quv-uslubiy maqsadga mosligi, ta'limning bosqichi, shu bosqich dastur va darsliklariga mosligi, foydalanuvchining psixo-fiziologik holati, qobiliyati, so'zning semantik qiymati va boshqa bir qator ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda tanlanadi. U huquqiy-me'yoriy hujjat maqomiga ega bo'lib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi. Ona tili fani bo'yicha kirish imtihonlari savolini tuzish, darsliklarning leksik tarkibini tanlash, bolalar uchun asarlar yozish, o'quv lug'atlari tuzish va xorijliklarning o'zbek tilini o'rganishida leksik minimumlar dasturul amal vazifasini o'taydi. Bugungi kunda dunyo tillarining aksariyatida bunday ro'yxatlarni uchratish mumkin¹⁰.

⁹ Qarang. Лободина Н.В. "Универсальный современный школьный комплексный словарь. Максимально полный. Супер-словарь. "10&1". Серия: ШКОЛЬНЫЙ СЛОВАРЬ. Редактор: Гринин Л.Е., Волкова-Алексеева Н.Е. – М.: Учитель, 2019 г.; Узорова О.В., Нефёдова Е.А. Большой словарь для начальной школы. 42 словаря в одной книге. – Москва: АСТ, 2015. – 766 с.

¹⁰ Qarang: Морковкин В.В., Сафьян Ю.А., Степанова Е.М., Дорофеева И.В. Лексические минимумы современного русского языка. – М., 1985.; Система лексических минимумов современного русского языка / Под ред. В.В. Морковкина. – М., 2003. [Электрон ресурс]. URL: <https://www.lexico.com/word-lists>; <https://www.vocabulary.com/lists/>;

Darajali lug‘atlar – murakkablik darajasiga ko‘ra o‘quv lug‘ati turlari. Masalan, o‘quv izohli lug‘atning yoki sinonimlar lug‘atining maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlang‘ich sinflar, yuqori sinflar uchun yaratilayotgan darajama-daraja murakkablashib boradigan ko‘rinishlari bunga misol bo‘ladi. Darajali lug‘atlarni tuzish ko‘proq leksikaning turli aspektlarini o‘rgatishga mo‘ljallagan lug‘atlar uchun xos. Biroq me‘yoriy yoki grammatik lug‘atlar ham darajali bo‘lishi mumkin. Masalan, rus tilida birgina imlo lug‘atining maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bir necha turini uchratish mumkin¹¹.

Seriyali lug‘atlar – muayyan mavzu va maqsadga yo‘naltirilgan turkum lug‘atlar. Bugungi jahon lug‘at hazinasida o‘quv lug‘atlarining xalqaro janrlari mavjud, bu janrlarning bir necha seriyalari yuzaga kelgan. Jumladan, “Very First Dictionary”, “Children’s dictionary”, “Learning dictionary”, “Dictionary for kids”, “My First Dictionary”, “Collins school dictionary”, “Macmillan school dictionary”, “Merriam Webster’s school dictionary”, “Мой первый словарик”, “Учиться только на пятерки!”, “Словарь школьника”, “Словари и справочники для детей”, “Словари русского языка для школьников”, “Энциклопедический словарь юного ...” “Удивительные энциклопедии”, “Энциклопедия в картинках”, “Твоя первая энциклопедия”, “Kindle Edition”, “Boosulchacha”, “Ақылды балапан”, “Ең алғашқы сөздік”, “Менинг биринчи луғатим”, “Менинг биринчи энциклопедиям” kabi seriyali lug‘atlar yaratilganini kuzatish mumkin.

Wordnet tipidagi o‘quv-tezauruslar va assotsiativ lug‘atlar – WordNet o‘tgan asrning 80-yillarida Priton universitetida ishlab chiqilgan va litsenziyalangan ingliz tilining leksik bazasi bo‘lib, o‘zida elektron tezaurus-lug‘at hamda ingliz tilining semantik tarmoqlarini birlashtiradi. Bu tipdagi lug‘atlardan ko‘proq ilmiy tadqiqotlar va biznes maqsadida foydalaniladi. Undan foydalanishda bir necha dasturlar va interfeyslar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. Lug‘at asosiy so‘z turkumlaridan iborat to‘rtta tarmoqdan tashkil topgan: ot, fe‘l, sifat, ravish. WordNet tayanch lug‘at birligini alohida so‘z emas, “sinset (angl. *Synset*)” deb nomlanuvchi sinonimlar qatori tashkil etadi.

Interaktiv lug‘atlar – bugungi o‘zgaruvchan dunyoning favqulodda eng kichik o‘zgarishlariga ham zudlik bilan javob bera oladigan, muntazam takomillashib boradigan nutq va tafakkurni o‘stirish vositasi. Interfaol lug‘atning xarakterli xususiyatlaridan biri uning o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilarning turli toifalari – iqtidorli yoki kam o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar, imkoniyati cheklangan bolalar, shuningdek, tilni ona tili sifatida o‘rganmaydiganlar uchun ixtisoslashganligi. Interaktiv lug‘atlar, asosan, pedagogik maqsadlarda yaratiladi, shu sababli ba‘zan ilmiy adabiyotlarda u “o‘quv lug‘ati” terminining sinonimi sifatida ham ishlatilganiga duch kelish mumkin. Interfaol toifaga mansub lug‘atlarning yana bir muhim xususiyati ularning elektron shaklda yaratilgani.

<https://www.cambridge.english.org/images/starters-word-list-picture-book.pdf>

¹¹ Каранг: Мой первый орфографический словарь. Серия “Круглый отличник”. [Учиться только на пятерки!](#) Редактор: [Окошкина Е.АСТ](#), 2019 г., 96 с.; Мой первый орфографический словарь. Для начальной школы. Серия “[Учиться только на пятерки!](#)” Редактор: [Окошкина Е.АСТ](#), 2018 г., 48 с.; [Федорова Т.Л.](#) Школьный орфографический словарь русского языка. [Стандарт](#), 2017 г., URL:<https://www.labyrinth.ru/books/626727/>

Korpus lug‘atlar – til taraqqiyotining u yoki bu davrini aks ettirish uchun yetarli darajada katta hajmdagi matnlarni jamlash, tildagi yozma va og‘zaki matnlarning barcha ko‘rinishlarini (badiiy uslubning turli janrlari, ommabop uslub, o‘quv, ilmiy matnlar, rasmiy uslub, so‘zlashuv uslubi, dialektlar va b.) imkon darajasida to‘liq qamrab olish va muvofiqlashtirish, lingvistik razmetkalarini saqlash uchun xizmat qiladigan elektron lug‘at turi. Bugungi kunda internet saytlarida muayyan milliy til matnlarining elektron shakldagi katta to‘plamiga asoslangan, eng mukammal ishlangan va to‘ldirib borilayotgan korpuslar sifatida tan olingan <http://ruscorpora.ru> (Rossiya Federatsiyasi), <http://sara.natcorp.ox.ac.uk> (Buyuk Britaniya), <http://ucnk.ff.cuni.cz> (Chexiya) milliy korpuslarini uchratish mumkin.

Onlayn-lug‘atlar – internetda joylashtirilgan, muayyan saytda ishlashga mo‘ljallangan, ko‘plab qidiruv portallari (*google.com, yandex.ru, rambler.ru, mail.ru*)ni o‘ziga birlashtirgan va foydalanish bepul bo‘lgan, ayni paytda eng tez ommalashayotgan lug‘at turi. Jahon o‘quv leksikografiyasida onlayn lug‘atlarning uch ko‘rinishi uchraydi: 1) bosma variantlariga to‘la mos keladigan mualliflik lug‘atlari; 2) mualliflik huquqiga zid holda chop etilgan bosma mualliflik lug‘atlarini nusxalash (skanerlash) orqali yaratilgan soxta (piratskiy) lug‘atlar; va 3) har ikki toifaga mansub jihatlarga asoslangan aralash lug‘atlar¹². Onlayn-lug‘atlarning eng mashhur ko‘rinishlari sifatida *Wikipedia, Lingvo, Мультимедиа* kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Metodik va huquqiy jihatdan asoslangan leksik minimumlar, tor mutaxassisliklar uchun mo‘ljallangan terminologik o‘quv lug‘atlar, darajali, interaktiv lug‘atlar, o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini tavsiflaydigan o‘quv izohli lug‘atlarni yaratish o‘zbek o‘quv lug‘atchiligida hamon dolzarb va zarurligicha qolmoqda.

Xulosa va takliflar. O‘quv lug‘atchiligining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, qolaversa, milliy til Renessansi bilan bog‘liq hodisa. Milliy tafakkurni o‘stirish va intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lgan o‘quv lug‘atlari yaratilmas, o‘quvchilarning stoli ustida aynan uning uchun yaratilgan o‘quv lug‘atlari, leksik minimumlar turmas, buning uchun o‘quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo‘lga qo‘yilmas, va eng muhimi, lug‘atlarni tayyorlash va nashr qilish bilan bog‘liq ilmiy va moliyalashtirish tizimi yaratilmas ekan, milliy tilni rivojlantirishdek ezgu maqsadimiz to‘la amalga oshmaydi, ona tili ta’limi o‘zining haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi. Ushbu vazifalarning amalga oshilishi mamlakatimizda axborot texnologiyalari taraqqiyoti, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvodidaktika, lingvopedagogika, pedagogik leksikografiya kabi fanlarning rivoji bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тохтаходжаева М.Х. Двухязычные учебные словари и принципы их составления. – Ташкент: Ўқитувчи, 1981. – 183 с.

2. Абдурахимов М.М. Узбекская языковая афористика как объект системы учебных двухязычных словарей (на материале узбекского и русского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – 17 с.

¹²Онлайн-словарь. [Электрон ресурс]. URL:<https://ru.wikipedia.org/wiki/>

3. Хайитов Б.Т. Фразеологические единицы русского языка в двуязычном словаре (нормативно-стилистический аспект): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 1987. – 26 с.

4. Бушуй Т.А. Фразеология русского языка в двуязычном словаре: Дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1989. – 250 с.

5. Каллибекова Г. А. Проблемы учебной лексикографии: Автор. дисс. .канд.филол.наук. – Нукус, 1992. – 48 с.

6. Сиддикова И.А. Семантизация прилагательных в учебном узбекско-русском синонимическом словаре: Автореферат дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1995. – 21 с.

7. Бобоева Г.И. Лингвистические принципы семантизации лексических единиц в двуязычном учебном словаре: Дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2007. 177 с.

8. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи: Олий ўқув юртлири ўзбек филологияси факультетларининг талабалари учун ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир: А.Рустамов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.

9. Онлайн энциклопедия. Лексикография. А.Мадвалиев. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-1/leksikografiya-uz/>

10. Неъматов Ҳ., Баҳриддинова Б. “Бешикдаги Алпомиш” – луғатлар гулдастаси. “Маърифат”. – Тошкент, 2007, № 76.

11. Сайфуллаева Р., Эрназаров Т. Ўқув луғатлари яратиш – долзарб вазифа // “Тил ва адабиёт таълими”, 2007. № 4. – Б. 4–6.

12. Менглиев Б.Р., Баҳриддинова Б.М. Ўқув луғатчилиги: талаб ва эҳтиёж. «Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги масалалари». Илмий тўплам. – Тошкент, 2009. – Б. 34-41.

13. Менглиев Б.Р., Баҳриддинова Б.М. Ўқув луғатлари. “Маърифат”, 2013, № 82.

14. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Тўплам. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. – 384 б.

15. Йўлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир // НавоийДПИ ахборотномаси, 2015, 1-сон. – Б. 66–72.

NUROTAMI YOXUD NURATO ... ?

O'ralboy Axmedovich ORIPOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Nurota toponimining dastlabki nomlari Nur yoki keyinroq esa Ko'hzor nomi bilan atalgan. Shu nuqtayi nazardan ushbu ilmiy maqolada Nur so'zi hamda uning ma'no qirralari atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: nur, nura, nurak, nuruu, Ko'hzor, Nurato, Nurota, Nur qal'asi, Nur qishlog'i, etimon, etnonim, toponim.

Аннотация. Из исторических источников известно, что первыми названиями Нуротинской топонимии были Нур, позднее Кухзор. С этой точки зрения в данной научной статье были подробно проанализированы слово «Нур» и его значения.

Ключевые слова: нур, нура, нурак, нуруу, Кухзор, Нурато, Нурота, замок Нур, село Нур, этимон, этноним, топоним.

Abstract. It is known from historical sources that the first names of Nurota toponymy were Nur, later Kuhzor. From this point of view, the word "Nur" and its meanings were analyzed in detail in this scientific article.

Keywords: nur, nura, nuruk, nuruu, Kukhzor, Nurato, Nurota, Nur castle, Nur villageб etymology, ethnonym, toponymy.

Kirish. Mamlakatimizning sobiq birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"¹³, – degan fikrlari o'lkamiz toponimiyasini tadqiq qilish uchun ham tegishlidir.

Nurota toponimining ma'nosi, motivatsiyasi haqida anchagina bir-birini to'ldiruvchi yoki bir-birini inkor qiluvchi talqinlar mavjud bo'lib, ular lisoniy, tarixiy, geografik, etimologik, etnografik hamda mifologik talqin va farazlardan iboratdir.

Nurota toponimining lisoniy tarkibi, ya'ni apellyativ asosi hozirgi o'zbek tilida ham funksional bo'lgan ikki leksemadan nur va ota (ato)dan iborat bo'lishiga qaramasdan, bu toponim anglatuvchi ma'no haqida tadqiqotchilar o'rtasida bir to'xtamga kelingan emas.

Adabiyotlar tahlili. Nurota nomi ifoda qiluvchi hudud qadimiy tarixga ega va ba'zi manbalarda unga 2400-2500 yil beriladi. Nurotaning barpo etilishi Iskandar

¹³ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 71.

(Aleksandr Makedonskiy) nomi bilan bog‘lanadi. Boboqul Mirzayev buni qisqacha quyidagicha bayon qiladi: “Eramizdan avvalgi 324-yilda O‘rta Osiyoga 160 ming qo‘shin bilan Iskandar – O‘rta Osiyoga kirib keldi... ko‘p shahar va qishloqlarni oladi... so‘ngra Maroqandni, hozirgi Samarqandni olishda ko‘pgina askarlaridan ajraladi. Shundan so‘ng, Iskandar orqasiga qaytib, shimolga buriladi. U tog‘lardan o‘tib, hozirgi tog‘ tepasidagi qal‘a qurilgan joyga to‘xtab, yerdan osmonga nur taralayotganini ko‘rib hayron qoladi. Ajabo, bu qanaqa sir. Quyosh nuri yerga taralsa, bu osmonga taralyapti, deb pastlikka yetib kelsa, bir ajoyib manzara – hamma yer ko‘m-ko‘k, bir necha buloqlardan suv chiqib shimolga qarab oqmoqda. G‘arb tomonda nur taralayotgan buloq bo‘lib, bu yerni dev, parilar makon qilib olgan ekan. Shunda dev va parilarni haydab yuboradi...” hamda o‘sha yerdan qo‘rg‘on va shahar barpo qiladi¹⁴. Mana shu mazmundagi rivoyat boshqa manbalarda ham keltirilgan¹⁵. Akademik Y.G‘ulomov o‘zining “Nur qal‘asi” maqolasida Nur qal‘asi eramizdan avval IV-V asrlarda qurilganini aytadi.

Jurnalist A.Muxtorov va arxeolog B.O‘roqov “Nur qasrini Iskandariya ham deyishadi, chunki uni Iskandar qurdirgan” deb yozishgan.

Iskandar Nurga kelgan, buloqni ham ko‘rgan, qal‘a qurdirgan ham bo‘lishi mumkin. Ammo u kelguncha bu hududning, buloqning qandaydir nomi bo‘lgan-ku! Uni, Iskandar o‘zgartirganmi? Yoki ular nomsiz bo‘lsa, Iskandar birinchi bo‘lib ularni nomlaganmi? Nima deb nomlagan? Iskandarning qal‘ani ham, buloqni ham “Nur” deb nomlamagani aniq. Chunki “ziyo” ma‘nosidagi nur arabcha so‘z bo‘lib, u turkiy tilga arablar O‘rta Osiyoni istilo qilgandan keyin kirgan.

Sh.Ismoilzoda o‘zining maqolalaridan birida Nur shahrining qadimiy nomi Ko‘hzor bo‘lgani haqidagi rivoyatni keltiradi. Nomning Nurota bo‘lib o‘zgarishiga buloqning o‘zidan nur tarqalishi asos qilib ko‘rsatiladi va Nurota Nur+ato “yorug‘lik taratadigan joy” ma‘nosini berishi yoziladi¹⁶. Ammo ba‘zi manbalarda tojikcha bo‘lgan Ko‘hzor nomiga shubha bildiriladi, chunki tarixiy manbalarda bu hududga fors zabon aholi X-XI asrlardan boshlab kirib kelgan deb hisoblanadi.

Nur toponimi ko‘pgina yozma manbalarda qayd etilishicha, qadimda qishloq nomi bo‘lgan. Buning eng ishonchli dalili Abu Bakr Muhammad Ja‘far Narshaxiyning Nur qishlog‘i Buxorodan ham avval mavjud bo‘lgan deb yozishidir: “Hali Buxoro shahri vujudga kelmagan, lekin qishloqlardan ba‘zilar paydo bo‘lgan edi. Nur, Harqonrud, Vardona, Tarobcha, Safna va Isvonalar o‘sha qishloqlar jumlasidandir”. Narshaxiy Nurotani asarining boshqa o‘rinlarida ham Nur shaklida tilga olgan: “Nur katta joy”. Hofizi Abruning “Geografiya” asarida, shuningdek, temuriylar davriga oid tarixiy manbalarda Nurota Nur shaklida uchraydi¹⁷. Umuman, VIII-IX asrlarda, undan keyin ham, gap yuritilayotgan joy Nur deb atalgan. Hatto German Vamberining “Movarounnahr tarixi” asarida ham toponimning Nur shakli qayd qilinadi: “1220-yilda Chingiz bosib

¹⁴ Mirzayev B. Nurota tarixidan lavhalar // Do‘stlik bayrog‘i. – Navoiy, 1996. 31-may. – B. 6.

¹⁵ Axmadqulov K. Nurota tarixiy va aziz joy // Ilg‘or chorvador. – Navoiy, 1994. 12 aprel. – B. 2; O‘sha gazeta. – 1994. 5-aprel. – B. 2.; Shavkat Ismoilzoda. Nuri Buxoro // Ilg‘or chorvador. –1990. 5-avgust.; Bobolardan qolgan naqllar. Yozib oluvchi Raxmatulla Yusuf o‘g‘li. – T.: Fan, 1998. – B. 49 va b.

¹⁶ Ismoilzoda Sh. Nuri Buxoro // Ilg‘or chorvador, 1990. 5-avgust.

¹⁷ Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 81,138.

olgan ikkinchi shahar Nur bo‘lgan”¹⁸. Ba’zi tadqiqotchilar Nur toponimi Nurota shaklida XIX asr oxiri XX asr boshidagi yozma manbalarda uchrashini ta’kidlashadi¹⁹.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Nurota nomining ma’no va etimoni axtarilar ekan, quyidagi tomonlarga diqqat qilishga to‘g‘ri keladi:

- agar-da joy nomini arabcha Nur so‘zi bilan bog‘lansa, unda bu toponim kamida VIII asrlardan keyin paydo bo‘lgan bo‘ladi;

- bordi-yu, Nur joyning qadimiy nomi emas ekan, unda qadimiy nom nima bo‘lganini axtarishga to‘g‘ri keladi;

- bordi-yu, bu joyni Iskandar nomlagan bo‘lsa, unda u qo‘ygan nom yunoncha bo‘lishi kerak. Ammo Iskandarning bu joyga yunoncha nom qo‘ygani haqida daraklar yo‘q.

- Nur: 1) qishloq nomi; 2) buloq nomi; 3) qal’a (qo‘rg‘on) nomi; 4) tog‘ nomi. Nur dastlab qaysi birining atoqli oti sifatida yuzaga kelgan? Tabiiy hodisa bo‘lgani uchun buloq va tog‘ qadimiy obyektidir. Qishloq, qal’a (qo‘rg‘on) sun’iy obyekt bo‘lgani uchun tabiiy obyektlardan keyin paydo bo‘lgan. Mo‘tabar manbalarda Nur qal’asi V-VI asrda ham mavjud bo‘lgani yozilgan. Ko‘pchilik manbalarda Nur toponimining paydo bo‘lishi buloqqa, uning xususiyatiga bog‘langan holda izohlanadi.

Nurota toponimining ilk, qadimiy shakli Nur bo‘lgani aniq. Bu holda ushbu tomonimning ma’no va etimonini Nur leksemasidan axtarishga to‘g‘ri keladi.

Nur leksemasi mana shu uch tovushli shaklida arabcha -ziyo, yorug‘lik deb talqin qilinadi. Nur so‘zining ma’nosiga shunday izoh berilgan: «Yorug‘lik manбайдan taralgan va ingichka tola ravishda tasavvur etiladigan ziyo, yog‘du»²⁰. Ushbu so‘z qadimiy arab tili, jumladan, “Qur’on” tilida - nu:run – o‘t, olov ma’nolarini anglatgan²¹.

Nur so‘zining boshqa ramziy, ko‘chma ma’nolari ham bor. Ular orasida Nur so‘zining an – Nur shaklida Allohning nomi, sifati ma’nosida kelishi va u “o‘z-o‘zidan borlig‘i ayon va borliqni ham ayon etuvchi” ma’nosini anglatishi ma’lum²². Xuddi shuningdek, bu leksema Allohi Taolodan tashqari, Muhammad payg‘ambarlarning sifatlaridan biri hamdir. Nur so‘zi asli arabcha va o‘zbekcha ismlar tarkibida mana shu ma’nolarda keladi²³.

Bordi-yu, Nur toponimi keltirilgan ma’nolarga bog‘lanadigan bo‘lsa, joy nomi buloqdan chiqadigan yog‘du, ziyoga bog‘liq bo‘ladi. U holda Nurota nomi tarkibidagi “ota” komponenti “ota” emas, balki “ato” shaklida, ya’ni “nur tarqatuvchi, nur baxsh etuvchi, taratuvchi” ma’nolarida tushunilishi lozim bo‘ladi. “Ato” mana shu shakl va ma’noda talqin qilinsa, u Allohi Taolo va Muhammad payg‘ambarning qayd qilingan nomi – sifatlariga ham bog‘lana oladi, ya’ni Alloh yaratgan, baxsh etgan joy, makon yoki Allohning ehsoni, tuhfasini ma’nolarini beradi. Ammo mavjud manbalarda Nurota nomining ikkinchi komponenti imlosi va talaffuzida bir xillik yo‘q. U goh Nurota, goh

¹⁸ Vamberi German. Movarounnahr tarixi // Sharq yulduzi. – № 4. – B.112.

¹⁹ Qodirov Rahim. Nurota chashmasi// – Toshkent, 1998. – B. 3.

²⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom. – M., 1981. – B. 513.

²¹ Bobirbek Xasan. Qur’oni karim so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha ko‘rsatkichli lug‘ati. – T., 1995. - 490-bet.

²² Begmatov E. Ism chiroyi. – T.: Fan, 1994. – B. 22.

²³ Begmatov E.A O‘zbek ismlari ma’nosi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. – B. 299.

Nurato shaklida yozilmoqda. Bu nomni o‘sha hududda yashovchi mahalliy aholidan tojikcha so‘zlashuvchilar Nurato, qipchoq shevasida so‘zlovchilar *Nurata*, adabiy tilda so‘zlovchilar *Nurota* tarzida tilga olishadi.

Nurota toponimining ikkinchi qismini o‘zbekcha (turkiy) ota so‘ziga bog‘lab izohlash ham mumkin. Bu so‘z o‘tmishda, asosan, uch ma’noda qo‘llanilgan: 1) farzandli, bola-chaqali er kishi; 2) rahnamo, ustoz (otaliq so‘zi va unvoni mana shu ma’nodan); 3) ulug‘, muqaddas, avliyo. Biz uchun bu o‘rinda qayd qilingan ma’nolardan uchinchi ahamiyatlidir. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da ota so‘zining uchinchi ma’nosi: “ota; buyuk, ulug‘ kishilarning ismi bilan birga keladi: Sadr ota – mavlidi Turkiston viloyatindandur, deb “Nasoyimul muhabbat” asarida izohlangan²⁴. Ota so‘zi o‘tmishda yashab o‘tgan bir qator shayxlar, avliyolar, ulug‘ shaxslar atoqli oti tarkibida uchraydi. Chunonchi, Navoiy asarlarida shunday nomlar uchraydi: Zangiota, Ismoilota, Ishoq ota, Kishilik ota, Xalil ota, Qilichlik ota, Qo‘rqut ota, Hakim ota²⁵. Bordi-yu Nurota nomining ikkinchi qismi ota (ato emas) deb hisoblanadigan bo‘lsa, unda ikki xil faraz yuzaga keladi: 1) Nurota nomi nur so‘zidan iborat yoki tarkibida nur so‘zi mavjud bo‘lgan (Nurulla, Nuriddin) shaxs nomi bo‘lishi mumkin; 2) Nur deb atalgan qishloq yoki buloq nomi “aziz qadamjoy”, “muqaddas joy”, “avliyo joy” ma’nosida ilohiylashtirilgan bo‘lishi mumkin. Har ikki holatda Nurota nomi diniy mazmun, talqin kasb etadi.

Nurota nomini diniy ma’noda talqin etish tarafdorlari ham anchagina. Chunonchi, S.Qorayev *Nurota* nomini mo‘g‘ulcha deb talqin qilishga qo‘shilmaydi va yozadi: “Shunday qilib, Nur bora-bora *Nurota* bo‘lib ketgan. Nur so‘zi (arabcha) “yorug‘lik”, ota esa – geografik nomlar tarkibida “aziz avliyolarning qadamjoyi” degan ma’noni bildiradi²⁶. “Ziyoratgoh joy bo‘lganidan shunday nom olgan bo‘lsa kerak²⁷. S.Qorayevning keltirilgan fikrini boshqa mualliflar ham aynan takrorlashgan²⁸. S.Nayimov *Nurning* mo‘g‘ulcha ekaniga qo‘shilmaydi va uni arabcha nur (ziyo) ga bog‘laydi. Uning fikricha, *Nurota* tog‘i nomi qadimiy Nur qishlog‘i nomidan olingan²⁹. Albatta, bu mulohazalar munozarali. Akademik Y.G‘ulomov: “Nur o‘zining chashmasi bilan atrofdagilarga mashhur. Xalq uning nomi yoniga “ota” so‘zini qo‘shib, “*Nurota*” deb atagan”. Q.Haydarov *Nurota* 2500-2600 yillik tarixga egaligini yozadi va asli Nur deb atalgan qishloq nomiga “ota” so‘zi X asrdan boshlab qo‘shilgan deb hisoblaydi.

Nur toponimiga ota so‘zining qo‘shilish sababini talqin qiluvchilarning aksariyati Narshaxiyning “*Buxoro tarixi*” asarida aytilgan mulohazaga tayanishadi: “Nur katta joy. Unda masjidi Jome bor. U ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko‘p mubolag‘a qiladilar: Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo‘ladi... Tobeinlardan ko‘p kishilar u yerga dafn etilganlar, xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo‘lsin!”³⁰

²⁴ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II tom. – T.: Fan, 1983. – B. 533.

²⁵ O‘sha lug‘at. IV jild. – T.: Fan, 1985. – B. 268-311.

²⁶ Qorayev S. Toponimika. – T., 1970. – B. 12.

²⁷ Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – T.: O‘zbekiston, 1978. – B. 87.

²⁸ Jumayev A.Sh., Muhamedov I.I., Xamroyev A.X. O‘lkamizdagi joy nomlari. – Buxoro, 1998. – B. 24.

²⁹ Nayimov S.N. Buxoro viloyati toponimlari. – T., 1984. – B. 9.

³⁰ Narshaxiy Abu Bakr Muxammad. Buxoro tarixi. – T.: Fan, 1966. – B. 2.

Demak, qadimiy “Nur”ning, keyinchalik Nurotaning muqaddas qadamjoy bo‘lgani aniq. Unga “ota” so‘zi shu uchun qo‘shilgan. Ammo bir narsa noaniq qoladi: odamlar buloqqa sig‘inishganmi yoki biror shaxsning qabriga, ruhiga sig‘inishganmi? “Ota” so‘zi yuqorida qayd qilinganidek, asosan, kishi atoqli oti tarkibida keladi.

Nurota nomini bu joyning ziyoratgohga aylanish sababini konkret shaxs nomiga bog‘lab izohlashga intilishlar ham bor. Bunda mashhur shayx Hasan Nuriy ko‘zda tutiladi. Bu shaxs yuqorida Narshaxiy aytgan tobeinlar (Muhammad payg‘ambarni emas, balki uning safdoshlari, sahobalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlar)dan biridir.

Hozir “Chashma” muzeyida saqlanayotgan qabr toshidagi lavha 1912-yilda Mirbiy Yo‘ldosh tomonidan fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, unda Abul Hasan Nuriy yeri ko‘kdagi bilimlar podshosi deb ta’riflanadi. U faqatgina islom targ‘ibotchisigina emas, Nurda dastlabki masjid-madrasalar qurdirgan va shayx unvoniga sazovor bo‘lgan, so‘fiylikning o‘ziga xos yo‘nalishini asoslagani uchun donishmand hamdir. Tilga olingan qabr toshida uning vafot etgan yili hijriy 295, melodiy 907 deb ko‘rsatilgan. Shayx haqida dastlab X asrda yashagan Jullobiy al-Hujviriyning “Kashf al-maxjub” asarida quyidagicha ma’lumot berilgan: “Islomda so‘fiylikning ko‘zga ko‘ringan ulug‘laridan biri Abul Hasan (Husayn) Ahmad ibn Muhammad bo‘lib, so‘fiylikning “Nuriy” bosqichiga asos solganlar. Bu ulug‘ va donishmand kishi IX asrda yashagan”.

A.Jomiyning donishmandlar to‘g‘risidagi “Nafohatul uns min hazarotul quds” (“Pok zotlar huzuridan esgan do‘stlik shabadalari”) tazkirasida 616 donishmand qatorida Nuriy ham tilga olinadi. Jomiydan tashqari, A.Navoiy, F.Attor ham o‘z tazkiralarda uni tilga olishadi.

Nurota toponimining etimologiyasi diniy motivlarga bog‘lanadigan bo‘lsa, u holda “ota” so‘zi shaxs nomiga qo‘shilgan bo‘lib chiqadi. Ammo tarixiy manbalarda bu hududda nomi Nur so‘zi bilan boshlangan mashhur shaxs o‘tganganligi haqida daraklar yo‘q. Shu sababli Nurota toponimining etimonini shaxs nomiga bog‘lab talqin qilish nihoyatda munozaralidir.

Tarkibida *nur* morfemasi mavjud so‘zlar turkiy tillarda ham uchraydi: *nuramoq* – yemirilmoq, uqalanmoq, parchalanmoq yoki *nuri* – go‘ng ma’nosida. Nuramoq so‘z ikki ma’noga ega: 1) eskirib yemirilmoq, buzilmoq va 2) tog‘ jinslarining shamol, atmosfera hodisalari ta’sirida yemirilishi³¹. Sh.Rahmatullayev bu so‘zni negadir turkiy leksema sifatida izohlamagan³².

Bir qator nomshunoslar Nur so‘zining etimonini mo‘g‘ul tilidan axtarishgan. Mo‘g‘ul tilida nuraax, nurax, nuruu, nuur so‘zlari mavjud bo‘lib, nuur – ko‘l ma’nosini, nuraax, nurax – yemirilish, nurash, parchalanish; nuruu – orqa, tog‘ orqasi, nuruu – tog‘ ma’nolarini anglatadi. Mo‘g‘ul tilidagi mana shu ma’lumotlarga suyangan holda V.A.Nikonov Nurota tarkibidagi Nur mo‘g‘ulcha nurudan va “tizma, tog‘ tizmasi” ma’nosini anglatadi deb hisoblagan. Ota qismini esa tau, tov so‘zlariga bog‘lagani ma’lum. E.Murzayev “nuru”ni – tog‘ deb talqin qilgan. “Mo‘g‘ulcha nura, nuru so‘zlari “tog‘, baland tog‘, tog‘ tizmasi, cho‘qqi” ma’nolarini anglatishi, shunga ko‘ra, Nurota toponimi “baland tog‘, cho‘qqili tog‘” ma’nosini anglatishi mumkinligini Z.Do‘simov va

³¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1 tom. – B. 513.

³² Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – T.: Universitet, 2000.

X.Egamovlar ham qayd qilishgan³³. Taniqli turkman nomshunosi S.Otaniyozov Turkmanistonda Nurata, Nurbak, Nurbike, Nurukash toponimlari mavjudligini qayd qilgan. Ammo u ushbu nomlar etimologiyasini chetlab o'tgan. Qozoq toponimisti K.Qo'yshiboyev nura apellyativi: 1) cheksiz keng dala; 2) chuqurlik; 3) tepa (tog')ning bosh qismi, cho'qqi ma'nolarini ifodalashini yozadi va Nurak (Nur+ak) toponimini joy nomini “cho'zilib yotgan tepalik, kichkina qir” ma'nosida izohlagan.

T.Nafasov Qashqadaryo hududida uchraydigan Nura (balandlik, tepalik nomi) toponimini mo'g'ul tilidagi nuraa – o'pirilish, tog'dan nurab tushgan toshlar uyumi, qozoq va qirg'iz tillaridagi nura – jar, jarlik, suv o'yib ketgan joy ma'nolariga bog'lab izohlagan³⁴. Shuningdek, u Qashqadaryodagi Nurali (qishloq va dara nomi) toponimini kishi nomiga (Nur+Ali) bog'lagani holda Nurali oronimini negadir mo'g'ulcha “nuruu” so'ziga aloqador deb biladi va bu so'zning tog' tizmasi, cho'qqi, cho'qqili, qoyasimon balandlik ma'nolarini keltirgan³⁵. T.Nafasov Nurqay toponimini nur – tog'dan o'pirilib tushgan toshlar uyumi, nuraa – jar, o'pirilgan joy, o'yiqlik joy deb izohlaydi va Nurqay – toshli, yirik toshli joy ma'nolarida talqin qilgan³⁶.

B.O'rinboyev Samarqand viloyati hududida 9 ta qishloq va bitta qo'rg'on nomining o'zagini “Nur” leksemasi tashkil qilishini qayd qilgan. Ammo B.O'rinboyev toponimlar tarkibidagi nur leksemasining ma'nolarini turlicha izohlagan. Chunonchi: Nur+ak – jar, tik, tubsiz chuqur, Nurak+li – cho'qqili, qoyasimon balandligi bor joydan ko'chib kelganlar joyi”, Nurbuloq: nur – ziyo, yog'du, yorug'lik; buloq (buluk) – to'da, guruh, to'p, ya'ni Nurbuloq – ziyo taratgan avlod vakillari yashagan joy”; Nurdek – tosh uyumi, to'dasi, -dek qo'shimchasi o'xshatish ifodalaydi; Nurdek – cho'ziqlik qirsimon joydagi qishloq; Nurdum – nur – jar, o'pirilgan joy, dum – dumaloq, ya'ni “o'pirilgan joylari mavjud bo'lgan balandlikdagi qishloq”; Nurobod – jar, o'pirilgan joy, o'yiqlik mavjud joydagi qishloq kabi³⁷.

Nur morfemasi toponimlardan biri Nurak nomidir. B.O'rinboyev fikricha, bu nom Nur+ak morfemalaridan iborat. U bu nomni mo'g'ulcha Nuru so'ziga bog'laydi va nur «tizma, tog' tizmasi, -ak kichraytish affiksidan tarkib topgan» deb hisoblaydi.

Z.Do'simov, X.Egamovlarning fikricha, qishloq nomi bo'lgan Nurota “toponimi Nurota tog'i nomi asosida vujudga kelgan” va u “baland tog', cho'qqili tog'” ma'nosini bildiradi³⁸. Mualliflar bu fikrni mo'g'ulcha nura, nuru apellyativlariga bog'lab izohlashgan. Ushbu mualliflarning fikricha, Farg'ona viloyati hududidagi Nursuq qishlog'i nomidagi Nur ham “tog', tog' tizmasi” ma'nosidadir. So'q “o'zan, jar, soy” ma'nosida. Demak, Nursuq “tog' o'zani, tog'dagi o'zan”.

H.Hasanovning yozishicha, Nurota tarixiy yozma manbalarda Nur, Nur Buxoriy, Nurota shaklida tilga olinadi va ko'hna Nur shahri deb ta'kidlanadi³⁹. H.Hasanov Nurota toponimi etimonini arabcha “nur” so'ziga bog'laydi va joy nomi tog' nomidan olingan deb biladi: “Nurota. Asli nomi Nur. Buxoro va Karmanadagi birdan-bir baland tog'. Uni

³³ Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1977. – B. 108.

³⁴ Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1988. – B. 131.

³⁵ Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1988. – B. 131.

³⁶ Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1988. – B. 131.

³⁷ O'rinboyev B. Samarqand viloyati toponimlarining izohi. – Samarqand, 1997. – B. 97-98.

³⁸ Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1977. – B. 108.

³⁹ Xasanov X. Geografik nomlar imlosi. – T.: O'zFA nashriyoti, 1962. – B. 125. O'sha muallif. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965. – B. 70.

ulug‘lab, u yerdagi mozorni muqaddaslashtirib Nur ota deganlar. Oftob nuri ham eng avval ana shu tog‘ tepasida ko‘rinadi⁴⁰.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda Nurota toponimining ma‘no va etimoniga oid fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Nurotaning qadimiy nomi Nur bo‘lgan. Ikkinchi qism unga keyin qo‘shilgan.

- Nurning bu nomdan avvalgi qadimiy nomi Ko‘hzor bo‘lgan. U ba‘zan Iskandariya deb ham atalgan.

- Nurning etimoni mo‘g‘ulcha nura (nuraak) so‘zi va u:

1. Emirilgan, nurab tushgan, o‘pirilgan yer;

2. Tog‘dan nurab tushgan toshlar uyumi;

3. Jar, jarlik, suv yemirgan, o‘yib tashlangan joy;

4. Cheksiz keng dala;

5. Cho‘ziq qirsimon dala ma‘nolarini anglatadi. Demak, Nur – jarlik, jarlik bo‘yida joylashgan qishloq yoki balandlikda, yuqorida joylashgan qishloq, joy ma‘nolarini anglatadi.

- Nurning etimoni mo‘g‘ulcha nuruu so‘z va bu so‘z:

1. Tog‘, tog‘ning orqa qismi;

2. Tog‘, tog‘ tizmasi;

3. Baland cho‘qqili tog‘ ma‘nolarini anglatadi. Demak, Nur asli tog‘ nomi bo‘lgan va u keyinchalik qishloq nomiga ko‘chgan.

4. Nurota toponimini har ikki komponenti arabcha: Nur+ato, Nur – yorug‘lik, yog‘du, ziyo; ato – baxsh etuvchi, beruvchi, in‘om qiluvchi. Nurato – yorug‘lik, yog‘du taratuvchi, nurli, nurafshon. Bu ma‘noda Nurota buloq (chashma) nomiga bog‘lanadi.

- Nur – Allohi Taolo va Muhammad payg‘ambarning sifatlaridan biri (an-Nur). Demak, Nurato – Alloh ato qilgan, Allohning tuhfasini, ehsoni yoki Muhammadning nazari, nuri tushgan joy.

- Nurota toponimining ikkinchi qismi “ato” emas, turkiy ota so‘zi va u shaxs nomi tarkibida kelib, ulug‘ shaxs, avliyo ma‘nolarini anglatadi. Demak, Nurota toponimining etimoni tarkibida nur so‘zi mavjud bo‘lgan biror mo‘‘tabar shaxsning atoqli otidir.

- Nurota – muqaddas qadamjoy, ziyoratgoh ma‘nosida. Chunki ko‘pgina avliyolar o‘sha joyda dafn etilgan.

Nur//Nurota toponimining paydo bo‘lish vaqtini arabcha Nur so‘zi bilan, shuningdek, O‘rta Osiyoni mo‘g‘ullar istilo qilgan davr (XIII asr) bilan bog‘lab bo‘lmaydi, chunki bu qadimiy Nur qishlog‘i o‘tmishini, yoshini nihoyatda qisqartirib yuboradi. Nur etimonini mo‘g‘ulcha nura (Nuraax, Nurax), nuruu so‘zlari bilan bog‘lash mumkin. Ammo bu holda nega Nur nomi Nura, Nuri, Nuruv shaklida saqlanmagan degan savol tug‘iladi. Nurni mo‘g‘ul va turkiy tillardagi nur morfemasiga qiyoslash mumkin. Mo‘g‘ulcha nuur – ko‘l ma‘nosini bersa, turkiy nur, nurash so‘zlari yemirilish, parchalanishni anglatadi. Keyingi ma‘noni mo‘g‘ulcha nurax//nuraax ifodalaydi. Demak, nur, nura leksemalari turkiy til va mo‘g‘ul tili uchun mushtarak leksemalardir. Bunday mushtaraklik bu ikki tilning qadimiy rivojlanish davri – oltoy davridagi umumiylikka taalluqli bo‘lishi mumkin.

⁴⁰ Xasanov X. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – B. 49.

Xulosa va takliflar. Nur toponimini qandaydir boshqa bir qadimiy tilning qoldig‘i deb bilish ham ehtimol, masalan, sanskrit va so‘g‘d tilining. Bunga asos Abu Bakr Muhammad Ja‘far Narshaxiyning Nur toponimini qadimiy so‘g‘d va sanskrit tillariga mansub Harqanrud, Vardona, Safna, Isvona nomlari qatorida tilga olishidir. Albatta, bizning bu farazimiz qo‘shimcha izlanishlarni talab qiladi. Har holda Nur nomini o‘sha joyning tabiiy holati, fizikaviy-jo‘g‘rofiy xususiyatiga bog‘lagan holda izohlash maqsadga muvofiqdir. Mana shu ma‘noda biz Nur nomini «balandda, yuqorida joylashgan» joy, qishloq deb talqin qilish tarafdorimiz. Bunda, albatta, qadimiy Nur qishlog‘i ko‘zda tutiladi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. - 71-bet.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. II tom. – T.: Fan, 1983. - 533-bet.
3. Axmadqulov K. Nurota tarixiy va aziz joy // Ilg‘or chorvador. - 1994. 12 aprel. – B. 2; O‘sha gazeta. - 1994. 5 aprel. – B. 2;
4. Shavkat Ismoilzoda. Nuri Buxoro// Ilgor chorvador. - 1990. 5 avgust; Bobolardan qolgan naqlar. Yozib oluvchi Raxmatulla Yusuf o‘gli.- T.: Fan, 1998. - 49-bet va b.
5. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1977. - 108-bet.
6. Ismoilzoda Sh. Nuri Buxoro // Ilg‘or chorvador, 1990. 5 avgust.
7. Jumayev A.Sh., Muxamedov I.I., Xamroyev A.X. O‘lkamizdagi joy nomlari. – Buxoro, 1998. - 24-bet.
8. Mirzayev B. Nurota tarixidan lavhalar // Do‘stlik bayrog‘i. - 1996. 31 may.- B. 6.
9. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1988. - 131-bet.
10. Qorayev S. Geografik nomlar ma‘nosi. – T.: O‘zbekiston, 1978. - 87-bet.
11. Qorayev S. Toponimika. – T., 1970. - 12-bet.
12. Vamberi German. Movarounnaxr tarixi // Shark yulduzi. - № 4. – B.112.
13. Xasanov X. Geografik nomlar imlosi. – T.: O‘zFA nashriyoti, 1962. - 125-bet.
- O‘sha muallif. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965. - 70-bet.
14. Xasanov X. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. - 49-bet.



BOLA TOMONIDAN IDROK ETILADIGAN MATNLARDA OLAM LISONIY MANZARASI TASVIRI



Nasiba Jumayevna YARASHOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Bolalar adabiyoti lingvistik asosga ega bo'lish bilan bir o'rinda, kognitiv hamda psixologik ahamiyat ham kasb etadi. Bolalar adabiyotini egallashning psixolingvistik omili natijasida bolaning og'zaki va yozma savodxonligi rivojlanib, bola muloqot asosida o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida his etadi, o'zini-o'zi boshqarish istagini amalga oshiradi; psixologik omil orqali vizual-majoziy fikrlashdan rasmiy-mantiqiy fikrlashga tomon harakat seziladi; bolalar adabiyotining asosini tashkil etuvchi lingvistik omil esa bolada yozma nutqni shakllantirib, matn bilan tanishishga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: olam manzarasi, til, voqelik, ong, so'zlovchi, matn, tinglovchi.

Аннотация. Детская литература не только имеет лингвистическую основу, но и приобретает познавательное, а также психологическое значение. В результате психолингвистического фактора овладения детской литературой развивается устная и письменная грамотность ребенка, Ребенок на основе общения ощущает себя активным членом общества, реализует стремление к самоконтролю; через психологический фактор ощущается движение от наглядно-образного мышления к формально-логическому мышлению; а языковой фактор, составляющий основу детской литературы, формирует у ребенка письменную речь и дает возможность ознакомиться с текстом.

Ключевые слова: картина мира, язык, реальность, сознание, говорящий, текст, слушатель.

Abstract. Children's literature not only has a linguistic basis, but also acquires cognitive as well as psychological significance. As a result of the psycholinguistic factor of mastering children's literature, the child's oral and written literacy develops, the child feels himself an active member of society on the basis of communication, realizes the desire for self-control; through the psychological factor, there is a movement from visual and imaginative thinking to formal logical thinking; and the language factor, which forms the basis of children's literature, forms the child's written speech and gives the opportunity to familiarize himself with the text.

Keywords: worldview, language, reality, consciousness, speaker, text, listener.

Kirish. Bolaning nutq faoliyatining lingvistik o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi xususiyati bu so‘z darajasida va matn darajasida o‘zini namoyon qiladigan lingvokreativlikdir. So‘z darajasida lingvokreativlik leksik-semantik innovatsiyalar va tor lug‘atni qayta ko‘rib chiqish shaklida, matn darajasida til o‘yini va bolaning hikoya faoliyati shaklida ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bola o‘zi uchun tushunarli bo‘lgan matn orqaligina olamning lisoniy manzarasini tafakkurida aks ettiradi, gavalantiradi. Bolalar adabiyoti asarlarida so‘zlovchi – matn – tinglovchi⁴¹ munosabati yaqqol aks etib, bolalar uchun yaratilgan matnlarning aynan ular uchun mo‘ljallanganligini, bolalar tomonidan yaratilganligini isbotlaydi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining ijodkor tomonidan sayqallanib, bola tafakkur dunyosiga mos tarzda gavalantirilishi xususida B.Jamilova to‘xtalib, “folklor namunalarini (ertak, masal, rivoyat, latifa kabi) bolalar yoshi, saviyasi va qiziqishiga moslashtirib qayta ishlash yoki tabdil (interpretatsiya) qilish⁴²” vujudga kelishini aytadi.

Tabdil so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “o‘zgartirish, almashtirish” ma’nomlarni anglatadi⁴³. Matn tilshunosligida “Lisoniy tabdil usuli” mavjud bo‘lib, unda “Tabdil – “almashtirish, o‘zgarish, o‘rin almashtirish” kabi ma’noni bildiradi. Badiiy asar tilining ifodasi, badiiyliigi, ishonarliligi, yozuvchining mualliflik mahoratini oydinlashtirishda ushbu tahlil usulidan foydalaniladi. Matnda qo‘llanilgan so‘z va iboralarni qayta tuzib ko‘rish, o‘xshashi bilan almashtirish va shu asosda baho berish inobatga olinadi⁴⁴.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, leksik-semantik, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bolalar uchun yaratilgan matnlar albatta, bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda yoziladi. Y.N.Karaulov ta’kidlaganidek, bolalarga xos bo‘lgan “... matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs” turadi⁴⁵. Demak, matnning bolalarga xoslanishi tabiiy jarayondir. Bu vaqtda bolalar tomonidan idrok etiladigan matnlar quyidagi tamoyillarga asoslangan holda yaratiladi:

Shakl va mazmun birligi tamoyili. Bolalar uchun yaratilgan matnlarda shakl va mazmun bir-biri bilan o‘zaro zich bog‘langan bo‘lib, muallif qahramon tasviri, holatini ifodalashda o‘z subyektiv baho munosabatini ifodalaydi:

Yolg‘on emas – chin so‘zim,

Magazindan bir o‘zim

Ko‘cha chetidan yurib,

Ancha narsani ko‘rib,

Qaytimni yo‘qotmasdan,

Kuchukka tosh otmasdan,

Olib keldim issiq non,

Uyga kelganda mehmon!. (P.Mo‘min, Bo‘ladigani bolalar. 15-b.)

⁴¹ Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. – Москва, 2001. – Т.1. – С. 72–81.

⁴² Jamilova B.C. O‘zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 37.

⁴³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 4-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. – B. 5.

⁴⁴ Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z. 2020. – B. 120.

⁴⁵ Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – Москва: Наука, 1989. – С. 3–8.

Bolalar adabiyoti vakillari shakl va mazmun birligi tamoyilida lisoniy vositalarning matn tabiatiga mos ekanligiga ham alohida eʼtibor qaratadilar. Jumladan, qahramon ruhiyatidagi gʻazablanish holatini ifodalashda siqiq jumjalarning ishlatilishi mazkur tamoyilning asosiy xususiyatlaridan biridir: – *Peshonamga televizor yopishib qoldi, koʻrmayapsizmi? – deb rosmana yigʻlab yuboribdi Omonboy. (X.Toʻxtaboyev, Jannati odamlar. 205-b.)*

Qahramon ruhiyatidagi xursandchilik holatini ifodalashda esa keng planda aks etgan jummalarni qoʻllaydilar:

– *Xafa boʻldingiz picha,*

“Bir” olib qaytsam kecha.

Bugun men “ikki” oldim,

Aʻlochi boʻlib qoldim. (A.Obidjon, Gʻalati maktublar. 31-b.)

Shuningdek, ijodkor ijobiy qahramonni tasvirlar ekan, oʻsha qahramonga nisbatan xayrixoh ekanligi sezilib turadi va obrazni tasvirlashda yorqin lisoniy birliklardan foydalanadi:

Kuloncha ham chiroyli,

Quyuncha ham chiroyli.

Buncha goʻzal Qoʻzichoq,

Kiyikcha – naq qoʻgʻirchoq.

Hammasini erkalab,

Boshlarini siypalab,

Juda suyгим kelyapti,

“Xap” qipqoʻygim kelyapti! (A.Obidjon, Gʻalati maktublar. 79-b.)

Salbiy qahramon tasvirida esa buning teskarisini kuzatamiz. Fikr bildirilayotgan qahramonga nisbatan salbiy munosabat aks etib turadi. Obrazni tasvirlashda unga xos boʻlgan barcha salbiy illatlar keltiriladi, bezgin ruh va yoqimsiz ifoda tarzi sezilib turadi:

*Kenja ukam **Bahodir** –*

Shoshma-shoshar, gʻirt dovdur.

Yurar boʻlsa kalishda,

Bir poy doim alishda.

Dadamniki doʻppisi,

Singlimniki guppisi,

Bobomniki belbogʻi,

Qatida – nosqovogʻi.

Koʻk koʻylagi meniki...

Iy, ishtoni kimniki?

Oʻrtancha ukam Eshjon –

Qolibdida beishton! (A.Obidjon, Gʻalati maktublar. 26-b.)

Matnlardan anglashiladiki, adiblar bolalarga xos matnlarni yaratishda bolaning xarakter-xususiyati, feʼl-atvori hamda tashqi koʻrinishiga mos muvofiqlikni taʼminlash maqsadida, voqealar rivojini boʻrttirib koʻrsatishga harakat qilganlar. Bolaning nutqiy faoliyati badiiy matnda yaqqol yuzaga chiqadi, kattalar kabi bolaning nutqiy saviyasi, fikrlash koʻlami va ruhiy dunyosini namoyon etishning ham eng maqbul yoʻli badiiy matnda ular nutqini xoslashtirish, individuallashtirishdan iborat. Shuning uchun

mahoratli yozuvchilarning qahramonlari nutqi bir-biridan farqli va betakror tarzda shakllantirilgan bo‘ladi.

Makon va zamon birligi tamoyili. Bolalar adabiyoti tilida bolalarga xos bo‘lgan matnlarda makon va zamon birligini ko‘rish mumkin.

Bolalar hayotida muhim o‘rin tutuvchi kundalik mashg‘ulotlardan biri turli o‘yinlar bo‘lib, ilmiy manbalarga ko‘ra, bolani kelgusi hayotga tayyorlashda o‘yinlar asosiy vosita bo‘la oladi⁴⁶. Shunday ekan, bolalar adabiyoti tilida ham o‘yin va uning turlari bilan bog‘liq leksemalar nomi ko‘p keltiriladi: – *Xonkeldi qishlog‘ida hech qanday tartibga bo‘ysunmaydigan, hech qanday qonunga rioya qilmaydigan, mushtlashish, eshakmindi, bov ustiga bov, o‘n akki soat to‘xtamay to‘p tepish, dashtga, ho‘v anavi tog‘ yon bag‘ridagi kenglikka chiqib olib velosipedning qosqoni singuncha poyga uyushtirish singari yovvoyi o‘yinlar avjiga chiqqan.* (X.To‘xtaboyev, *Quyionlar saltanati*. 9-b.). Ko‘rinadiki, bolalar o‘z shaxsiy sifatleri va xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqib turli o‘yinlarni o‘ylab topishgan va ongli idroklari asosida ushbu o‘yinlarni nomlashgan. Xalq o‘yinlari, jumladan, bolalar hayotiga xos o‘yinlar milliy-madaniy qadriyatlarimizning ramzi. X.To‘xtaboyev asarlaridagi qahramonlar – bolalarning ushbu o‘yinlarni o‘ynashlari orqali ularni o‘rganish, qayta tiklash natijasida yosh avlodning jismoniy hamda ma‘naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qilishini ko‘rsatib bera olgan.

Bolalar kun mobaynida biror-bir mashg‘ulot bilan shug‘ullanish, ota-onalari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish, ayniqsa, televizor ko‘rish hamda telefon o‘ynashni juda yoqtirishadi. Hattoki, elektronika bilan bog‘liq narsalarni buzish yoki qaytadan tuzatish ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishadi: – *Televizorni buzibsanzu! // – Buzganim yo‘q, predoxranitelni olib, Olimlarnikiga qo‘ydik. Ularники ishlab qoldi, ishonmasang borib ko‘rishning mumkin.* (X.To‘xtaboyev, *Qaylardashan, bolaligim*. 91-b.). “Ziyofat” hikoyasining qahramoni oqko‘ngil, sodda Rashidjonning nutqidan ko‘rinadiki, u elektron narsalarga juda qiziqadi, elektron jihozlarni tuzatishni, birini ikkinchisiga almashtirishni yoqtiradi. Asarda Rashidjon ayyor, quv bola bo‘lishiga qaramay, soddaligi ham sezilib turadi. Shuningdek, XXI asr kompyuter texnologiyalar asri bo‘lganligi sababli ham hozirgi yosh avlod kompyuter o‘ynashga qiziqishi yana bir o‘rinda yaqqol namoyon bo‘ladi: *...dadalaridan pul undirib chiqqan yosh-yosh bolalar kompyuter o‘yinlariga berilib tomosha ko‘rishar edi.* (X.To‘xtaboyev, *Quyionlar saltanati*. 38-b.).

Yuqoridagi matnlardan ko‘rinadiki, har bir matn makon va zamon birligi tamoyiliga asoslangan holda yaratilgan. O‘zbek bolalar adabiyotida makon va zamon birligi tamoyili asosida qo‘llanilgan so‘z va iboralar, tushunchalar o‘zbekona xususiyatlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, insoniy munosabatlarni to‘laligicha aks ettiradi. Matnlarda ifodalangan makon va zamon birligi tamoyilini hosil qiluvchi vositalarning poetik matndagi vazifasi avvalo, muallif munosabatini, voqelik faktlariga bergan bahosini ko‘rsatish, matndagi lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, orzu-umidlarini aks ettiradi. Matnlarda oddiy hayotiy haqiqatlar adibning kuzatishi va hayotiy xulosasi natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xususiylkdan umumiylikka o‘tish tamoyili. Tilning ichki, ifodalanmish tomoni, mazmuni, mohiyatini tushunishda xususiylk va umumiylik kategoriyalari birlamchi ahamiyatga ega. Bola ongining olamni in‘ikos ettirishida xususiylkdan umumiylikka o‘ta

⁴⁶ G‘oziyev E. Psixologiya (yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B. 99.

borishi va bu uzluksiz jarayondagi mantiqiy shakllanishlarning tilda, til birliklarida ifodalanishi hamda umumiylik maqomidagi lisoniy birliklarning cheksiz yakkaliklar, alohidaliklar, xususiyliklar uchun qo‘llana olish imkoniyatlarini atroflicha va chuqur tadqiq etish mantiq va tilshunoslikning hamkorlikdagi vazifalaridir. Umumiylik va xususiylik kategoriyalari kognitiv lingvistikaning nazariy asosi hisoblanadi. Aynanlik va farqlilik kategoriyalarining muhimligi shundaki, ular til birliklarining qanday izchil o‘zgarishlar, farqlanishlar yordamida hosil bo‘lishi, farqlanishlar uchun asos bo‘luvchi umumiy (bir xil, aynan) belgilar, umumiy (o‘xshash) belgilar asosida til birliklarining mikro- va makroguruhlariga (kategoriyalarga, paradigmalarga) birlashishi kabi masalalarning o‘rganilishi uchun ko‘rsatmalar beradi:

*Ajoyib so‘z bor,
Nomi-chi, qaymoq
Hatto yoqimli
Bu so‘zni aytmoq.
Sutning qaymog‘i!
Yoqar tomoqqa.
So‘z qaymog‘i-chi,
Yoqar quloqqa.
Qarang, bu so‘zda
Zo‘r ekan ma‘no.
Fikr qaymog‘i
Undan ham a‘lo.
Qalbing sutdayin
Bo‘lsa pok – oppoq,
Doimo bo‘lar*

So‘zingda qaymoq. (P.Mo‘min, Bo‘ladigan bolalar. 20-b.)

Shoir Po‘lat Mo‘minning “So‘zning qaymog‘i” she‘rida *so‘z, ma‘no, fikr* so‘zlari o‘zaro yaxlitlik hosil qilib, she‘rning umumiy mazmunini ochib bergan. Ijodkor tilda mavjud bo‘lgan har qanday birlik yoki hodisa ma‘lum bir poetik vazifani bajarishini isbotlagan.

Xulosa va takliflar. Bolalar adabiyotidagi asarlarning aksariyat qismi matn bayonotida mantiqiy rejaning buzilishi, syujetning tasodifiyligi, bayonotga referent kiritishning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, bolalar adabiyoti asarlari orqali bola til dunyosining o‘ziga xos madaniyati, kommunikativ xatti-harakatlarning turlari, nutqqa ijtimoiy ta’sirlarning shakllari, nominativ funksiyaning maxsus usullari shakllanadi hamda taraqqiy etib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jamilova B.C. O‘zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 37.
2. Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – Москва: Наука, 1989. – С. 3–8.
3. Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. – Москва, 2001. – Т.1. – С. 72–81.

4. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z. 2020. – B. 120.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 4-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. – B. 5.
6. G‘oziyev E. Psixologiya (yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B. 99.

SEMANTIC ANALYSIS OF DIPLOMATIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Omongul Kenjaboyevna XOLIBEKOVA,
Navoi State Pedagogical Institute, Department of
English language and literature
Scientific supervisor: doctor of philology (Ph.D.)
Xonto 'rayeva Yulduz Kenjaboy qizi
(Master student)

Abstract: This study explores the paradigmatic relationships among lexical units that encapsulate diplomatic concepts within the realm of human consciousness. Through an analysis of semantic content, linguistic expression, and pragmatic application, the study investigates the semantic interplay manifested through antonymic, paronymic, synonymic, hyponymic, and gradonymic relations. It delves into the formation and consolidation of linguistic units within individuals' consciousness, highlighting their existence as structured paradigms.

Keywords: Lexical units, diplomatic terms, paradigmatic relations, semantic interaction.

Аннотация: Данное исследование изучает парадигматические отношения между лексическими единицами, отражающими дипломатические концепции в области человеческого сознания. Через анализ семантического содержания, языкового выражения и прагматического применения исследуется семантическое взаимодействие, проявленное через антонимические, партонимические, синонимические, гипонимические и градуонимические отношения. Исследование проникает в формирование и закрепление лингвистических единиц в сознании людей, выявляя их существование как структурированных парадигм.

Ключевые слова: Лексические единицы, дипломатические термины, парадигматические отношения, семантическое взаимодействие.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot inson ongi sohasidagi diplomatik tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklar orasidagi paradigmatic munosabatlarni o'rganadi. Semantik mazmun, lingvistik ifoda va pragmatik qo'llanish tahlili orqali antonimik, partonimik, sinonimik, giponimik va graduonimik munosabatlar orqali namoyon bo'ladigan semantik o'zaro ta'sir o'rganiladi. Tadqiqot odamlar ongida til birliklarining shakllanishi va mustahkamlanishiga kirib boradi, ularning tuzilgan paradigmalar sifatida mavjudligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Leksik birliklar, diplomatik atamalar, paradigmatic munosabatlar, semantik o'zaro ta'sir.

Introduction. The dynamics of language development are undoubtedly reflected in the lexical layer; lexemes are used in people's speech and encountered in social interactions. The acquisition of lexemes occurs particularly in the terminological system of specific fields and directions, serving to express a certain concept in this area, thus aiding in understanding this concept in society and solidifying it in people's consciousness. In the semantic field of lexical units, significant changes can occur in the evolving language, and the semantic field of a lexeme can expand. This allows a particular lexeme to express a different meaning in people's consciousness. Overall, lexemes of any language's lexical layer may expand or narrow their range of meanings depending on social relationships. Meanwhile, the developing language enriches itself with lexical units. At this stage, individual lexemes in the language may change their semantic value and fall out of use depending on societal changes. The lexical richness of a language and the development of the meanings of lexemes are factors indicating the level of language development, as mentioned above. As society evolves, new directions emerge within it, as well as encountering new fields. This situation leads to changes and expansion in the lexical stratum of the language. The lexical system consists of a group of lexemes united by the feature of mutual similarity and different characteristics, and it has a hierarchical (stepped) structure. Lexical systems consist of a series of internal systems. This hierarchy starts with language and continues to divide lexemes and semes. There are certain strict language relationships between different units and among representatives of one or more paradigms. In Uzbek linguistics, the question of lexemes grouped into a specific category and their relationships is widely and comprehensively studied⁴⁷.

Methodology. In particular, in Uzbek linguistics, the study of semantic relations between central lexemes includes gradation (graduonymy), genus (hyponymy), integrity (paronymy), functionalism (functionality), and hierarchy (hieronimy). These distinctions have paved a wide path for defining semantic relations between lexemes. To further supplement and improve the results achieved in Uzbek linguistics, this study focused on identifying semantic connections between groups and lexemes within the system of diplomatic terms. This aspect contributes to the enhancement of systematic exploration of the lexical level. The system of diplomatic terms in the Uzbek language also represents a system with a unique structural structure and lexemes with different linguistic meanings. Determining the lexical-semantic relations between lexemes and groups of lexemes within this system helps uncover the systemic characteristics of the Uzbek language lexicon.

Results and analysis. 1.Graduonymy in the system of English and Uzbek diplomatic terms. Many new relations between lexical units have been uncovered through research in the field of systemic-structural linguistics. The content of semantic relations has been enriched with paronymic (integrity), functional (responsibility), graduonymic (gradation), and hieronimic (hierarchy) relations. In particular, graduonymic (gradational) relations have been extensively studied by our scholars, such as S. Giosov, E. Begmatov, Kh. Nematov, R. Rasulov, R. Safarova, M. Narzieva, M. Fayzullaev, Sh. Orifjonova, and O. Bozorov⁴⁸, have conducted research on this relation

⁴⁷ Rahmatullayev, Sh. 2006. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. Toshkent: Universitet. 35b.

⁴⁸ Begmatov, E., Ne'matov, H., Rasulov, R. 1989. "Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (sistem leksikologiya

in Uzbek linguistics. Linguist A. Sobirov states, "Objects and events in material existence are in continuous behavior. They constantly change their form under the influence of external and internal forces. As a result, according to the laws of the Universe, different forms of the same thing emerge in one area."⁴⁹

This phenomenon ensures the gradual positioning of objects in relation to each other first in real existence, and then in language. Gradation between lexical-semantic or semantic groups; Gradation between micropoles representing the fundamental concepts of material existence. Some forms of relations between members of the diplomacy terminology system in the lexical structure can be observed in the paradigm of the following lexemes: representative, diplomatic envoy, extraordinary ambassador, autonomous ambassador, deputy ambassador, and ambassador. In this case, lexemes are arranged in such an order of increasing the "diplomatic" level, with a continuous elevation of the "diplomatic" level from representative to ambassador. The gradation between lexical-semantic groups is also observed between the main groups in the system of diplomatic terms:

- group of terms related to "diplomatic" activity;
- group of terms with the archetype of "consular";
- group of terms having the quality of "international" relations.

Systemic lexemes can also be ranked by their stratum, historicity, stylistic coloring, and application sphere. Synonymy in the system of English and Uzbek diplomatic terms.

2. The phenomenon of synonymy is one of the most common types of relations in the semantic system. In Uzbek linguistics, synonymy is one of the lexical paradigms, widely studied as a phenomenon of inter-lexical semantics.⁵⁰ We considered it appropriate to continue our views on this phenomenon in connection with the system of diplomatic terms. Lexemes ally, partner, and partnership, belonging to the group of diplomatic activities in the system, although different in their expression, are content-related through a common denotatum, creating a unique lexical paradigm. Each synonymous line in the system represents a separate, independent micro paradigm. For this reason, semantic units in a synonymous series are interconnected.

For example, grouping lexemes such as diplomat, ambassador, and representative into one paradigm based on semantic fields creates a spiritual kinship. Professor B. Mengliev asserts that "when speaking about the phenomenon of synonymy, it is more accurate to refer to semantic synonymy rather than lexical (lexemic)⁵¹." The names and functions of synonymous lexemes are identical, while their expressions differ from each other. For instance, let's consider the synonymy of diplomat, ambassador, and representative. The lexicographic description of the lexeme string is as follows:

DIPLOMAT I Eng. diplomat "wool. Diploma - two folded sheets, a document." 1. An official who has undergone special training for official contacts or negotiations with

tezislari)". O'zbek tili va adabiyoti Toshkent.35-40b.

⁴⁹ Sobirov, A. 2004. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. Toshkent : Ma'naviyat.148b.

⁵⁰ Hojiev A. 1974. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.308b.

⁵¹ Mengliev, B. 2004. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi.O'zbek tilining izohli lug'ati.

foreign countries and appointed by their government as a representative for such work. 2. A master, skilled person in work, speech, behavior.⁵²

AMBASSADOR 1 dipl. The highest rank, rank, and title of a diplomatic representative of one sovereign state in another sovereign state and the person holding this title. Extraordinary and Plenipotentiary Ambassador. 2 hist. Someone sent by the king on a mission.⁵³

REPRESENTATIVE (a. ж - reliable, authorized person) 1. An individual, institution, organization, etc., to whom a person is authorized to act on its behalf, caring for and protecting its interests. 2. An official, ambassador, acting on behalf of a state or organization in other countries, defending its interests. Diplomatic representative. Autonomous representative. 3. A field, social group, society, etc., to which it belongs; as in the example.⁵⁴

All lexemes in the string have exactly the same semantics, with the distinguishing aspect being the semantics of expression. Diplomat is distinguished by "French," "official"; ambassador by "one's own layer," "highest rank of representation"; and representative by "Arabic," "reliability." The meanings of polysemous lexemes also appear in a synonymous relationship. This can be seen in the semantic interconnection of the following diplomacy terms: cooperation, partnership and alliance.

The first two lexemes of this paradigmatic series are polysemantic, and polysemantic lexemes can belong to a separate semantic series with each seme. The lexemes of partnership and association form a synonymous series based on their second semes, as described in the explanatory dictionary of the Uzbek language. Additionally, the cooperation of these lexemes has a semantic connection with the lexeme colleague through the 1st seme in the semantic structure. In this, the colleague also participates with its 1st seme as a polysemous lexeme. Moreover, the lexeme of partnership may have a synonymous connection with the lexemes of partnership through the 1st seme. One word is considered dominant in the series of lexemes, and the others are grouped around the dominant lexeme and create the lexeme. "The dominant in the group of synonyms is the word that meets the requirements of the literary standard in all parameters. For example, it is indifferent (neutral) to emotional coloring and style, represents the normative level of the sign, etc"⁵⁵. Dominance of the lexeme is determined by this criterion. The dominant lexeme can dominate over its related words in any situation and connects related words to the system to which they belong. In particular, the lexeme of partnership in the synonymous series partner, ally, union; the lexeme of union in the semantic paradigm of union, peace, agreement; In the context of contract, agreement, transaction, the lexeme of contract occupies a dominant position and serves as an instrument connecting its paradigmatic lines with the lexical groups of the system. If the dominant of agreement connects its paradigm with the semantic group "union", then the union serves to unite the lines belonging to it with the semantic group "partner". Dominant lexemes of colleague and association also function as a ring. Depending on changes in nature and society, the

⁵² O'TIL 2007, 624b.

⁵³ O'TIL 2007, 34b.

⁵⁴ O'TIL 2007, 436b.

⁵⁵ Hojiev, A. 2010. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. Toshkent: Fan.129b.

composition of paradigms also changes. Accordingly, the semantic range of lexemes is considered open. Linguistics notes a series of connections with this situation in the phenomenon of synonymy: "... during the development of the synonym system, two phenomena are observed: 1) the emergence of a word with lexical meaning or when acquiring a new meaning of an existing word in the language, a new synonymous group is created;

2) When a word falls out of usage in a language, a polysemous word loses its meaning, and a synonymous group disappears or the composition of the synonymous group shrinks⁵⁶. Both of these events can be observed in the system of diplomatic terms in the Uzbek language. It should be noted that in the system of diplomatic terminology, synonymy of semantic relations has a particular character.

3. Paronymy in the system of English and Uzbek diplomatic terms.

Paronymic relation is a type of semantic connection between lexemes. Several linguists have explored the ways in which paronymic relations between lexemes exist and operate⁵⁷. Based on inter-lexical relations, the relationship between wholes and parts is clarified, as well as the integrity of objects and their components and parts. The general structure of existence includes divisibility, structural complexity, and this is reflected in language through consciousness. Similar to hypernyms and hyponyms, the whole-part relationship is of a relative nature and is fundamentally divided into wholes and parts. Below, we will examine the status of paronymic relation among members of the system of diplomatic terms. Before that, to conclude our reflections on this relation, we deemed it appropriate to present the views of B. Mengliyev and A. Sobirov: "A semantic group with paronymic relations also has its peculiarities: 1) paronyms also constitute unique paradigms; 2) in the paronymic group, there is a dominant lexeme that unites paronyms around it. And it itself may belong to a higher whole; 3) the paronymic group is always open"⁵⁸. A. Sobirov notes the following points regarding paronymic relations: Considering that language is a unique reflection of real existence, two types of holomeronimic relations can be distinguished:

a) whole-part relations in a natural state: sky - sun, moon, stars; mountain - ravine, gorge, cave, peak, trail, valley; one - half, quarter, quarter;

b) artificially formed whole-part relations. Examples of this include all artificial devices. For example, the body of a car consists of hundreds of parts, such as a radiator, wheel, steering wheel, spring, battery, engine, spark plug, pump, door, interior, headlight, and license plate⁵⁹. In diplomacy, there exists a category of dialectical unity between lexical units denoting a boundary and its parts, and their designations. The whole-part relationship in an artificial state is reflected in the system of diplomatic terms. It can be further enriched by lexemes such as state borders, internal territory, integrity, geopolitics, extraterritoriality, and international zone. Because these lexical units have the right to directly enter the paradigm as representatives of denotation with a material basis, its parts,

⁵⁶ Hojiev, A. 2010. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasali-shining nazariy masalalari. Toshkent: Fan.130b.

⁵⁷ Begmatov, E., Ne'matov, H., Rasulov, R. 1989. "Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (sistem leksikologiya tezislari)". O'zbek tili va adabiyoti Toshkent.35-40b.

⁵⁸ Mengliyev, B. 2005. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. Qarshi.128b.

⁵⁹ Sobirov, A. 2004. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. Toshkent: Ma'naviyat.144b.

and fragments. The close connection with designations of material existence and relationships between them forms the structural basis of such a paradigm. The toponym (holonym) is the boundary in the paradigm, and the rest of the lexemes are paronyms (meronyms) of the whole. Paronyms in the paradigm cannot be directly related to the "semantic microgroup of international relations" due to their partial position, but they are connected to the system of diplomatic terms through the whole name. Thus, dominance is important based on paronymic relations.

4. Antonyms in the system of English and Uzbek diplomatic terms. As a factor leading to the antonymization of lexemes, the lexemes of the system are differentiated based on certain characteristics, forming a separate group based on a common, unifying theme of lexemes. and this difference leads to a level of conflict and confrontation. Everything existing, reality has aspects that require and deny each other. These processes in dialectics reflect the law of the negation of negation and the unity of opposites. This relationship is also reflected in language. It can be said that this aspect is evident among units of the lexical level. The grouping of linguistic units based on their contradictory meaning is called antonymy. This phenomenon arises from the relationships between two linguistic units⁶⁰. No lexeme enters into antonymy relations, as antonymy relations exist between linguistic units representing opposite realities. Several scholars have acknowledged the existence of lexemes that have reached a level of contradiction in meaning based on antonymic relations. The reason antonymy is considered a semantic relationship is that the crucial aspect in it is the relationship between semes. In the terminological system of diplomacy, lexemes such as "allowed-disallowed," "take-sacrifice," "development-crisis," "legal-illegal," "submission-non-submission," "joining-non-joining," "enemy-friend," "subordination-non-subordination" create units of antonymy. If we analyze the nature of the semes of these antonyms using seme analysis, it turns out that one of the lexemes (semes) denoted as antonyms in the set of ideographic semes has the opposite meaning, while the other seme(s) are identical. For example, the lexemes enemy-friend constitute mutually antonymous pairs. The archetype of these lexemes is the "level of relations," while the symbols of "negativity" and "positivity" are mutually contradictory and form antonymic relations. From the perspective of diplomacy, based on these generalizing and differentiating themes of lexemes, we describe enmity as "negative relations between countries" and friendship as "positive relations between states." Integral schemes that unite antonyms into a single paradigm are equally valuable as differential schemes in the antonym scheme. Based on the above, it can be concluded that linguistic units are formed during the birth and upbringing of individuals, ingrained in personal consciousness. They exist in people's minds in the form of specific paradigms. The tasks of discovering and defining such paradigms, laws of their existence, as well as identifying the nature of lexical units living in human consciousness, laws of their emergence and functioning based on notions of trends and fields in human society's consciousness, are among the challenges facing researchers.

Conclusion. In our study, we focused on defining the paradigmatic series of lexical units reflecting diplomatic concepts existing in human consciousness, their semantic

⁶⁰ Tursunov U. va boshq. 1992. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: O'zbekiston. O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar, 120b.

content in human consciousness, their linguistic realization and application, as well as their semantic relations from antonymic, paronymic, synonymic, hyponymic, and gradonymic perspectives.

In short, linguistic units are formed during the birth and upbringing of individuals, becoming ingrained in their consciousness. They exist in people's minds in the form of specific paradigms. The tasks of discovering and defining such paradigms their living laws, as well as revealing the nature of lexical units living in human consciousness, the laws of their emergence and action based on notions of trends and fields existing in society, are among the challenges facing researchers.

REFERENCE

1. Begmatov, E., Ne'matov, H., Rasulov, R. 1989. "Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (sistem leksikologiya tezlari)". O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent.35-40b.
2. Hojiyev, A. 2010. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. Toshkent: Fan.129-130bb.
3. Hojiyev A. 1974. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.308b.
4. Mengliyev, B. 2004. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi.O'zbek tilining izohli lug'ati.
5. Mengliyev, B. 2005. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. Qarshi.128b.
6. Rahmatullayev, Sh. 2006. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. Toshkent: Universitet. 35b.
7. Sobirov, A. 2004. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. Toshkent: Ma'naviyat.144-148bb.
8. Tursunov U. va boshq. 1992. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: O'zbekiston.O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar, 120b.

SAID AHMAD ROMANLARIDA O'XSHATISHLAR LINGVOPOETIKASI

Jo'rabek Uralovich YULDASHEV,
katta o'qituvchi, f.f.f.d (PhD)
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmad romanlarida qo'llanilgan originallik o'xshatishlarning lingvistik tabiati, uning badiiy matnlardagi vazifasi va lingvopoetik salmog'i xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: turg'un o'xshatishlar, erkin o'xshatishlar, original o'xshatishlar, o'xshatish etaloni, obrazlilik, individuallik, ekspressivlik, lingvopoetik salmoq, an'anaviylik, mentallik.

Аннотация: В этой статье оригинальность, используемая в романах Саида Ахмада, рассматривается с точки зрения лингвистической природы аналогий, их функции в художественных текстах и лингвопоэтического веса.

Ключевые слова: устойчивые аналогии, свободные аналогии, оригинальные аналогии, эталон сравнения, образность, индивидуальность, выразительность, лингвопоэтический вес, традиционализм, ментальность.

Abstract: In this article, the originality used in the novels of Said Ahmad is considered from the point of view of the linguistic nature of analogies, their function in literary texts and linguistic and poetic weight.

Keywords: stable analogies, free analogies, original analogies, standard of comparison, imagery, individuality, expressiveness, linguistic and poetic weight, traditionalism, mentality.

Kirish. Betakror ijod sohibi Said Ahmad o'zbek so'z san'atida o'chmas iz qoldirgan, turkiy so'zning bor kuch-qudratini, jilosini tarannum etgan buyuk yozuvchidir. U qoldirgan badiiy asarlarni so'zga oshno har qanday qalb sohibi hadsiz hayajon hamda zo'r entikish bilan mutolaa qiladi, adibning so'z tanlash va qo'llash mahoratiga qoyil qoladi. Uning o'tkir hikoyalarini, yirik nasriy asarlarini huzur bilan o'qir ekanmiz, mahoratli adibning o'zbek xalq tili xazinasini nechog'lik tugal egallaganligiga, betakror so'z ijodkori sifatida bu xazinadagi unsurlarni o'z badiiy niyatiga nechog'lik muvofiq tarzda saylay bilganiga, tildagi lisoniy vositalarga naqadar sayqal-u jilo bera olganiga, bu birliklardagi ma'no injaliklaridan juda katta ustalik bilan foydalana olganiga amin bo'lamiz.

Adib asarlarida badiiy uslubda eng faol qo'llaniladigan tasviriy vositalar qatori xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida

yuzaga kelgan, so‘z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli bo‘lgan tasvir vositasi – o‘xshatishlardan ham unumli foydalangan.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishning lingvistik tabiati, uning badiiy matnlardagi vazifasi va lingvopoetik salmog‘i boshqa tasviriy vositalarga nisbatan birmuncha mukammal va atroflicha o‘rganilgan. Ilmiy manbalarda o‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi. [1. 27.] Har qanday ijodkor bu muhim va keng qo‘llanuvchi vositaning har ikkalasidan unumli foydalanadi, chunki o‘xshatishlarda xalqning ming yillik madaniyati, madaniy-tarixiy tajribalari, badiiy tasavvurlari, tashqi olamni baholash mezonlari go‘yoki konservatsiyalangan holatda saqlangan bo‘ladi. Ma’lumki, nutqimizda *ayiqday baquvvat, arvohday ozg‘in,, musichaday beozor, bilakday yo‘g‘on, toshday qattiq* kabi bir qancha o‘xshatishlar bor. Bu o‘xshatishlar og‘izdan-og‘izga, asardan-asarga o‘tib kelayotganligi uchun ham ularning o‘xshatish etalonlari o‘z originalliklarini allaqachon yo‘qotib, qoliplashgan nutq parchalari bo‘lib qolgan, an’anaviy tus olgan. Shuni hisobga olib ular an’anaviy o‘xshatishlar deb qaraladi.

An’anaviy o‘xshatishlarning mohiyati shundan iborat bo‘ladiki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. [2. 6]. Mahoratli yozuvchi Said Ahmad o‘xshatishlarning har ikkalasidan ham foydalanadi. Masalan, yozuvchining “Ufq” trilogiyasi va “Jimjitlik” romanida an’anaviy o‘xshatishlardan *zulukdek qora, kafandek sovuq, bulbul qafasidek tor, do‘ppidek kichkina* kabi ko‘plab o‘xshatish konstruksiyalarini uchratamiz. Asarda ular quyidagicha ishlatilgan: *Hali ustara tegmagan iyaklarida yigitlik nishonalari belgi berib qolgan, tush surtilgandek quyuq kipriklari yumuq ko‘zlarini qoplab turardi. Zulukdek qora qoshlari, qirra burni, bejirim iyaklari bolaga alohida bir husn bag‘ishlardi.* [3.11] *Lutfinisa onasi olamdan o‘tgandan buyon endi ohorli kiyim kiyishi edi. To‘g‘ri, to‘yda unga yangi liboslar kiydirishgandi. Ammo u kiyimlar kafandek sovuq tuyulgan edi.* [3.146] *Nurmat tog‘a tinchgina bankda bulbulning qafasidek tor kassada pul olib, pul berib kunini o‘tkazib yurardi.* [4.45]. *Yetimqishloq do‘ppidek kichkinagina edi.* [4. 105]

Tadqiqot metodologiyasi. Xususiy-muallif o‘xshatishlar yozuvchining teran nigohi, kuzatuvchanligi, olamning kamalak ranglarini zakiylik bilan ko‘ra olishi, mukammal his qilishi hamda badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlaridir. [5. 136] Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Xususiy-muallif o‘xshatishlarini badiiy matnni shunchaki bezovchi, go‘zallashtiruvchi vosita sifatidagina qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Mahoratli yozuvchi bunday o‘xshatishlarga badiiy-estetik ehtiyoj zaruriyati bilan murojaat qiladi. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarining eng nozik jihatlarini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirish, tasvirni quruq emas, balki quyuq bo‘yoqlar bilan amalga oshirishda ana shunday o‘xshatishlar favqulodda muhim vositadir. “Jimjitlik” romani hamda “Ufq” trilogiyasida Said Ahmad tomonidan yaratilgan betakror, chinakam badiiy o‘xshatishlar tahlil etilganda bunga to‘la amin bo‘lish mumkin.

Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko‘ra emas, balki butunicha, to‘lasincha, aynan o‘xshatilmoqchi bo‘lsa, o‘xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. [5.137] Bunday holatlarda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida ham ko‘pincha *o‘xshamoq* fe‘lidan foydalaniladi. Masalan yozuvchining “Jimjitlik” romanidan olingan quyidagi parchada buning guvohi bo‘lamiz: *Bugun Luqmonov bilan Mirvali o‘rtasida o‘lik savdosi bo‘ldi. U shu gapni aytdi-yu, xuddi soniga olovda toblangan tamg‘a bosilayotgan otga o‘xshab pishqirib yubordi.* [4.25] Misolda *soniga olovda toblangan tamg‘a bosilayotgan otga o‘xshab* birikmasi o‘xshatish etalonini ifodalagan. Ma‘lumki, o‘zbek xalqi azal-azaldan ot bilan o‘z taqdirini bog‘lab kelgan. Uni o‘z izmiga bo‘ysundirish, parvarish qilish, boqish, uloq chopish kabi ish va yumushlarni san‘at darajasiga chiqargan va ot haqida to‘qimagan rivoyati, yozilmagan kitobi, eshitmagan afsonasi qolmagan. Shunday ekan otni o‘zbekning kattasidir, kichigidir yaxshi biladi, anglaydi. Mana shu hodisani yaxshi anglagan yozuvchi aynan asar qahramonining holatini *otning pishqirishiga* o‘xshatadi. Bu o‘xshatishda aynan otning quvvati ham hisobga olinadi, ya‘ni “Jimjitlik” romani qahramoni Mirvali ham otday quvvati bor erkak. Uning baquvvatligi, shiddatkorligi, dushmaniga omonlik bermasligi romanda to‘lasicha yoritilgan, ammo uning “pishqirishi” *otning pishqirishiga* mengzalishi ushbu asar qahramonini kitobxon ko‘z o‘ngida yanada yorqin gavdalantiradi. Bu o‘xshatishsiz ayni holat tasvirlanmoqchi bo‘lsa, bir-ikki sahifa qoralanishi mumkin edi, ammo bunday yorqin va aniq ifodaga erishish mahol bo‘lardir. Yozuvchi tomonidan favqulodda topqirlik bilan saylangan o‘xshatish etalonining bu o‘rindagi estetik qimmatini alohida ta‘kidlash lozim. Yozuvchi o‘xshatishning bu turidan juda ko‘p o‘rinlarda foydalanadi. Masalan, *Tolibjon kabinadan chiqdi. Qoyadan to‘kilgan toshlardan echkiga o‘xshab sakrab-sakrab yurgan mashinada silkinaverib, beli og‘rib ketgan edi.* [4.150] Keltirilgan namunada o‘xshatish etaloni *echkiga o‘xshab sakrab-sakrab yurgan mashina*. Barchamizga ma‘lumki, mashinalar tekis yo‘lda yurishga mo‘ljallangan texnikadir, ammo u tog‘ yo‘lida yurishga qiynaladi. Bu holatni tasvirlash esa yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. O‘quvchiga esa uni aniq-tiniq yetkazishning eng to‘g‘ri yo‘li uni *echkiga* o‘xshatish. Echkining sakrashi esa hammaga ma‘lum holat.

Yorqin va komil badiiy iste‘dod sohibi Said Ahmad o‘xshatishlar orqali tabiat tasvirini shunday mahorat bilan chizadiki, natijada turfa olamdagi kamalak ranglarning tirikligiga, tabiiyligiga putur yetmaydi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misolga e‘tibor bering: *So‘qmoqlar huvillab qolgan. Cho‘qqilarda haykaldek qotgan burgutlar xuddi sovuqdan qunishib qolganga o‘xshaydi.* Yoki *Kitob tomonlarda allaqachon kun yoyilgan, dala-toshda oftob dehqonning yag‘rinini qizdirgan mahal, bu joylarda — Omonqo‘ton o‘ngirlarida hali ko‘r oydinga o‘xshash nimqorong‘ulik hukm surardi. Faqat osmon oppoq. Tundan uzilib qolgan qorong‘ulik asta-sekin eriyotganga o‘xshaydi.* Ko‘rib o‘tilgan misollarda o‘xshatish asosi bitta yoki ikki-uchta emas, balki yaxlit, umumiydir. Shuning uchun ham o‘xshatish asosi alohida bir so‘z bilan ifodalanmagan, ayni paytda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi qo‘shimchalar emas, balki *o‘xshamoq* fe‘lidan iborat leksik-semantik birlikdir. Bu birlik o‘xshatishning yaxlitligi, umumiyligini ta‘kidlab turadi.

Tahlil va natijalar. Said Ahmad ayrim o‘xshatish etalonlarini shunday tanlaydiki, birinchidan, u kutilmagan bo‘ladi, ikkinchidan, qahramon xarakteri va ruhiyati bilan juda ham uyg‘un bo‘ladi. Masalan adibning “Jimjitlik” romanida nopok va birovning haqini yeyishdan qo‘rqmaydigan Hojimurodning tushgan ahvolini kishi qaraganda eti jo‘njikadigan hasharotga, *beshiktebratarga* qiyoslaydi. Zero hasharotlar ichidagi eng sovuq va ko‘rimsizlaridan biri beshiktebratar. Hojimurodday nomard odamlarga jamiyatning bahosi ham shu: *Hoji xuddi tashlagan po‘stiga tikilgan beshiktebratardek yonayotgan kiyimlariga ma’yus qarab turardi.* Bu o‘rinda o‘xshatish vositalarining ikki o‘rinda kelishi holat tasvirini yanada tiniqlashtirgan Salbiy obrazlarni beshiktebratarga o‘xshatish Said Ahmadga xos. Chunki “Ufq” trilogiyasida ham A‘zamjonni bir o‘rinda beshiktebratarga o‘xshatadi: *Endi u g‘irt mast bo‘lib yo‘l chetida beshiktervatarga o‘xshab o‘tirgan joyida tebranib o‘tiribdi.* [3.620]

Ijodkor asarlarida erka qahramonlari – Dildor, Lutfinisa, Zebi kabi tabiat ishvalarini tasvirlar ekan, albatta, ularning o‘ziga uyg‘un go‘zal, nozik o‘xshatish etalonlarini tanlaydi. Masalan, go‘zal qiz Dildorning sepkilli tomoqlarini oq o‘rik po‘stiga o‘xshatishi kishining hech xayoliga kelmaydigan Said Ahmadgagina xos o‘xshatish. Masalan: *Shamol yoqasini har silkiganda ochilib yopilayotgan yelkalar, hamon titrab turgan ko‘kraklar, hozirgina yig‘idan bo‘shagandek nam tortib turgan kipriklar-u chimchilab qo‘ygandek bejirim burun, ayniqsa, oq o‘rik po‘stidek bilinar-bilinmas sepkili bor tomoqlari A‘zamjonning yigitlik qonini ko‘pirtirib yubordi.*[3.506] Yoki Nizomjonning qalbini o‘g‘irlagan Dildor cho‘miliyatganda suvga tushgan sochini soyabonga o‘xshatishi uning husniga husn qo‘shib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida yorqin gavalantiradiki, bundan zavq olmaslikning, adib mahoratiga tan bermaslikning iloji yo‘q. *Dildor suvdan boshini chiqarib g‘azab bilan unga qaradi. Qizning sochlari suv betida xuddi qora soyabondek doira hosil qilgan edi.*[3.250]. Yozuvchi “Ufq” trilogiyasida Katta Farg‘ona kanali qazilishida ishtirok etgan yigitlarning baquvvat va chayir tanalarini ba‘zan *saksovulga* o‘xshatsa, ba‘zan mehnatdan terlab ketgan tanalarining yaltirashini *samavorga* qiyoslaydi. Buning natijasida kutilmagan, ohorli o‘xshatish o‘quvchini rom etadi, yigitlarning jismoniy holati o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavalanadi. Asardan olingan parchaga e‘tibor bering: *Butun Farg‘ona vodiysiga yog‘och polvon deb nom chiqargan, saksovuldek tanlari bujmayib ketgan novcha polvon bir qo‘li bilan yerga tiralib, yo pirim, deb o‘rnidan turdi.* Yoki: *Notanish bola hamon ketmon uryapti. Yalang‘och badani terlab ketganidan yangi yuvilgan samovardek yaltiraydi.*[3.372]

Said Ahmad tanlagan o‘xshatishlar ba‘zan o‘quvchida yengil kulgi qo‘zg‘aydi. Masalan, *Ora-sira shu ko‘m-ko‘k cho‘lning har yer-har yerida kal boshdek sap-sariq tepachalar uchraydi.* [3.40] Yoki “Ufq” trilogiyasining qahramoni Asrora xarakteri yigitlarga xos qiz. Shunga mos ravishda yozuvchi uni bir o‘rinda xo‘rozga o‘xshatadi: *Asrora nima qilishini bilmay uning tepasida ikki qo‘lini beliga tirab urishishga chog‘langan xo‘rozdek turardi.*[3. 250] kabi.

Xulosa va takliflar. Umuman, Said Ahmadning o‘xshatishlarini kuzatganda, uning etalon tanlashdagi betakrorligi, tasvirlash benihoya mushkul bo‘lgan holat-harakatlarning eng nozik jihatlarini ham aniq gavalantirish uchun kutilmagan o‘xshatish etalonlarini tabiatdan, turmushning o‘zidan topa bilishini har qadamda ko‘rish mumkin.

FOYDANALILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. М.Мукаррамов. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1976.
2. Н. Маҳмудов., Д.Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Маънавият” нашриёти, 2013.
3. Саид Аҳмад. Уфқ трилогияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
4. Саид Аҳмад. Жимжитлик. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2006.
5. М. Йўлдошев. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент, 2001.

O'ZBEK SHEVALARIDA O'RIN-PAYT MA'NOSINI IFODALOVCHI SO'ZLARNING IFODALANISHI

Gulsanam Maxsutovna NOROVA,
f.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

Navoiy davlat pedagogika instituti
Sevinch Nodir qizi NAVRO'ZOVA,
SamDU Urgut filiali Xorijiy til va
adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Dunyo tilshunosligida shevalar har bir tilning o'ziga xos imkoniyatlarini namoyish etuvchi, uning lug'at qatlamini boyitishga xizmat qiluvchi til rivojlanishining ichki mexanizmi sifatida tilshunoslar e'tiborini tortib kelgan. Bu yo'nalishda, ayniqsa, milliy-madaniy boyligimiz hisoblangan shevalarda o'rin-payt ma'nosini ifodalovchi so'zlarning lingvoareal tadqiqi masalasining o'rganilishi adabiy til va shevalar munosabati, shevalarning til rivojlanishiga qo'shgan hissasi, tilning rivojlanish darajasi kabilarni aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar. Sheva, lahja, dialekt, lug'at boyligi, adabiy til, ichki mexanizm, o'rin-payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar, lingvoareal tadqiq.

Аннотация. В мировой лингвистике диалекты привлекали внимание лингвистов как внутренний механизм развития языка, демонстрирующий специфические возможности каждого языка, служащий обогащению его словарного слоя. В этом направлении изучение вопроса лингвоареального исследования слов, выражающих значение места-времени, особенно в тех диалектах, которые считаются нашим национально-культурным достоянием, поможет выявить такие вопросы, как взаимосвязь литературного языка и диалектов, вклад диалектов в развитие языка, уровень развития языка.

Ключевые слова. Диалект, наречие, диалект, словарный запас, литературный язык, внутренний механизм, слова, выражающие значение места-времени, лингвоареальное исследование.

Abstract. In world linguistics, dialects have attracted the attention of linguists as an internal mechanism of language development, demonstrating the specific capabilities of each language, serving to enrich its vocabulary layer. In this direction, the study of the issue of linguoareal research of words expressing the meaning of place-time, especially in those dialects that are considered our national and cultural heritage, will help to identify issues such as the relationship between literary language and dialects, the contribution of dialects to the development of language, the level of language development.

Keywords. Dialect, adverb, dialect, vocabulary, literary language, internal mechanism, words expressing the meaning of place-time, linguoareal research.

Kirish. Tilshunos olim Sh.Shoabdurahmonov ta’kidlaganidek: “Agar yaqin kelajakda o‘zbek traditsion leksikasini yo‘nalishi bilan qayd etib olinmasa, barcha mas’uliyatni hisobga olgan holda aytish mumkinki, kekxa avlod tugab borishi bilan tilning ular muhofazasida saqlanib, bizgacha yetib kelgan bebaho boyligimizning bir qismi hamishalikka yo‘qolishi mumkin”.⁶¹ Shu ma’noda o‘zbek tili shevalarini ilmiy tadqiq etish, uning nodir boyligini saqlab qolish va adabiy til bilan aloqasini yanada kuchaytirish ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida shevalarni o‘rganish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. O‘zbek shevalarini o‘rganishga XX asrning 30-yillaridan boshlab alohida e’tibor qaratilgan. Ye.D.Polivanov, R.Reshetov, A.K.Borovkov, F.Abdullaev, Sh.Shoabdurahmonov, B.Jo‘raev, M.Buranov, X.D.Doniyorov, Yu.Ibragimov, A.Ishaev, E.O‘rozov, K.Muxamedjanov⁶² va boshqa olimlarning ishlarida o‘zbek xalq shevalari yuzasidan qimmatli xulosalar berilgan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek shevalarini monografik aspektda o‘rganishga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, A.B.Jo‘raev, Yu.M.Ibragimov, N.Murodova, Z.Yu.Ibragimova, I.O‘.Darveshov, N.H.Norboeva, A.A.Allaberdiev, U.Yu.Ibragimova, N.S.Raxmonov va boshqalarning tadqiqot ishlarida shevalarning fonetik, leksik-semantik, morfologik xususiyatlarini aniqlashga, shevalardagi milliy-madaniy belgilarni o‘rganishga, shevalarni areal va lingvogeografik aspektda o‘rganish va xaritalashtirish kabi masalalarga qaratilgan⁶³. Bu sohada hatto darslik, o‘quv qo‘llanmalari va monografiyalar ham yaratilgan⁶⁴.

⁶¹ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан. 1962. – Б.417.

⁶² Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык // К современной стадии узбекского литературного строительства. – Ташкент. 1933. – С.28-31; Боровков А.К. Ўзбек шева-лахжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944. – 11 б.; Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая и морфологическая система): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1951. – 20 с; Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. – 347 с; Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1961. – 348 б.; Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1962. – 371 б.; Жўраев Б. Юқори Қашқадарё шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – 168 б.; Буранов М. Термины животноводство в узбекских говорах Каракалпакии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 26 с; Данияров Х.Д. Опыт изучения джекающих диалектов в сравнении с узбекским литературным языком. – Ташкент: Фан, 1975. – 239 с; Ибрагимов Ю.М. Морфология ходжелийко-кунгадского говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1975. – 33 с; Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Жанубий Хоразм [ўғуз] диалектининг синтактик қурилиши. – Тошкент: Фан, 1976. – 130 б.; Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 175 б.; Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, – 1978. – 136 б; Жуманазаров Ю. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – 165 б.; Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1988; Ражабов Н. Ўзбек халқ шеваларида феълнинг морфологик тузилиши. – Тошкент Фан: 1990; ва бошқалар.

⁶³ Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991, – 273 с.; Ибрагимов Ю.М. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000. – 58 б.; Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти ўзбек шеваларининг лингвоарал талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 35 б.; Ибрагимова З.Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвовеографик тадқиқи: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.; Дарвешов И.Ў. Жанубий-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи: Филол.фан. бўй. фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 21 б.; Норбоева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Филол.фан. бўй. фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.; Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Филол.фан. бўй. фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 49 б.

⁶⁴ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирӣ, 2004; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2011; Enazarov T., Karimjonova V., Ernazarova M., Mahmadiyev Sh., Rixsiyeva K. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 131 б.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shevalarda payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, *qachon?*, *qachongacha?*, *qachondan?*, *qachondan beri?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Shevalarda o'rin-payt ma'nosini ifodalovchi so'zlarni payt va o'rin otlaridan farqlash lozim. Agar kelishik qo'shimchalari ajratilsa va otligicha qolsa, bu otdir: *yoзда, qishda, bahorda; ko'chada, uydan;* agar kelishik qo'shimchasi ajralgandan keyin boshqa turkum so'ziga aylansa, bu ravishdir: *yaqinda, boshda (avval), kunda, chetda* va b.

Shevalarda o'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlar ish-harakatning bajarilish o'rnini bildirib, *qayerda?*, *qyaerdan?*, *qayerga?* so'roqlariga javob bo'ladi.

O'zbek xalq shevalarida ish-harakatning bajarilish o'rnini bildirgan co'zlar turli ko'rinishlarga ega. Adabiy tilimizdagi u, bu, shu olmoshlari bilan shakllangan bu yer, u yer, shu yer, bu yoq, u yoq, shu yoq kabi o'rin ravishlari qarluq lahjasiga oid shevalarda ber, sher, bəg', shəg', ɔg' tarzida qo'llaniladi. Bu ravishlar kelishik qo'shimchalarini olganda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: *berə, sherə, buyɔqqə, ɔqqə, shuyɔqqə* kabi. Agar bu ravishlar mana, ana, o'sha so'zlari bilan kelsa, manyag'da, anyag'da, oshag'da tarzida qo'llaniladi. Qipchoq shevalarida anjaqda, manjaqda o'rin ravishlari uchraydi.

O'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarning o'ra, bera, shera kabi variantlari Buxoro, Nav. v. sh ham uchraydi. O'zbek shevalarida o'rin ravishlarining quyidagi ko'rinishlari ham uchraydi. Qurama: *oshəqə barp pəxtə yegəmən;* Andijon: *besht yildan shəg'isiga shu ispirapkani berdi;* YuQSh: *qishloqdi kuchuylari shag'illap shaqqa otip ketiverdi.*

Shevalarda payt ma'nosini bildiruvchi *lgər'ttən, burundən|| burunnən, əzəngacha, nəməshomgəchə, chəshkəgəchə* kabi so'zlar qarluq shevalarida qo'llaniladi. Bundan tashqari kun botish oldidan so'zi o'rnida namozgar so'zi ham qo'llaniladi. Bularning hammasi payt ma'nosini bildirib, payt ravishi vazifasini bajarib keladi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida o'rin-payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar yasaliş yo'li bilan ham hosil qilinadi. Mashhur turkolog N.A.Baskakov aglyutinatív tillarda so'zlarning affikslar orqali yasaliş eng mahsuldor usul ekanligini ta'kidlagan edi.⁶⁵ *-loq, -zor, -iston, -goh, -lik* affikslari, *xona* affiksoidi yordamida ko'plab o'rin-joy otlari yasalgan. Bu affikslar bilan yasalgan o'rin-joy otlari, ayrim fonetik farqlarni hisobga olmaganda, hudud o'zbek shevalarida ham qo'llanadi. A.Hojiev *tuzdon, siyohdon, kuldon* so'zlarida *-don* affiksini ham o'rin-joy oti yasovchisi sifatida ko'rsatgan.⁶⁶ Bizningcha, bu yasalmalarda *o'rin-joy* semasiga nisbatan *buyum* semasi ustuvor. Shu bois ularni narsa, buyum otlarini yasovchi affikslar qatorida o'rganish maqsadga muvofiq.

O'rin-joy oti yasovchi bu affikslar ma'lum davrlarda ko'plab otlarni yasashga xizmat qilgan. Ammo hozirgi davrda ularning ko'pchiligida so'z yasovchilik vazifasi sustlashgan. Shunga qaramay, keyingi yillarda *-goh* affiksi, *xona* affiksoidi bilan *turargoh, oromgoh, o'yingoh, chiptaxona, kompyuterxona* kabi so'zlar yasaldi.

⁶⁵ Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Фонетика и морфология. – М., Наука. 1952. – Т. II. – С. 170.

⁶⁶ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 90.

Adabiy tildagi *-xona* affiksoidi hudud o‘zbek shevalarida *-xana* tarzida talaffuz etiladi. Bu hudud shevalarida mazkur affiksoid bilan yasalgan o‘rin-joy otlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

-xana affiksoidi ohangdoshlik qonuniyatiga bo‘ysunmaydi, bir xil shaklda ishlatiladi. Hudud o‘zbek shevalarida *-xana* affiksoidi orqali yasalgan yasama otlarni tarqalish doirasi, yasaliş mohiyati jihatidan bir necha guruhga ajratish mumkin:

a) umumxalq tilida ishlatiladigan otlar: *kəptərxana*, *ashxana*, *suvrətxana*, *kəsəlxana*, *peshəxana*, *paxtaxana*, *badjmanxana* kabilar;

b) ruscha o‘zlashma asoslardan hosil bo‘lgan o‘rin-joy otlari: *piyvaxana*, *azotxana*, *pospyrxana*, *miliysaxana*, *duqtxana*, *kampituxana*, *pochtaxana*, *gəziytxana* kabilar;

v) shevalarda, garchi mahsuldor bo‘lmasa-da, asl turkiy asoslardan hosil bo‘lgan o‘rin-joy otlari: *tashlandıqxana* (axlatxona), *atxana* (otxona), *yədjəkkxana* (buzoq boqiladigan maxsus xona), *yetimxana*/-*djetimxana* (mehrisonlik uyi), *kirxana* (kir yuvish xonasi), *yumıshxana* (ishxona), *uotınxana* (o‘tin va boshqa anjomlarni saqlash xonasi), *qurtqana* (ipak qurti boqiladigan maxsus joy).

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi o‘zbek shevalarida o‘rin-joy oti yasovchi xarakterli affikslar ham mavjud. O‘rganilayotgan shevalarda shaklan va vazifa jihatidan bir-biriga yaqin *-laq*/-*lək*/-*lek* hamda *-lıq*/-*lik* affikslari orqali o‘rin-joy otlarining yasaliş ancha faol. Masalan: *bozlaq* (bo‘z yer), *qumlaq*/*qumlıq* (qum bilan qoplangan joy, maydon), *shorlaq* (erning ustki qatlami oq tuz bilan qoplangan sho‘r yer, maydon), *muzlıq* (muz bilan qoplangan maydon) kabilar.

Hudud o‘zbek shevalarida *-lıq*/-*lik* affiksi orqali ot asoslardan “*ekin ekilgan yoki o‘stiriladigan yoki ekini yig‘ib olingan maydon*” ma‘noli otlar hosil qilinadi: *qavullıq* (qovunzor), *paxtalıq* (paxtazor), *djiydəlik* (jiydazor), *ag‘achlıq* (daraxtzor), *yuzymlik*/*djiuzymlik* (uzumzor), *yorındjalıq* (bedazor), *djiyvərilik* (jo‘xorizor), *məkkəlik* (makkajo‘xorizor), *chimichkəlik*/*chimichkaңыз* (kungaboqarzor) kabilar.

Bu o‘rinda *-lıq*/-*lik* affiksi o‘zbek adabiy tilidagi *-zor* affiksining vazifasini bajaradi. Hudud o‘zbek shevalarida *-zor* affiksi umuman ishlatilmaydi.

O‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalarida dalaga ekilgan ekin turiga qarab yuqorida qayd etilgan so‘zlardan keyin «*atıız*» so‘zi ishlatiladi: *paxtatıız*, *məkkatıız*, *yoңызchatıız*/*yorındjatlıız*/*yoңызrchatlıız*/*djiyoңызrchatlıız* kabilar. Ekindan bo‘shagan maydonni anglatish uchun «*aңыз*» so‘zi birga ishlatiladi: *paxtaңыз*, *məkkəңыз*, *djiyvəraңыз* va boshqa. Bunday birikuvda birinchi so‘zning oxirida va ikkinchi so‘zning boshida kelgan bir xil unlidan biri eliziyaga uchrab, talaffuzda tushib qoladi: *məkkəңыз*, *djiyvəraңыз*, *paxtaңыз* kabi.

Hudud o‘zbek shevalarida o‘zbek adabiy tilidan farqli tarzda *-cha*/-*chə* affiksi orqali yasalgan ayrim o‘rin-joy otlari ham uchraydi: *tandıırcha* (o‘choqning oldidagi cho‘g‘ tortadigan maxsus joy), *bəlimchə* (militsiya tayanch punkti). Masalan: *Avulдың milsiyasasınıñ bəlimchəsinə arzandı yubarıırtı* (Qilichboy qishlog‘i).

-cha/-*chə* affiksi ravish asosiga qo‘shilib, vaqtning cheklanganligi ma‘nosini ifodalaydi: *hazırcha*, *byginchə*, *azang‘acha*, *byuyılcha*. Masalan: Kelin *yaңacha* turmushqa barg‘an ierində kəlligip ketti (Beruniy tumani).

-*cha/-chə* affiksi fe'llardan ham ravish yasaydi. Masalan, ayrim sifatdoshlarga -*cha/-chə* affiksining birikishidan ravishlar hosil bo'ladi: Xavargı əshitip, *şyūyngənichə* öyünə chartı (Turkmanko'l qishlog'i).

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi o'zbek shevalarida ravishlar -*chəlli*, -*chiyin*, -*chəkəm*, -*diyın*, -*dəlli*, -*dəlli* affikslari orqali ham yasaladi. Adabiy tilda bu affikslarning vazifasini *qadar*, *dovur*, *yoq* ko'makchilari bajaradi. Masalan: *Shynchəlli* atadegən balag'a tashbavur bolama (Nayman qishlog'i).

Shevalarda -*lay/-ləy/-ley* affiksining payt ma'nosini ifodalovchi so'z asoslariga qo'shib, davomiylilik ma'nosini yuzaga chiqarishi kuzatiladi: *yazlay* (yozi bilan), *qyshlay* (qishi bilan), *bə:rləy* (bahorda), *chəkkiləy* (chama bilan). Masalan: *Yazlay* votын djyysaq, *qyshlay* vochag'ыңа djag'asaң.

-*ын/-in* affiksi payt ma'nosini bildiruvchi asoslarga qo'shib, asosdan anglashilgan payt bilan aloqador holatni ifodalovchi ravishlarni hosil qiladi: *qyshын*, *yazyын*, *bə:ərin*, *gүzүn/kүzəkin*, *kүndүzin*, *kechəsin*, *tүshligin*, *shəshkəligin*: Djyvəriני kech yeksəñəm, *gүzүn* bersə piship qaladı (Xo'jayli tumani); Выуыл дйуханның *bə:ərin* дым қысты, уавын-чачым көр болды (Nazarxon qishlog'i).

Xarakterli jihati shundaki, hudud o'zbek shevalarida -*ын/-in* qo'shimchasining so'z tarkibida so'z asosi bilan shakl yasovchi qo'shimcha orasida qo'llanilishi ko'p uchraydi: *qyshында*, *yazyында* *gүzүндə*, *bə:ərinдə*, *kүndүzиндə*, *ayag'ында*, *soңында*, *aqығында*, *axығында*, *soңында*, *tүbində*, *dərəgində*, *tiykarында*, *dəvərəgində* kabi. Bunday holatda -*ын/-in* affiksi so'z asosi bilan shakl yasovchi affiksni bog'lashda interfiks vazifasini bajaradi⁶⁷.

O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida -*man/-mən/-men* affiksi ham ravish yasash vazifasini bajaradi. Bu affiks, asosan, ravish va ot asoslardan ravish yasaydi. Bunday yasama ravishlar, asosan, makon, payt, holat ma'nolarini anglatadi. Masalan: *Harman* (nari) votын azraq. *Berman* beri ke. *Harbag'an* (nariroq) djylysh. *Bermag'an* (beryoqqa) qara. *Yertemen* malg'a vot salaman. Bu gaplarda qo'llangan yasama ravishlar, asosan, Qo'ng'iro't, Shumanay, Qonliko'l tumanlari qishloqlarida istiqomat qiluvchi ayrim o'zbeklar nutqida kuzatiladi.

O'zbek xalqining shakllanish tarixiga nazar tashlasak, shu xalq tilida uchraydigan farqlar turkiy qabilalarning migratsiyasi natijasida vujudga kelgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda VI asrning o'rtalaridan boshlab Toshkent, Farg'ona, Xorazm yerlariga turkiy qabilalar ko'plab ko'chib kelgan. Turkiy qabila va urug'larning bu yerga ommaviy tarzda ko'chib kelishlari VIII asrning boshlarigacha davom etdi. VIII-IX asrlarga kelib, ularning o'troqlashishi kuchayadi.

XI-XIII asrdagi yozma manbalarga qaraganda, qoraxoniylar xonlari zamonida O'zbekistonda qarluqlar bilan chigillar ko'pchilikni tashkil qilgan. Turkiy qabilalarning jumladan, o'g'uz va qipchoqlarning yangidan ko'plab ko'chib kelishi turkiy tilda so'zlovchi aholi yashaydigan hududni vujudga keltirdi. Shuni alohida aytish lozimki, qipchoqlar son va tarkib jihatidan o'zbek millatini tashkil etishda katta etnik tarkibiy qism bo'lib qatnashdi. Ular qadimgi davrlarda turkiy xalqlarning qipchoq guruhiga kiruvchi ming, yuz, qirq, qipchoq (tor ma'noda), nayman, qang'li, qiyot, qo'ng'iro't, mang'it, uyshun, kenagas, jaloyir, misit, durman, qutchi, barqut, bahrin kabi urug' va qabilalar

⁶⁷ Ганиев Ф.А. Суффиксальное словообразование в современном татарском языке. – Казань, 1974.

asosida tashkil topgan bo'lib, Dneprdan va Qora dengizning shimoliy qirg'oqlaridan tortib, Irtish daryosi va Balxash ko'ligacha cho'zilgan, Janubda Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaradosh bo'lgan keng dasht - XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb nomlangan joylarda yashashgan. Ular rus manbalarida poloveslar, grek manbalarida esa kumanlar deb atalgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, o'zbek xalqi va tilini shakllanishida juda ko'plab turk-mo'g'ul urug'larining qabilaviy birlashmalari ham asosiy uzv sifatida ishtirok etgan.

Hozirgi o'zbek tiliga tarixiy nuqtai nazardan qarasak, u genetik jihatdan boshqa-boshqa bo'lgan uch turkiy til birligining (qarluq, qipchoq, o'g'uz) qo'shilishidan hosil bo'lgan degan xulosaga tayanib, o'zbek tili shevalarini tasniflashtirishda, albatta, ana shuni hisobga olmoq kerak bo'ladi.

Bugungi kunda yerli aholining bergan ma'lumotlariga qaraganda o'zbeklarning qo'ng'iroq, kenagas, mang'it, toma, qipchoq (tor ma'noda), meton (muytan), burqut, xitoy (qıytay), xo'ja, bahrin, qora mang'itlar, qalmoq, misit, said, bek, eshon, qutchi, qirg'iz, esaru, qaraqalpoq, esavoy, galavur, mo'g'ul, g'ubombor, movri, qoracha, g'ulon, maxsim, jaloir, nayman, arg'un, turkman, kapa, taxchi, g'ulom, aymoq, eroni, qarluq, kal, qozoq, qalmoq, olot, bayot, jig'achi, darg'ali, janafar, qoroun, qorovul, sayot, sodir, chandir, eski, tomijiq, burjoq va boshqa shu kabi ko'pgina urug' va qabila nomlari saqlangan. Bu urug'-qabila nomlarining ko'pchiligi hozirgi kunda qaraqalpoq, qozoq, tatar, no'g'ay, qirg'iz, boshqird, turkman va boshqa turkiy xalqlarda ham uchraydi. Bunday bo'lishi, tabiiy. Chunki ko'pgina turkiy xalqlarning tashkil topishida ham bu urug'-qabilalarning ishtirok etganligi ma'lum. Bu haqda tarixiy manbalarda ham qayd etilgan. I. Jabborovning qayd etishicha, mang'it, qo'ng'iroq, qiyot, qipchoq, xitoy, qang'li, durmon, ming, qirq, yuz, loqay, qo'shqi, nayman, chimboy, shunqarli, qovchin, chiroyli, iyjon, salur, bayri, arg'in, burqut, barlos, jaloir, qarluq, nukus, uyshin, o'tarchi, qatag'on, kulan, arlat, qushoyoqli, buyruk kabi etnoslar o'zbek va O'rta Osiyoda yashovchi boshqa turkiy elatlarning xalq sifatida shakllanishida ishtirok etgan muhim komponent hisoblanadi. Shuning uchun ham turkiy tillar orasidagi o'xshashlik tasodifiy hodisa emas, ularning tarixiy ildizlari bir manbaga ega ekanligidandir.

O'zbek tili va shevalarining lug'at tarkibini tashkil etgan so'zlar ham mana shu urug'-qabilalarning tilidir.

O'zbek tilida so'zlashuvchi aholi o'tmishda turkiy qabilalar, qavmlar, elatlar bilan birga turkiy bo'lmagan etnik guruhlar bilan ham yaqin munosabatda bo'lgan. Turli iqtisodiy va madaniy aloqalar bir hududda qo'shni yoki ba'zan aralash holda yashash jarayonining sodir bo'lishi o'zbek shevalarining turli tuman bo'lishiga olib keldi. Hatto tilning fonetik strukturasi ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shuningdek, u tillardan so'zlar o'zlashdi. Markaziy o'zbek shevalarining fonetik qurilishida turkiy tillarga xos bo'lmagan bir qator belgilar yuzaga keldiki, bunday xususiyatlar uni boshqa qardosh turkiy tillardan keskin farqlanishiga olib keldi. Lekin kuchli farqlanish asosan, markaziy o'zbek shevalariga xos bo'lib, o'zbek tilining qipchoq va o'g'uz tip shevalari umumturkiy tillarga xos bo'lgan asosiy belgilarni saqlab qolgan.

O'zbek xalq shevalarining o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini belgilash, tadqiq etilayotgan hududlarda o'zbek tili yetakchi (qarluq, qipchoq, o'g'iz) lahjalarining bir-

biriga ta'sirini izohlash uchun shevalar tarqalgan hududning joylashuv o'rni, iqlimi, geografik muhiti ham inobatga olinadi.

O'zbek xalq shevalarida jo'nalish kelishigining juda ko'plab formalari uchraydi, u shu jihatlari bilan adabiy tildan farqlanadi. Shevalarda ham jo'nalish kelishigidagi ot ish harakat yo'nalgan predmetni anglatadi.

Shevalarda jo'nalish kelishigining [-ga, -g'a, -ka, -qa, -a, -ya] kabi formalari uchraydi. O'zbek shevalarining qarluq lahjasiga oid shevalarda jo'nalish kelishigining formasi [-ga] shaklida qo'llaniladi. O'zbek adabiy tilidagidek, shevalarda ham jo'nalish kelishigining qo'shimchasi [-ga] chuqur til orqa [q, g'] undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda [-qa] shakliga ega bo'ladi. *Boqqa, otloqqa, toshloqqa, shaqqa, baqqa*. Agar so'zning oxiri [k, p, s, t sh,] kabi jarangsiz undoshlar bilan tugaganda jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi [-ka] holatida qo'llaniladi: *elokkə, ishkə, otkə, oliskə* kabi. O'zbek shevalarida jo'nalish kelishigining [-ə // -a] shakllari ham uchraydi. she: r+ə, ə: r+ə, be: r+ə. Ravishlarning bu tartibda shevalarda qo'llanilishi jo'nalish kelishigining [-ə] formasi bilan ifodalanishi Buxoro dialektida, Jo'sh, Baxmal, Xorazm (qipchoq), Beruniy, Gurlan, Turkiston, Qashqadaryo, Kattaqo'rg'on, Qarnob, Namangan shevalarida ham uchraydi. Jo'nalish kelishigining bu formasi o'zbek shevalarining ko'pchiligida bir xil [-ə, -a] tarzida bo'lsa ham, ular turli xil so'zlarning tarkibida kelib, shevalarning bir-biridan farqlovchi belgisiga aylangan. Masalan: Xorazm shevasida so'z m+a, yan' m+a; Qorako'l shevasida qishlog'+a, Shahrisabz: oy+a kiring kabi so'zlarning tarkibida kelgan jo'nalish kelishigining [-ə, -a] shakllari har bir shevaning o'ziga xos qonuniyatlari asosida qo'shilgan.

Jo'nalish kelishigining [-yə] shakli ham qo'llaniladi. [-yə] qo'shimchasi ko'proq unli bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. *tepaya, kəchaya; Kattaqo'rg'on: ichiya, əziya; Toshkent: hovliya* kabi. O'zbek shevalarining qipchoq lahjasiga oid shevalarida jo'nalish kelishigining qo'shimchasi quyidagilardan iborat: [-ga, -g'a, -a, -qa]. Bu qo'shimchalar qattqlik va yumshoqlik, til oldi va til orqa unililari hamda yonma-yon kelgan undosh tovushlari ta'sirida yuzaga keladi va qo'llanadi.

Qipchoq lahjasiga oid shevalarda jo'nalish kelishigining -g'a, ɢa shakllari uchraydi: *balalarg'a, ishg'a, ashg'anag'a, ma+ɢa, sa+ɢa* kabi. Jo'nalish kelishigining bu formalari qipchoq lahjasiga oid shevalarda keng tarqalgan.

O'zbek shevalarida o'rin-payt kelishigi shakli o'rnida jo'nalish kelishigi shakli qo'llaniladi: *uyga o't'r'bdi // ad. orf. : uyda o'tiribdi* kabi. Samarqand, Buxoro, Navoiy, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Urgut, Shahrisabz shevalarida ham o'rin-payt kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'llanilishi uchraydi.

Xulosa va takliflar. Shevada chiqish kelishigining [-dən, -dan, -tan, tən, -nan, -nən, -lən] kabi formalari qo'llaniladi. Chiqish kelishigida kelgan so'zlar harakatning boshlanishi paytini, o'rnini, uning sababini, masofaning uzoqligini, yaqinligini bildiradi va ma'nolari o'zbek adabiy tiliga mos keladi. Masalan: *daladan etta qaytt'*; *o'fto'ptan so'yaga o'tti*; *nonnan aziz narsa yo'q*. Qarluq lahjasiga oid shevalarning aksariyatida chiqish kelishigining ko'rsatkichi [-dən, tən, -nən (ba'zan -dan, -tan, -nan)] tarzidadir.

O'zbek shevalarida adabiy tildagi *kechadan beri* birikmasi *kechəni beri, kechəni bo'zi* yo'q tarzida qo'llanilib, chiqish kelishigi [-dən] o'rnida tushum kelishigi [-ni] ishlatilgan. Shevada chiqish kelishigining qo'shimchasi -dən o'rnida -ɣn, -in ko'rsatkichi

ham uchraydi: aytmayin borma. Bu Baxmal shevalarida ham qo‘llanilgan: ko‘rmayin (ko‘rmasdan) to‘qib gəpirmə bərməyin qoydi. Qipchoq lahjasiga xos shevalarda chiqish kelishigining -dən, -tən ko‘rsatkichlari uchraydi: ottən tushdi, kitobtən o‘qidi. Qarluq va qipchoq shevalarida chiqish kelishigida kelgan so‘zlardan so‘ng, keyin ko‘makchisi kelganda shu so‘zlar turli xil o‘zgarishlarga uchraydi əytkən+dəy+ken (aytgandan keyin).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T. : O‘qituvchi, 1973. – 320 b.
2. Arealные issledovaniya v yazykoznanii i etnografii: tezisi. – Ufa, 1985. – 202 s.
3. Blagova G. F. Tyurkskoe sklonenie v arealno-istoricheskom osvещenii (yugovostochnyy region). – M. : Nauka, 1982. – 304 s.
4. Bobojonov Y. Janubiy Xorazm etnografik leksikasi. : Filol. fanlari nomzodi... dis. – T., 1997. – 187 b.
5. Gadjiyeva N. Z. Tyurkoyazychnyye arealy Kavkaza. – M., 1979. – 263 s.
6. Djuraev A. B. Teoreticheskie osnovy arealnogo issledovaniya uzbekoyazychnogo massiva. – T., 1991. – S. 218.
7. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – T. : Fan, 1979. – 158 b.
8. Ibrohimov Y., Janubiy Orolbo‘yi o‘zbek shevalari tadqiqi. : Filol. fanlari d-ri... dis. – T., 2000. - 366 b.
9. Ishaev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. – T., 1977. – 175 b.
10. Yo‘ldoshev T. Tojikistondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. – T., 1986. – 100 b.
11. Murodova N. K. BORROWED LEXICON IN UZBEK LANGUAGE //湖南大学学报 (自然科学版). – 2021. – T. 48. – №. 11.
12. Nigora M. The Historical Development of the Language-the Basis of Human History //International Journal on Integrated Education. – T. 2. – №. 4. – S. 119-121.

TOPONIM VA NEKRONIMLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI (NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI MISOLIDA)

Mavjuda Xamrakulovna SUVANOVA,
*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi, katta o'qituvchi f.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya. Toponim va nekronimlarning leksik xususiyatlari tahlil qilinib, ma'lum hudud toponimiyasi negizida yotgan topoleksemalar va ularning miqdorini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Toponegiz, oykonimlar, etnooykonimlar, antropooykonimlar, fitooykonimlar, antropotoponimlar, topotoponimlar, etnotoponimlar, neotoponimlar

Аннотация. Анализируя лексические особенности топонимов и некронимов, важно определить тополексе́мы и их количество, составляющие основу топонимии определенной территории.

Ключевые слова. Топонимы, ойконимы, этноойконимы, антропойконимы, фитоиконимы, антропотопонимы, топотопонимы, этнотопонимы, неотопонимы

Annotation. Analyzing the lexical features of toponyms and necronyms, it is important to determine the toponyms and their number, which form the basis of the toponymy of a certain territory.

Keywords. Toponyms, oikonoms, ethnoiconoms, anthropoiconoms, phytoiconoms, anthropotoponyms, toponyms, ethnotoponyms, neotoponyms.

Kirish. Navbahor tumani mikrotoponimiyasining asosiy tiplari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu toponim va nekronimlarning har biri, bitta yoki birdan ortiq toponegizlardan yasalgan atoqli otlardir. Ammo ushbu toponegizlarning ba'zilari toponimiya tarkibida faqat bir marta uchrasa, ba'zilari esa bir necha marta ishtirok etadi, ayrimlari ko'plab nomlar tarkibida uchraydi. Demak, ushbu qonuniyatga ko'ra, toponimlarni hosil qiluvchi negizlar toponimlar miqdoridan kam bo'ladi.

O'zbek tilida so'zlar ko'p, ammo bu so'zlarning barchasidan ham toponimlar yasalmaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'zbek tilidagi toponimlarni hosil qilishda toponimiya tizimi talab va ehtiyojlarini qondira oluvchi ma'lum miqdordagi so'zlar qatnashadi. Mana shu so'zlar majmuyi, nomshunoslikda toponimik leksika, toponegiz, topoleksema deb yuritilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ma'lum hudud toponimiyasi negizida yotgan topoleksemalarni, ularning miqdorini aniqlash ma'lum ahamiyatga ega. Shu sababli ba'zi tadqiqotchilar ba'zi toponimiya tizimining toponegizlari miqdorini aniqlashga harakat qilishgan. Masalan, Tog'li Oltoydagi turkiy toponimlar tadqiqotchisi O.T.Molchanova

3142ta turkiy toponim negizida 1846ta toponegiz yotishini hisoblab chiqqan. Mana shunday ma’lumotlar nomshunoslikdan M.T.Mo‘minov, F.T.Xisamatdinovanning ishlarida ham uchraydi. S.Qorayevning fikricha, O‘zbekistondagi 13.000 chamasi qishloq va shaharlar nomi 2000 atrofidagi leksemalar (toponegizlar) asosida hosil qilingan. A.Y.Superanskayaning fikricha, toponimlar bilan ularning toponegizlari orasidagi munosabat lisoniy omillardan farqlanuvchi boshqa xil xususiyatlar bilan ham aloqadordir. Gap shundaki, har bir davrda topoasoslar son-sanoqsiz emas, balki ma’lum darajada cheklangan, ko‘zga ko‘rinib turadigan bo‘ladi. Har bir zamonaviy toponimik holatda toponimlarning miqdordan ko‘pligi, bu davrda yaratilgan nomlardan tashqari o‘tmish davrlardan meros bo‘lib qolgan toponimlar hisobiga ham oshib boradi. Ba’zi bir lug‘aviy asoslarning endilikda nima uchun foydalanilmasligi tilshunoslar, sotsiologlar, tarixchilar, psixologlar bilan hamkorlikda hal qilinuvchi masaladir.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz ham Navbahor tumani toponimiyasining toponegizlarini tahlil etish nuqtayi nazardan kuzatdik. Bunday kuzatishlar quyidagi natijalarni berdi:

No	Toponimning xarakteri	Toponimlar miqdori	Ular asos bo‘lgan toponegizlar miqdori
1	Qishloq va ovullar nomi	96	75
2	Tepalar nomi	20	18
	Jami	116	93

Keyingi qismda Navbahor tumani hududidagi toponimlar va ular asos bo‘lgan toponegizlar lug‘aviy asoslarga ko‘ra guruhlariga bo‘lib tahlil qilinadi.

1. Asosini turdosh ot tashkil qiluvchi toponim va nekronimlar

Navbahor tumani toponimlarining aksariyati lug‘aviy asosini turdosh so‘zlar tashkil qiladi va ular tabiiy-jo‘g‘rofiy obyektning quyidagi xususiyatlarini ifodalaydi:

1. Geografik obyektning joylashish o‘rniga ishora qiladi: *Yuqori Beshrabot qishlog‘i, Quyi Beshrabot qishlog‘i, Etaksaroy mahallasi* kabilar.

2. Obyektning miqdorini ko‘rsatadi: *Beshrabot mahallasi, Uchtut qishlog‘i* kabilar.

3. Obyektning uzunlik yoki qisqalik, yaqinlik yoki uzoqlik belgilarini anglatib turadi: *Qirqariq qishlog‘i, Yoymatepa tepaligi* kabilar.

4. Obyektning paydo bo‘lish davri, yangiligi va eskiligiga ishora qiluvchi toponegizlar: *Yangiobod qishlog‘i, Yangiqishloq mahallasi* kabilar.

5. Mahalliy aholining kasb-korini, mashg‘ulotini ifoda etuvchi toponegizlar: *Mexchagaron mahallasi, Mang‘it qishlog‘i, Minglar qishlog‘i, Degrez qishlog‘i* kabilar.

6. Hududda (qishloq, mahalla) istiqomat qiluvchi kishilarning dastlabki yurtini, etnik mansubligini anglatuvchi toponegizlar: *Arabxona qishlog‘i, Mang‘it qishlog‘i, Arabsaroy mahallasi, Yuqori Burqut qishlog‘i, Quyi Burqut qishlog‘i* kabilar.

7. Yangi davrning mafkurasi, intilishlari va orzulari bilan aloqador bo‘lgan nomlar: *Navbahor jamoa xo‘jaligi, Navro‘z jamoa xo‘jaligi, Salim Sulton qishlog‘i, Navoiy ko‘chasi, Bobur nomli shoh ko‘cha* kabilar.

2. Asosini atoqli ot tashkil qiluvchi toponim va nekronimlar

Atoqli otlar tizimida atoqli otlarning o‘zaro bir-biriga o‘tish hodisasi keng tarqalgan bo‘lib, bu xususiyat tilning lug‘aviy tizimida turli xil ko‘rinishga egadir.

Yangidan yasalayotgan toponimga qanday atoqli ot toponegizlik vazifasini o'tayotganligiga ko'ra, yangi nom quyidagicha ataladi: a) toponimga kishining ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi asos bo'lsa antropotoponim; b) toponimga urug', qabila, xalq, millat nomi yoki o'sha etnik guruhlarning jamoaviy laqabi asos bo'lsa - etnotoponim; v) toponimga kosmik obyektlar (oy, quyosh, sayyora, yulduz va boshqalar) nomi asos bo'lsa - kosmotoponim; g) toponimga toponimlar (joy nomlari) asos bo'lsa - topotoponimlar; d) toponimga suv obyektlarining nomi (gidronimlar) asos bo'lsa gidrotoponim deb yuritiladi.

Yuqorida qayd qilingan nomlarning Navbahor tumani toponimiyasida uchraydigan ko'rinishlarini tahlil qilishga intilamiz.

Oykonimlar. Oykonimlar joy nomlari orasida alohida guruhni tashkil etadi. Aholi punktlari va uning ichki bo'limlari - qishloq, posyolka, ovul, mahalla, گزار, ko'cha nomlari oykonimlar deb yuritiladi. Oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida shuni avtish lozimki, hudud tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimik nomlarda yaxshi saqlanib qolgan.

Oykonimlardan ba'zilarining nomi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Bu hodisa aholi punktlari jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayoti, turmush darajasi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy o'zgarishlar ko'proq oykonimlarda aks etadi[1]. Oykonimlarni ma'nosiga ko'ra tahlil etganda ularning qanday so'zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlash tamoyillarini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, oykonimlarning nomlanishi turlicha bo'ladi. Masalan, etnooykonimlar, antropooykonimlar, fitooykonimlar, geomorfologik oykonimlar, ko'chma oykonimlar va boshqalar.

Etnooykonimlar. Navbahor tumanidagi geografik nomlar tizimida etnooykonimlar katta o'rinni egallaydi. Urug', qabila, millat, xalq nomlari (etnonimlar) asosida yaratilgan aholi punktlarining atoqli otlari etnooykonimlar deb yuritiladi. Etnooykonimlar tildagi eng qadimgi toponimik qatlamlardan biri hisoblanadi. Ular uzoq tarixiy davrning yodgorligi bo'lib ma'lum xalqning tarixini, etnik tarkibini o'rganishda, ularning tarqalish chegarasini ko'rsatishda va aniqlashda eng muhim manbalardan biri sanaladi. Masalan: *Arabsaroy, Arabxona, Mang'it, Ming, Urganch, To'qmang'it, Chovli, Mitti* kabilar.

Antropooykonimlar. Antroponimlar, ya'ni kishi ismlari, laqablari, familiyalardan, taxalluslardan yasalgan turar joylar nomi antropooykonimlar deb ataladi. Chunonchi, Navbahor tumani hududida *O'razobod, Qorajon, Mavlonbobo, Oximboboyev, Salim Sulton, Mirzamo'min, Islomkent* singari qishloq nomlari xuddi ana shunday antropooykonimlar qatoriga kiradi.

Fitooykonimlar. Oykonimlarning bir guruhini o'simlik va daraxt nomlari asosida shakllangan atamalar tashkil etadi. O'simlik va daraxt nomlari bilan atalgan aholi punktlari nomi - fitooykonimlar (yunoncha fitos - o'simlik demakdir) ma'lum hududdagi o'simliklar dunyosining muhim xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Masalan: *Uchtut, Qayrag'och, G'ujbog'* kabilar.

Antropotoponimlar. Joylarni kishilarning ismi, familiyasi, laqabi bilan ba'zi hollarda taxallus bilan atash juda qadimiy tarixga egadir. Bunday rusumning qachon paydo bo'lganligi haqida nomshunoslar turlicha fikrlar bildiradi. Taniqli, nomshunos

V.A. Nikonov bu jarayon feodalizm davrida, yerga egalikning kuchayganligi bilan izohlaydi [2].

Ammo ba'zi tadqiqotchilar antroponimiyaning toponimiyaga o'tishini qadimiy hodisa, deb biladi. Antroponimika va toponimika sohalari tarixan bir-biri bilan bog'liqdir. Chunki bir qator antroponimlar toponimlar asosida paydo bo'lgan, ko'pincha toponimlar esa kishilarning ismlaridan yasalgandir.

Antroponimlar asosida yasalgan toponimlar antroponegiz, antroponimik negiz deb yuritiladi. Antropotoponimlarning sermahsul jarayon ekanini bu masalaga oid maxsus tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, S.Qorayev "dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, hozirda respublikamizning 3 dan 8 foizgacha bo'lgan aholi yashaydigan joylari nomi shaxs nomidan yasalgan," - deb aytgan.

Umuman har bir hududda antropotoponimlar quyidagi to'rt xil sababga ko'ra paydo bo'lishi mumkin: a) u yoki bu toponimik obyekt uni bunyod etgan, uning yuzaga kelishi uchun sababchi bo'lgan shaxs nomi bilan ataladi; b) toponimik obyekt unga egalik qiluvchi kishi nomi bilan ataladi; v) biror shaxs ideallashtiriladi yoki ilohiylashtiriladi hamda ma'lum obyektlar uning nomi bilan atala boshlanadi; g) shaxs nomi rasmiy ko'rsatma va qaror asosida biror joyga beriladi (memorial toponimlar). Ayniqsa, keyingi holat sho'rolar davrida avj olgan va sho'ro davlati toponimik siyosatining tarkibiy qismiga aylangan edi [3].

Navbahor tumani toponimiyasida anchagina antropotoponimlar mavjud bo'lib, bu hudud toponimiyasining salmoqli qismini tashkil qiladi, ularning miqdori hozirgi kunga kelib 80dan oshadi.

Navbahor tumanidagi toponimlarda quyidagi antroponimik toponegizlar mavjudligi aniqlandi:

1. Shaxsning ismi bilan bog'liq antroponimik toponegizlar: *Mavlonbobo, Mirzamo'min, Islomkent, Qamarota, Umarota* kabilar. Ko'p holda shaxsning ismi asos bo'lgan toponim ma'lum aniqlagichlar bilan birga keladi: *Abduariqtepa, Umarotatepa, O'razobod* kabilar.

2. Kishining ismi va familiyasi asosida shakllangan antroponimik toponegizlar: Bunday nomlar, asosan, sho'rolar davrida keng udum bo'ldi va ko'proq ko'chalar, guzarlar, maydonlar, xiyobonlar kishining ismi va familiyasi, bilan ataldi: *Tillo Jo'rayev (k), Salim Sulton (qish.)* kabilar.

Ushbu guruhga shartli ravishda ba'zi tarixiy shaxslar nomi bilan yurutiluvchi quyidagi singari toponimlarni ham kiritish mumkin: *Mirzo Bobur, Ibn Sino (ko'chalar nomi)* kabilar.

3. Ushbu hududda faqat taxalluslardan yasalgan toponimlar juda kam. Ba'zi joy va obyektlar *Bobur 'ko'chasi, Furqat ko'chasi* kabi nomlar bilan yuritilganida nomning toponegizini taxalluslar tashkil qiladi.

Navbahor tumani toponimiyasidagi antropotoponimlarning aksariyati tabiiy-tarixiy nomlar bo'lib, asrlar davomida bu hudud toponimiyasi tizimiga singib qolgan. Ammo yangi davr - XXI asrda yasalgan ba'zi antropotoponimlar, ayniqsa ism va familiya modelidagi nomlarning sun'iyliigi, toponimik tizimga yetarli ravishda singmayotganligi sezilib turadi.

Topotoponimlar. Toponimiyada bir obyektning atoqli oti bilan boshqa bir obyektning ham atash, ya'ni obyektlar nomining biridan ikkinchisiga ko'chishi, aniqrog'i, toponimdan toponim hosil qilish jarayoni bu hududda ma'lum darajada keng tarqalgan xarakterli hodisadir. Bunday nomlar negizida topotoponim, ya'ni toponimdan toponim hosil qilinsa topotoponimlar deb yuritiladi. Toponimning yangi, qo'shimcha vazifasiga o'tishi, asosan, onomastik konversiya - nomni funksional ko'chirish orqali yuz beradi.

Topotoponimlarning hosil bo'lishida ikki xil jarayon yorqin ko'zga tashlanadi: a) yonma-yon, yaqin joylashgan obyektlarning nomi biridan ikkinchisiga o'tadi; b) aksincha, uzoq joylashgan obyektlarning nomi bir-biriga o'tadi.

Umuman olganda, topotoponimlarning hosil bo'lish qonuniyatlari hali toponimiyada unchalik yaxshi o'rganilgan emas. Bunga sabab, binichidan, nom ko'chish murakkab jarayon bo'lsa, ikkinchidan, biridan ikkinchisiga o'tgan nomlarning qaysi biri dastlabki nom ekanini aniq belgilashni talab qiladi. Chunonchi: Navbahor tumanida *Ijand* degan qishloq ham, tepa ham bor. Yoki tuman hududida *Sarmish* degan qishloq ham, soy ham, dala ham bor. Ulardan qaysi birining nomi qaysi birisiga o'tgan? Toponimik shakl dastlab qaysi obyektning nomi bo'lgan? Bunday masala toponim mansub bo'lgan joyga borib aniqlanishni talab qiladi. Bizning Navbahor tumani toponimiyasi yuzasidan kuzatishlarimiz bitta nom (toponim)ning ko'p holda birdan ortiq obyektning nomi bo'lib kelishini ko'rsatdi. Biz to'plagan materiallar orasida ikki, uch, hatto to'rttagacha obyektga nom bo'lib kelgan toponimlar ham mavjud. Quyida biz ana shunday nomlardan ayrim namunalar keltiramiz:

1. Ikkita obyektning nomi bo'lib keluvchi toponimlar. Bular quyidagilar:

- qishloq va tepa nomi: *G'ujbog', Qurama, Ijand, Qizilcha* kabilar;
- qishloq va dala nomi: *Sarmish, Qoraungur* kabilar;
- qishloq va mahalla nomi: *Jo'rayev Tillo, Qorajon, Arabxona, Armijon, Sovungar, Mavlonbobo, Qo'shqochdi* kabilar;
- qishloq va buloq nomi: *Jilli* kabilar;
- qishloq va soy nomi: *Sarmish* kabilar;
- qishloq va muqaddas qadamjolar nomi: *Qalqonota* kabilar;
- mahalla va tepa nomi: *Halovattepa* kabilar;
- buloq va tepa nomi: *Qo'tirbuloq, Chaqmoq* kabilar;
- ko'cha va masjid nomi: *Ahmad Yassaviy* kabilar.

2. Uchta obyektning nomi bo'lib keluvchi toponimlar:

Uchtut - mahalla, qishloq, muqaddas qadamjoy;

Sarimish - qishloq, dala, soy;

Qalqonota - mahalla, qishloq, muqaddas qadamjoy kabilar.

3. To'rtta obyektning nomi bo'lib keluvchi toponimlar:

Qalqonota - qishloq, mahalla, ariq, muqaddas qadamjoy;

Arab - qishloq, mahalla, tepa, urug' kabilar.

Etnotoponimlar. Etnik nomlar - etnonimlarga urug', qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan va bunday nomlar “etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar”, ya'ni “etnotoponimlar” deb yuritilmoqda.

Navbahor tumanidagi etnotoponimlarni tahlil qilishdan oldin bitta masalaga, ya'ni etnonimlarning atoqli otga munosabati muammosiga qisqacha to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Chunki biz o'z ishimizda etnonimlarni atoqli otlar guruhida talqin qilmoqdamiz, ammo bu masalada nomshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar etnonimlarni atoqli ot deb hisoblashadi. Chunonchi V.A.Nikonovning yozishicha, etnonimlarning atoqli ot ekani yoki atoqli ot emasligini hal qilish ushbu nomlar haqidagi nazariyaga yetarli ravishda aniqlik kiritish bilan bog'liqdir. A.V.Superanskaya etnonimlarni “onomastika doirasiga kirmaydagan lug'aviy birliklar kategoriyasiga mansub”, - deb biladi.

O'zbekcha matnlarda etnonimlarning goh bosh, goh kichik harflar bilan yozilayotganligi ham bu masalada ikkilanish mavjudligidan darak beradi. Umuman, ushbu muammo alohida tekshirishlarni talab qiladi. Ammo bitta masala aniqki, etnonimlar toponegizlar orasida yetakchi o'rin egallaydi.

Turkiy, jumladan, o'zbek etnonimlari to'g'risida tarixchilar etnograflarning asarlarida juda ko'p ma'lumotlar mavjud. O'zbek etnonimiyasini tadqiq qilish ishiga keyingi yillarda X.Doniyorov, S.S.Gubayeva, A.Turobov, N.Begaliyev, K.Marqayev kabi olimlar katta hissa qo'shdilar.

Professor T.Nafasov Qashqadaryo viloyati hududidan 400 ta, T.Rahmatov Samarqand va uning atroflari hududida 200 ga yaqin, O'.Oripov Nurota tumanidan 234 ta etnotoponimlarni to'plaganini yozishgan edi. S.Qorayev O'zbekiston hududidagi aholi istiqomat qiluvchi joy nomlarining 10 dan 30 foizi etnotoponim ekanini ta'kidlagan.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga (toponegiziga) ko'ra ikkiga bo'lish mumkin: a) negizida xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar: *Arabxona, Arabsaroy* kabi; b) negizida urug', qabila va ularning mayda shaxobchalari nomi yotgan etnotoponimlar: *Mang'it, Ming, Burqut, Urganji, Mesit, To'qmang'it, Chuyut* kabi.

Toponimning etnotoponim ekanini, ya'ni joy, hudud nomi negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba'zi ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Odatda, toponimlar tarkibida quyidagi belgilar uchrasa, o'sha toponim etnonimdan yasalgan bo'ladi:

1. Nom tarkibida to'p (to'b) to'pi (to'bi) so'zlari uchraydi. Bu so'zlar aslida etnonimik indikatorlardir. X.Doniyorov *shodmonto'pi, shodito'pi, yashilto'pi, qazoqto'pi* kabi etnonimlarni qayd qilgan[4]. S.Gubayeva tarkibida *to'p, to'plar* so'zlari mavjud nomlar etnotoponim degan xulosaga kelgan va *Kaltato'pi, Xolmanto'p, Eshboyto'p, Urto'p* kabi nomlarni dalil sifatida keltirgan edi. Navbahor tumani toponimlari orasida ham tarkibida ushbu komponent bor bo'lgan toponimlar mavjud: *Eshonto'p (qq) Qozoqto'p (qq)* kabi.

2. Oxirgi -i qo'shimchasi bilan tugovchi ba'zi nomlarni ham etnotoponimlar qatoriga kiritish mumkin: *Urganji, Kavrakbi, Anorboqi* kabilar.

3.Oxirida -li, -di, -ti qo'shimchalari mavjud ba'zi toponimlar etnotoponimlardir: *Chovli* kabilar.

4. Oxirida -chi qo'shimchasi mavjud ba'zi nomlar etnotoponimlardir: *Kelachi (qq)* kabi.

5. Tarkibida -lar qo'shimchasi kelgan nomlar etnotoponimlardir.

Neotoponimlar. Toponimlarni xronologik jihatdan (paydo bo'lgan davriga ko'ra) ikki guruhga ajratib o'rganish mumkin: a) eski (ko'hna) nomlar va b) yangi (neologizm) nomlar.

Eski nomlar vujudga kelish nuqtayi nazaridan Oktyabr to'ntarilishiga qadar yaratilgan toponimlarni o'z ichiga oladi. Bu xil toponimlar xalq turmushining turli bosqichlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Eski nomlarga quyidagi toponimlarni ko'rsatish mumkin:

1. Urug'-qabilachilik davrini aks ettiruvchi nomlar: *Mitti, Chovli, Mqng'it, Chuyut, Burqut* kabilar;

2. Aholining sinfiy, ijtimoiy tabaqalanishini ifodalovchi geografik nomlar: *Boyho, Xunuko, Garrayo, Qorajon* kabilar;

3. Diniy e'tiqod, tushuncha va tasavvur bilan bog'liq holda vujudga kelgan joy nomlari;

4. O'tmishdagi katta yer egalari, feodallar, xonlar, amirlar, beklar va shu kabi amaldorlar nomi bilan atalgan toponimlar \ *Salim Sulton, Mirzo Mo'min* kabilar;

5. Turli xil voqea-hodisalarni bildiruvchi toponimlar. Kishilik jamiyati taraqqiyotida tarixiy voqea-hodisalar juda ko'plab sodir bo'lgan. Ulardan eng muhimlari voqea-hodisa ro'v bergan joy nomi bo'lib qolgan: *Degrez, Gidrouzel* kabilar;

6. O'tmishdagi amal, mansabni ifodalovchi so'zlar bilan atalgan toponimlar.

Biz o'rganayotgan hududdagi geografik nomlarning katta bir guruhini yangi nomlar, ya'ni neotoponimlar tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan eski toponimlar bizgacha hukm surgan turli tarixiy voqealar va tuzumlarning mahsuli, ularning tilda qoldirgan relikt (qoldiq)lari sifatida yashab kelmoqda.

Mustaqillik arafasida va mustaqillikdan keyin nomlangan toponimlar neotoponimlar qatoriga kiradi. Masalan, *Tillo Jo'rayev, Avliyoyi sangi zard, Bozorov Jabbor, Ko'hron* kabi qishloq va mahalla nomlari neotoponimlar qatoriga kiradi.

Xulosa va takliflar. Mavjud adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hozirgi davr nomshunosligida makrotoponim va mikrotoponim tushunchalari va bu tushuncha doirasiga kiradigan nomlar yetarli ravishda chegaralangan emas.

Mikrotoponimlar kichik, mayda geografik obyektlar nomi, makrotoponimlar esa yirik, ulkan obyektlar nomi ekani aniq. Lekin bu etnotoponimik jarayonlar orasidagi chegarani aniq belgilash lozim bo'ladi. Bizning ushbu muammo bo'yicha kuzatishlarimiz bunday oraliq (chegara) oykonimlar uchun qishloq, shahar nomi. gidronimlar uchun daryo nomi bo'lishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Har qanday atoqli ot, jumladan, toponimlar ham tildagi avvaldan mavjud bo'lgan oddiy so'zlardan yasaladi. Ammo tildagi barcha leksemalardan atoqli otlar yasalavermaydi. Atoqli ot vazifasida qo'llana oluvchi ma'lum leksik guruhlar mavjud. Bunday so'zlar nomshunoslikda apellyativ, apellyativ asos deb yuritilmoqda. Apellyativlar atoqli ot yasash uchun foydalaniladigan leksemalar yig'indisidir.

Atoqli ot uchun asos bo'luvchi apellyativ, ulardan hosil qilinuvchi atoqli ot miqdoridan doimo kam bo'ladi. Bunga sabab ba'zi apellyativlar birdan ortiq atoqli ot tiplarini hosil qilishda qatnashishidir. Masalan, "arab" apellyativi Arabxona toponimiyasi da 6 ta toponim tarkibida uchraydi: Arabxona (qishloq), Arabsaroy (qishloq), Arabxona (ko'cha), Arabxona (mahalla), Arabsaroy (mahalla), Arabtepa (tepa).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlari xususiyatlari. – Toshkent, Fan, 1989.
2. Nikonov V. Vvedenie v toponimiku. – M., Nauka, 1965.
3. Begmatov E. Joy nomlari – ma’naviyat ko’zgusi. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
4. Doniyorov X. O’zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.



**SHAXSLASHTIRISH VA PREDMETLASHTIRISH
ASOSIDA HOSIL BO'LGAN METAFORALARNING
LINGVOMADANIY TAHLILI
(TOG'AY MUROD QISSALARI MISOLIDA)**



Gulhayo Xakim qizi JO'RAYEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
10.00.01 – O'zbek tili tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tog'ay Murod qissalaridagi personifikatsiya va uning aksi bo'lgan jonli mavjudotlarning jonsizlashtirilishi asosida hosil bo'lgan metaforalar statistik umumlashtirilib, mavzuiy guruhlarga birlashtirilib, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Metafora, personifikatsiya, kognitologiya, geshtalt, obraz, kod, valentlik, denotat.

Аннотация. В этой статье олицетворение в рассказах Тогая Мурада и его отражение метафоры, сформированные на основе одушевления живых существ, статистически обобщены, объединены в тематические группы и лингвокультурологически проанализированы.

Ключевые слова. Метафора, олицетворение, познание, гештальт, образ, код, валентность, денотат.

Annotation. In this article, the personification in the stories of Togai Murod and his reflection of metaphors formed on the basis of animating living beings are statistically generalized, combined into thematic groups and linguoculturologically analyzed.

Keywords. Metaphor, personification, cognition, gestalt, image, code, valence, denotation.

Kirish. Fanda yangi bilimni topish va aniqlashtirishning ming yillardan beri ma'lum bo'lgan eng muhim usullaridan biri analogiya bo'lib, u turli obyektlar belgilari, xususiyatlari yoki munosabatlarining o'xshashligiga asoslanadi, ana shu o'xshashlik asosida bir obyekt haqidagi ma'lumotlar ikkinchi obyektga ko'chiriladi. Bu kognitiv jarayon, shubhasiz, metafora jarayonining mohiyatini tashkil etadi.

Antik davrda metafora so'z san'atining tayanch istilohi bo'lgan. Metafora tusunchasining ilk nazariy talqini (garchi boshqa nom bilan atalgan bo'lsa-da) yunon faylasufi va olimi Aristotel asarlarida uchraydi. Aristotelning fikricha, metafora ham o'xshatishdir, chunki ular o'rtasida arzimagan farqlar mavjud, xolos. Masalan, *u sherday tashlandi* ifodasida o'xshatish bor, agar ifoda *sher tashlandi* tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi⁶⁸.

⁶⁸ Аристотель. Риторика / Античные риторика. –М.: МГУ, 1978. –С. 134.

Metafora atamasining o‘zi esa Izokratning “Evagorus” asarida (taxminan miloddan avvalgi 383-yil) ilk marta uchraganligi manbalarda qayd etiladi⁶⁹. Antik davr donishmandlaridan yana biri Kvintilianning yozishicha, metafora yaratuvchining inoyati va borliq hodisalarini nomlash uchun xizmat qiladigan cheksiz xazinadir⁷⁰.

Metafora hodisasi ikki ming yildan ortiq vaqt mobaynida tilshunoslik ilmida tadqiq etib kelinayotgan bo‘lsa-da, o‘tgan asrning boshlariga qadar metaforani fanga, fan tiliga, terminologiyaga yot bo‘lgan hodisa sifatida talqin etish ustuvorlik qilib keldi. Shu vaqtga qadar metafora badiiyat doirasida o‘rganib kelindi. Antik davrning deyarli barcha faylasuflari metaforani, asosan, nutqning bezagi, nutqiy ko‘chim, badiiylik vositasi sifatida talqin qilganlar.

Professor Nizomiddin Mahmudov bu haqida shunday yozadi: “Ingliz faylasuflari nutq, eng avvalo, fikrni ifodalash va bilimlarni uzatish uchun xizmat qiladi va bu vazifani bajarish uchun faqat to‘g‘ri ma‘noda qo‘llangan so‘zlar yaroqlidir, deb hisoblaganlar. Hatto, masalan, T. Gobbs metaforalarni “adashgan olovlar” deb ataydi va ulardan foydalanish “sanoqsiz bema‘niliklar orasida tentiramoq” bilan teng ekanligini ta‘kidlaydi (Mazkur ifodalarda metafora mavjud ekanligini sezmaslik mumkin emas!)⁷¹.

Metafora milliy tafakkur mahsulidir. J.Vikoga ko‘ra, “har bir metafora kichik bir mifdir”⁷². Mif esa etnik xoslanganligi bilan ahamiyatga ega. Milliy dunyoqarash xaqning metaforik tushunchalari bilan uyg‘un hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Metafora – bu polisemik hodisa bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida polisemiya hodisasiga o‘tgan asrning 2-yarmidan e‘tibor qaratila boshlandi. Olim T.Aliqulov o‘z tadqiqotlari orqali polisemiyaning tilshunoslikning aktual sohalaridan biri ekanini yoritib berdi. O.Azizov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev kabi olimlar ham o‘z izlanishlari bilan polisemiya hodisalarini tadqiq etishdi. Biroq o‘zbek tilshunosligida ma‘no ko‘chish usullarining nazariy asoslari bo‘yicha maxsus monografik plandagi ishlar uchramaydi.

Polisemik hodisaning faol turi metafora mustaqil tadqiqot obyekti sifatida G.Qobuljonovanning nomzodlik dissertatsiyasida lison va nutq jihatidan tahlilga tortildi⁷³. Tadqiqotchi Z. Tohirov nutqiy metaforik ma‘no hosil bo‘lishining o‘ziga xos pragmatik xususiyatlarini o‘rgandi⁷⁴. “O‘zbek tilida nutq jarayonida metafora hosil bo‘lar ekan, bu hodisa hosila sememadagi pragmatik sema hosil bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, sher, burgut, lochin, ohu, qashqir leksemalarining shaxs bildiruvchi semema, la‘l, charos, bodom, gul leksemalarining kishi a‘zosini bildiruvchi semema hosil qilishi metafora bo‘lib, bunda hosila sememalar pragmatik ma‘noga ega bo‘ladi”⁷⁵.

G.Qobuljonova metafora yuzaga kelishidagi uch turni farqlab, ularning biri lingvistik asosda ekanligini yozadi:

1. Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasidagi umumiy o‘xshashlik.
2. Shu o‘xshashlikning aksi bo‘lgan mutanosib semalar.

⁶⁹ Античные теории языка и стиля. – М. –Л.,1936. –С 217.

⁷⁰ Античные теории языка и стиля. – М. –Л.,1936. –С 217.

⁷¹ Mahmudov N. Termin, obrazli so‘z va metafora.//O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2013-yil 4-son. 3-bet.

⁷² Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций. Л.,1940. С.146.

⁷³ Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy-lingvistik talqini: Filol.fan.nomz...diss. –Т.,2000. –B33.

⁷⁴ Tohirov Z. Metafora leksema-sememasining pragmatic semasi/O‘zbek tili va adabiyoti. -1983. №1. –B74-77.

⁷⁵ Tohirov Z. Ko‘rsatilgan asar. – B74.

3. Narsalardan birining nomi aynan nutq sharoiti uchun mavjud emasligi⁷⁶. Tadqiqotchi A.Xo‘jamqulov metaforalarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Antropomorfik metafora.
2. Zoomorfik metafora.
3. Fitomorfik metafora.
4. Kosmomorfik metaforalar.
5. Abiomorfik metafora.⁷⁷

Tadqiqotchi Nasrullayeva G. Yuqoridagi turkumlar inson semasi atrofida birlashishini hisobga olib, birinchi turkum bo‘lgan antropomorfik metaforalarni ham antroposentrik metaforalarning bir qismi deb baholaydi. Unga ko‘ra, “insonga xos xususiyatlarning, inson tana a‘zolarining, kiyim boshlari va ular qismlarining metaforik qo‘llanishidan tashqari (biz ularni shartli ravishda odam ___ borliq ko‘rinishidagi metafora deb ataymiz), borliq hodisalarining insonga nisbatan metaforik qo‘llanilishi ham keng uchraydi”⁷⁸.

Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologik yo‘nalishning rivoji sabab metaforaga qarashlar ham taraqqiy etdi. Ma‘lumki, ma‘no ko‘chish hodisasi, ayniqsa metafora, nutqni baddiylashtirish, emotsional-ekspressivlikni oshirish vositasi bo‘lib, o‘ziga xos kognitiv, milliy-madaniy komponentlarning faollashuvi natijasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda metodikaning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, kontekstual tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Metaforalarning yuzaga kelishi turli tuman bo‘lib, odamning turli hayvonlarga, jonli mavjudotlarga o‘xshatish barobarida jonli va jonsiz mavjudotlarning ham insonga qiyoslanishi, ya‘ni personifikatsiya hodisasini ham o‘z ichiga oladi. Professor M.Mirtojiyev: “Metaforaning bu ko‘rinishida ham so‘zning leksik ma‘no referenti hosila ma‘no referenti sirtqi belgi, harakat yoki holat xususiyati vazifasi kabilar doirasida o‘xshash bo‘laveradi. Ammo bu o‘xshashlik hosila ma‘no referentiga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi”, - deb ta‘kidlagan edi⁷⁹. D.Xudoyberganova qarashlariga ko‘ra, M.Mirtojiyevning mazkur fikrlari so‘z-metaforalarga oiddir. Ammo metaforalar faqat so‘zdan iborat bo‘lmay, ya‘ni tarkibidagi jummalarda o‘xshatish qurilmasi mavjud bo‘lgan metaforalar bilan birgalikda matn makrotuzilmasidan o‘xshatish munosabati anglashiluvchi matnlar ko‘rinishida ham uchraydi⁸⁰. Quyida shunday matnlarga guvoh bo‘lamiz:

1. **Asablar – dushman, raqib.** *Polvonlar birovi bo‘shroq bo‘lsa-ku, yaxshi, yiqilmaganiga shukur qilib yura beradi. Bordi-yu, ikkovi-da g‘oliblikka bab-barobar da‘vogar bo‘lsa-chi? Unda...asablar olishadi!*(TA,371)

2. **Tajriba – g‘olib.** *Yoshlik – yoshligini, ko‘pni ko‘rganlik- ko‘pni ko‘rganligini qildi! Tajriba! Tajriba zafar qozondi!*(TA, 376)

⁷⁶ Qobuljonova G. Ko‘rsatilgan asar. –B33.


⁷⁷ Xo‘jamqulov A. O‘zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to‘plami. Lingvist. 2-kitob. –T.:Akademnashr, 2011. 85-88-betlar.

⁷⁸ Nasrullayeva G.S. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti. Fil.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Farg‘ona, 2019. 16-bet.

⁷⁹ Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. –T.:Mumtoz so‘z, 2010.- B.98.

⁸⁰ Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Fil.fan.doktori ilmiy darajasini olish chun taqdimetilgan dissertatsiya. T.,2015. B.165.

3. **Gap – jonli mavjudot, odam.** *Mengboy kalning gapida jon bor. (TA, 389)/ Yomon gap raketadan oldin yuradi, yaxshi gap toshbaqadan keyin yuradi. (TA,487)*
4. **Tabassum – raqqos.** *Yuzlarida tabassum o‘ynadi. (TA, 392)*
5. **Quyosh – odam.** *Quyosh zarrin kokillarini yoyib ufqdan bosh ko‘tardi. (TA, 416)*
6. **Qish – odam.** *Qish qaridi. (TA,436)*
7. **Omad – odam.** *Omad deganlari salominida bermaydi (TA,459)*
8. **Sunbula – ayol.** *Sunbula bolaladi. (TA,625)*
9. **Mezon – inson.** *Mezonlar arg‘amchi soldi. (TA, 625)*
10. **Kun – ayol.** *Kun tug‘di. (TA, 602)*
11. **Kun – baland bo‘yli kishi.** *Kun terak bo‘yi bo‘ldi. (TA, 603)*




2-chizma. Tog‘ay Murod qissalarida personifikatsiyaga asoslangan “JONSIZ MAVJUDOT – BU JONLI MAVJUDOT” qolipidagi metaforalar.

Yuqoridagi misollarda yuzaga kelgan metaforik hodisalar matn referentlariga jonli holat baxsh etib, tasviriylikning yuzaga kelishini ta‘minlagan.

Metafora hodisaning yana bir turida personifikatsiya hodisasining aksini ko‘rish mumkin:

1. **Odamlar – bodomlar.** *Odamlar-u odamlar, tog‘da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! (TA, 336)*
2. **Odam – olov.** *Bo‘ri lovillab ketdi.(TA,350); Asarlari mukofot olsa-ku, kuyib-yonamiz. (TA,635)*
3. **Odam – mag‘zava.** – *Shu Boboqul bilan Mamat polvon juda lanj ekan, nima dedingiz, Bo‘ri polvon? – E, siz so‘ramang, men aytmayin! – dedi Bo‘ri olvon. Mag‘zava, lanj ham gapmi, mag‘zava! (TA, 352)*
4. **Odam – somon.** *Oshiq bo‘ldim, arpaning somoniga, mayda-yo, mayda-yo, O‘lim bersin qizlarning yomoniga, mayda-yo, mayda-yo!.. (TA,354)*
5. **Odam – po‘stak.** *...Oydinkim, po‘stakni qayoqqa otib yuborsa, yerga, albatta, teskarisi bilan borib tushadi. Karimni ham qayoqqa otib yuborsa, yerga teskarisi- ko‘kraklari bilan borib tushadi. El Karimni po‘stak deyishining boisi ana shunda. (TA, 355)*

6. **Odam(raqib) – tayyor osh.** *Bo‘ri polvon Ismoilni ko‘zga ilmay-ko‘zga ilmay davra aylandi. “Tayyor osh-ku”...deya o‘zidan ketdi.* (TA,368)
7. **Odam(polvon) – qo‘g‘irchoq.** *Qo‘g‘irchoq! Polvon emas bular, qo‘g‘irchoq.* (TA,387)
8. **Odam – yorug‘ yulduz.** *El tag‘in yorug‘ yulduzni – Bo‘ri polvonday bir zo‘rni qaradi!* (TA, 387); **Odam – xira yulduz.** *Yorug‘yulduz davralarga hamisha ko‘rk beradi, salobat beradi! Tevarakdagi rangsiz yulduzlar, mitti yulduzlar xiraligini bildirmaydi!*(TA,387)
9. **Odam – cho‘lpon.** *Birodarlar Momosuluv tushimda Cho‘lpon edi, hushimda Oy edi, qo‘ynimda Oftob bo‘ldi!* (TA,413)
10. **Odam – oy.** *Birodarlar Momosuluv tushimda Cho‘lpon edi, hushimda Oy edi, qo‘ynimda Oftob bo‘ldi!* (TA,413)
11. **Odam – oftob.** *Birodarlar Momosuluv tushimda Cho‘lpon edi, hushimda Oy edi, qo‘ynimda Oftob bo‘ldi!* (TA,413)
12. **Odam(hamsoya) – qosh, qoboq.** *...Bir kuni meni-da hasharga aytdi. O‘lmayinning kunidan bordim. Hamsoyachilik, qosh bor, qoboq bor-da.* (TA, 431)
13. **Odam – olov.** *Qadrimga kuydim.* (TA, 448)
14. **Odam – shar.** *Tars yorilib ketguday bo‘ldim.* (TA, 448)
15. **Odam – to‘nka.** *- Uh, savodsiz to‘nkalar! – dedi.* (TA,618)
16. **Odam – soya.** *Bir oynoma Pahlavon Daho G‘arb soyasi, dedi.* (TA,618)
17. **Odamlar (xalq) – buyum.** *Bu xalq hali voyaga yetmasdanoq pachoq bo‘lib qoladi.* (TA,619)
18. **Odam – bir pul.** *Shoir sifatida shoir, odam sifatida **bir pul!***(TA, 624)
19. **Odam – olatayoq.** *Tanqidchi – olatayoq. Melisalar qo‘lidagi olatayoq.* (TA,630)
20. **Odam – til.** *Men oltita “til” ushlab kelib edim!* (TA, 670).



3-chizma. Tog‘ay Murod qissalaridagi “JONLI PREDMET – BU JONSIZ PREDMET” qolipi asosida shakllangan metaforalar

Kuzatishlar natijasida ko‘rinadiki, Tog‘ay Murod tomonidan yaratilgan qissalarda qo‘llangan metaforalar yozuvchining individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko‘rsatish bilan birga o‘zbek millatiga mansub til egalarining badiiy tafakkuri, til birliklariga bo‘lgan munosabatini ham namoyon etadi. Yozuvchi asarlarida qo‘llangan metaforalar tilimizning beqiyof boyligidir. Metaforalar, asosan, belgi va harakat bildiruvchi so‘zlar semantikasidan anglashilib, o‘zida qiyoslanayotgan hodisa yoki predmet haqidagi tushunchani ifodalaydi. Masalan, *Yulduzlar g‘uj-g‘uj yondi*(TA,338); *Qadrdon ko‘zlar Bo‘ri polvon qalbida ko‘pirib toshayotgan qahrni so‘ndirib yubordi*(TA,359); *Boshimizda kun yondi*(TA,477); *Yuzlarim lovullab yondi*(TA,493) kabi jumalarda ko‘chma ma‘noda qo‘llangan fe‘l o‘z semantikasida matn tuzuvchining yulduzlar, qahr, kun, yuzlarni olovga o‘xshatganligini namoyon qiladi. Quyida shu kabi metaforalarga misollar keltiriladi.

- ❖ **Yurak – cho‘g‘don.** – *Omin, belingga quvvat, bilagingga kuch, yuragingga o‘t bersin, Oллоhu akbar! – deya duo qildi.* (TA,388)
- ❖ **Ko‘ngil – suv.** *Ko‘nglim tomchilashini qo‘ymaydi, men – kulishimni.* (TA,407)
- ❖ **Ko‘ngil – idish.** *Bo‘ri polvon ko‘ngli to‘lib-to‘lib keldi.* (TA,407)
- ❖ **Ko‘ngil – o‘lja.** *Men tinmas, Momosuluvning ko‘ngliga-da kiribman. Oshiqona-oshiqona qadamlar bosib, ko‘nglini ovlabman.* (TA,412)
- ❖ **Ko‘ngil – non.** *Ko‘nglim tub-tubida nimadir ... nimadir bir nima maydamayda ushoq bo‘lib bo‘lib ketdi.* (TA,471)
- ❖ **Ko‘ngil – makon.** *Odamning ko‘ngliga nimalar kelmaydi deysiz?* (TA,612)
- ❖ **Kal bosh – oftob.** *Ura-a-a, kun chiqdi.* (TA,410)
- ❖ **Qosh-ko‘z – kishan.** *Qosh-ko‘z yomon-da, odamni darrov asir etadi.* (TA,622)
- ❖ **Rang – buyum.** *Ko‘klam rangim sindi.* (TA,436)
- ❖ **Ot- qanot.** *Oti borning qanoti bor, - dedim. ...Ot bitdi- qanot bitdi.* (TA,414)
- ❖ **Ot – rubobiy musiqa.**
- ❖ **Ot – ko‘rkam surat.**
- ❖ **Ot –yaltirovchi narsa.** *Ot kavsh qaytarganda yonadi, ko‘zni qamashtiradi.* (TA,451)
- ❖ **Gap – oyoq kiyim.** *Beposhna gaplar ep bo‘lmaydi.* (TA,441)
- ❖ **Iymon- yonuvchi narsa.** *Iymoning kuygurlar! Bir mo‘min bandani o‘ldirasanlarmi! –dedim.* (TA,458)
- ❖ **Ko‘pkari- xastalik(salomatlik dushmani).** *Men bundan ko‘p yillar muqaddam aytganman, ko‘pkari eskilik sarqiti, salomatlik dushmani, hayot uchun xavfli deb!* (TA,480)
- ❖ **Dunyo – imorat.** *Keyin-keyin balsam, birov-da bu dunyoga ustun bo‘lolmas ekan...* (TA,483)

❖ **Tuxum – beshik.** *Daho papirosini burqsitib-burqsitib tortdi. Cho‘g‘ini polapon tumshug‘iga olib bordi. ...Daho moyakni otib yubordi. Polapon bir yon bo‘ldi, beshigi bir yon bo‘ldi.* (TA, 662)

Tahlillar natijasida aytishimiz mumkinki, kognitiv metaforalar so‘zlar orqali ifodalanganda, bu so‘zlar aksariyat hollarda fe‘l turkumiga oid bo‘ladi. Olima S.Muhamedovaga ko‘ra: “...harakat fe‘llari ham denotativ semalaridan tashqari emotsional semalarga ham ega. Ular ayan shu semalari asosida emotive valentlikka ega bo‘ladi. Ta‘kidlanganidek, semantik valentlikda so‘zlar lug‘aviy semalar asosida birikuvga kirishadi. Emotiv valentlikda ham so‘zlar semalar asosida bir-biri bilan bog‘lanadi, ammo ular orasida sezilarli farq mavjud:semantik valentlikda so‘zlar denotativ ma‘nolariga ko‘ra (aynan emotsional semalari asosida) birikadi”⁸¹.

Yuqoridagi misollardan ma‘lumki, metaforalar o‘zbek tili egalarining obrazli tafakkur tarzini ko‘rsatibgina qolmay, ularning til xotirasida saqlanuvchi yashirin o‘xshatishlar sifatida mavjud tizim ekanidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, o‘zbek tilida metafora leksik ma‘no taraqqiyot yo‘llaridan biri sifatida qaraladi va ko‘chimning o‘xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Sh. Rahmatullayev metafora ko‘chimning boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga e‘tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo.⁸²

“Atlasda o‘ziga loyiq rangi bo‘ldi, rangiga loyiq nomi bo‘ldi: Sakkiztepkilik, Marg‘ilon xonatlas, Samarqand oqshomi, Marg‘ilon mash‘ali, Farg‘ona yo‘llari, Layli, Guli, Shirin, Mahliqo, Shotikapak, Shodiqara, Qo‘chqorshoxi, Tiri kamon, Oltin kalit...

Bir yil to‘rt fasl bo‘ldi. Fasllar ranglarga mo‘l bo‘ldi: bahor – gulzor, yoz - o‘ftob, kuz – munis, qish – marmar...

Elimiz fasllarni matoga ko‘chirdi: Hamisha bahor, Bog‘u bo‘ston, Rayhon, Gul va Navro‘z, Gulnamozshom, Bargikaram...

Atlas - elimiz tarixi. Atlasda elimiz kechirmish hayitlari bor, fojialari bor.

Atlas – qo‘shiq, elimizning azaliy ham so‘ngsiz qo‘shig‘i!”(“Oydinda yurgan odamlar”, 24)

Ko‘rinadiki, asarda atlas matosi elimiz tarixi, xalqimizning azaliy ham so‘ngsiz qo‘shig‘i, deya ta‘riflangan. Ushbu matoning turlarining nomi ham metafora asosida shakllangan. Atlasni tarix yoxud qo‘shiq deb atash aynan metaforik-metonimiyaning yorqin namunasidir.

Lingvokulturologiyada ham kognitologiyadagi kabi konsept tushunchasi ahamiyatlidir. Konsept tushunchasi geshtalt, freym, ramz, obraz, sxema, ssenariy unsurlaridan tashki topgan yaxlit sistemadir. Geshtalt nemischa so‘z bo‘lib, fikriy jarayonni aks ettiruvchi yaklitlikni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu kategoriya V.Keler va K.Dunkerlar tomonidan dastlab psixologiya, keyinchalik bu fan orali tilshunoslikka kirib kelgan. Tilshunos olim J.Lakoff geshtalt kategoriyasi lingvistik yondashgan olim bo‘ldi.

⁸¹ Muhamedova S. O‘zbek tilida harakat fe‘llarining semantik va valentlik xususiyatlari:Filol.fan.d-ri dis.avto ref. – T.:O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2007. –B.31.

⁸² Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.

Geshtalt tushunchasining mohiyati shundan iboratki, matnni tashkil etuvchi har bir unurning matnga munosabati, matndagi voqelikning reallashuviga xizmati, matn tarkibidagi o‘z va ko‘chma ma’nolarni umumlashtirib, aql tasavvuri uchun aniq tushuncha ifodasidir.

- *Quloq sol, momosi, quloq sol. Qayerdandir odam ovozi kelyapti...*

Siyrak adirda yonboshlab yotmish bobomiz momomizga shunday dedilar.

Bobomiz og‘izlarini angraygannamo ochdilar. O‘ng quloqlarini yellar yelmish tarafga tutdilar.

Yellar ovozlarni yorqin olib kelmadilar.

Bobomiz o‘ng kaftlarini quloqlari sirtiga tutdilar. Yelpana qildilar. Nafas olmadilar. Bor vujudlarini berib quloq soldilar.

Bobomiz shndan-da bir nimani eshitmadilar. Chuqur tin oldilar.

Bobomiz oydinga tikildilar.

- *Manovi yoqdan shekilli...- dedilar. – O‘zi vaqting xushmi, momosi?*

Eson-omon yuribsanmi? To‘rt muchang butmi?..(Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”)

Momo so‘zi funksional metafora bo‘lib, “nevarali ayol kishi” ma’no semasiga ega. Yuqoridagi matnda momo so‘zi aslida nevara tugul, farzand ham ko‘rmagan ayolga turmush o‘rtog‘i Qoplon tomonidan aytilgan. Matndagi momo – “shartli”, hatto onalik baxtini tuymagan momodir. Uni boshqalar tomonidan ham shunday atalishi yoshi katta ayol kishini momo deb atash, garchi qarindoshlik ifodalaydigan semasi bo‘lsa-da, o‘zbek madaniyatida hurmatlash etnik stereotipining bir ko‘rinishidir. Momo, bobo, amaki, tog‘a, xola, amma kabi qarindoshlik atamalaridan qarindosh bo‘lmagan kishilarga nisbatan foydalanish zamirida evfemik metaforizatsiya hodisasi uchraydi.

Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi momosi va bobosi ifodalarning evfemik vosita ekanligi A.Omonturdiyevning ilmiy tadqiqatlarida quyidagicha talqin etiladi: “Oymomo va Qoplon to o‘lguncha bir-birlariga Bobosi va Momosi deb murojaat qilishadi. Yozuvchi ham qissada bosh qahramon nomlarini tilga olmaydi. Ularning otamiz, onamiz, so‘ngroq bobomiz, momomiz evfemik atamaları bilan nomlaydi: 1. *Onamiz otamiz yangi ro‘zg‘or qilyapti deb eshitdi. Onamiz g‘amgin bo‘ldi. Onamiz kuyib-kuyib ketdi. 2. Otamiz otlandi. Otamiz jamoa bilan yuzma-yuz bo‘ldi kabi*”⁸³.

Yuqoridagi misollardagi geshtaltda momosi evfemik metaforasi markaziy o‘rin tutgan bo‘lib, “hurmat” konseptini ifodalashga xizmat qilgan.

O‘zbek tilshunosligida komponent-semik tahlilga e’tibor rivojlana boshlagach, metafora tabiatini o‘rganishga ana shu tahlil usullarini tadbiq etishga intilishlar yuzaga kela boshladi. Shu xil yo‘nalish namoyondalaridan biri Z.Tohirov metaforani leksema sememasining pragmatik semasi sifatida baholaydi. Shuningdek, metafora va o‘xshatish orasidagi farqni (uslubda) shakldagina ko‘radi⁸⁴.

Har qanday badiiy vositalar lisoniy vositalar yordamida moddiylashadi. Shuning uchun ham metaforani lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish zarurdir. Ayniqsa,

⁸³ Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. –T.: Fan, 2006. –B.183.

⁸⁴ Тоҳиров З. Метафора лексема-семемасининг прагматик семаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. - № 1. – Б. 74-77; Шу муаллиф. Метафора семемаси прагматик семаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1984. № 4. – Б. 63-67.

metaforaga ham boshqa lingvistik hodisalar kabi sistemaviy yondashish, uning sistemaviy tabiatini ochish muhim vazifa sanaladi.

Yuqoridagilarni jamlab aytish mumkinki, metaforaning yuzaga kelishi quyidagi unsurlarni talab qiladi:

1. Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasida (keng ma'noda) o'xshashlik.
2. Shu o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lgan mutanosib semalar.
3. Narsalardan birining nomi nutqiy sharoit uchun yo'qligi.

Ana shu unsurlar ta'minlaganda, nomning metaforik ko'chishi yuzaga keladi. Demak, metafora – obyektiv (yoki subyektiv) borliqdagi o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lmish mutanosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi o'rnida qo'llanishi. Metaforani nom ko'chishining boshqa usullaridan farqlovchi —obyektiv va subyektiv o'xshashlikka asoslanish belgisi bir qarashda juda yaqqoldek tuyulsa-da, uning nazar mohiyatiga nazar tashlash bu ancha murakkab hodisa ekanligini ko'rsatadi. Bu ikki omil bilan belgilanadi.

1. Metaforada ko'chimning ko'chish bazasi doim ham to'la, aniq bo'lavermaydi. Masalan, *ilkis qiliqlar* (Oydinda yurgan odamlar”, 12-bet) ko'chayotgan so'z —ilkis aynan qaysi so'z o'rnida kelyapti – noaniq.

2. O'xshatish subyektiv hosil qilinganda esa, hosil qiluvchidan boshqa shaxs uchun o'xshashlikni tiklash qiyin kechadi va hatto umuman mumkin bo'lmaydi. Masalan, Tog'ay Murod asarda sukunatni *azadan-da qayg'uli* (Oydinda yurgan odamlar, 46-bet) deb yozadi. Diskursdan notanish shaxs bu metafora asosini topa olmaydi va bunday atash asosida nima yotganini farqlamaydi.

Demak, metafora asosida turuvchi o'xshatish metafora tabiatiga ta'sir o'tkazar ekan. Shuning uchun ham metafora – o'xshatish ochiq bo'lganda, tushunarli, o'xshatish hosil qilinganda tushunarsiz, o'xshatish yo'qolganda, sezilarsiz bo'ladi.

O'xshashlikning yo'qolishi metaforik qo'llanuvchi so'zlarni oddiy nomlarga aylantiradi. Qadim Rimda biror mansabga saylanayotgan shaxs saylovchilar oldida oq kiyimda namoyon bo'lgan va kandidat deb atalgan. Hozirda kandidat biror mansab (daraja, unvon) ga da'vogar shaxsning, u qanday rangli kiyimda bo'lishidan qat'iy nazar, nomi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, metafora hosil bo'lishi uchun 3 ta asos talab etilar ekan. Metaforaning o'xshatish asosiga qurilganligini hisobga olib, bu jihatni quyidagicha belgilash mumkin:

- tema – qiyoslanayotgan narsa,
- ifoda vositasi – temaga qiyos bo'lgan narsa,
- qiyos uchun asos – temaga ham, ifoda vositasiga ham tegishli bo'lgan umumiy belgi.

Xulosa va takliflar. 1. O'xshatish asosida metaforizatsiya hodisasining yuzaga kelishi bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni oson idrok etish imkonini beradi.

2. Metaforaning yuzaga kelishi quyidagi unsurlarni talab qiladi:
 - Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasida (keng ma'noda) o'xshashlik.
 - Shu o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lgan mutanosib semalar.
 - Narsalardan birining nomi nutqiy sharoit uchun yo'qligi.

Ana shu unsurlar ta'minlaganda, nomning metaforik ko'chishi yuzaga keladi.

3. Tog‘ay Murod tomonidan yaratilgan qissalarda qo‘llangan metaforalar yozuvchining individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko‘rsatish bilan birga o‘zbek millatiga mansub til egalarining badiiy tafakkuri, til birliklariga bo‘lgan munosabatini ham namoyon etadi. Yozuvchi asarlarida qo‘llangan metaforalar tilimizning beqiyof boyligidir. Metaforalar, asosan, belgi va harakat bildiruvchi so‘zlar semantikasidan anglashilib, o‘zida qiyoslanayotgan hodisa yoki predmet haqidagi tushunchani ifodalaydi.

Taklif sifatida shuni aytib o‘tish kerakki, ijodkor asarlarida qo‘llangan lingvokulturemalar, shu jumladan metaforalar ham nafaqat tilimiz, balki millatimiz tarixi, buguni va kelajagi uchun muhimligini inobatga olib, tilshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri lingvomadaniy birliklar lug‘atini yaratish o‘z tadqiqini kutayotgan vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Античные теории языка и стиля. – М. –Л.,1936.
2. Аристотель. Риторика / Античные риторики. –М.: МГУ, 1978.
3. Арутюнова Н.Д. Метафора дискурс / Теория метафоры. –М.: Прогресс, 1990.
4. Begmatov E. O‘zbek ismlari. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.
5. Erkeyev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. –T.: “Ma’naviyat, 2009.
6. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. –М., 1990
7. Мамадалиев М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол.фан. номз. дисс... –Тошкент: 1998.
8. Mahmudov N. Termin, obrazli so‘z va metafora.//O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2013-yil 4-son.
9. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010
10. Nasrullayeva G.S. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti. Fil.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Farg‘ona, 2019.
11. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. –T.: Fan, 2006. –B.183.
12. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy-lingvistik talqini: Filol.fan.nomz...diss. –T.,2000.
- 13 Tohirov Z. Metafora leksema-sememasining pragmatic semasi/O‘zbek tili va adabiyoti. -1983. №1.
14. Вико Дж. Основания новой науки об общей природе наций. Л.,1940.
15. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.



**ALLITERATSIYA POETIK INDIVIDUALLIKNI
BELGILOVCHI VOSITA SIFATIDA
(Mirtemir she'riyati misolida)**



Gulchehra Nazarovna BOZOROVA,
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti akademik litseyi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoir Mirtemir she'rlarida fonetik birliklardan, xususan alliteratsiyadan, uslub talabiga mos holda foydalanganligi misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Fonografik vosita, poetik individuallik, alliteratsiya, uslub talabi, ma'naviy-uslubiy xususiyatlari, estetik qimmat, obraz.

Аннотация. В данной статье описываются стихотворения поэта Миртемира на основе примеров фонетических единиц, особенно аллитерации, в соответствии с требованиями стиля.

Ключевые слова. Фонографическое средство, поэтическая индивидуальность, аллитерация, стилевые требования, смыслово-стилевые характеристики, эстетическая ценность, образ.

Abstract. This article describes the poet Mirtemir's poems on the basis of examples of phonetic units, especially alliteration, in accordance with the requirements of style.

Keywords. Phonographic tool, poetic individuality, alliteration, style requirement, meaning-style characteristics, aesthetic value, image.

Kirish. Ma'lumki, har bir ijodkor o'ziga xos iste'dod sohibidir. Ular inson ruhiyati manzaralarini faqat o'ziga xos, boshqlarga o'xshamagan tarzda kashf etadilar. Chunki, har bir ijodkor shaxsning o'z ruhiy olami, e'tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlari turlicha bo'ladi.

She'riyat so'z san'atining boshqa turlariga qaraganda o'zining nafisligi bilan, his-tuyg'ularning jo'shqinligi, obrazlilikning serqatlamliligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Zero, she'r inson qalbining tub-tubidan otilib chiqayotgan tuyg'ular tyg'yonlari, voqelikka bo'lgan ehtirosli va murosasiz munosabat ifodasidir. Shu bois she'riyat inson qalbini butun ziddiyatlari bilan, butun po'rtanalari, isyonlari bilan aks ettirishga qodir bo'lgan ilohiy qudratga ega kuchdir. Shunga ko'ra she'riyat olami, she'r hodisasi, uning o'ziga xos tabiati tilshunoslar, adabiyotshunoslar, faylasuflar, nafasatshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy asar tilini o'rganish sohasida birgina o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Shu kunga qadar bu muammoga oid bir necha nomzodlik va doktorlik (Y.Is'hoqov [1], G.Mamajonova [5],

S.Karimov [3]) dissertatsiyalari yoqlandi, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalar nashr etildi. Lekin sevimli shoirimiz Mirtemir ijodining tili va uslubi keng planda o'rganilganicha yo'q. 2012-yil Abdushukur Shofqorov "Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan yoqladi. Bunday ishlar kelgusida o'zbek badiiy nutq stilistikasini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mirtemirning sodda, samimiy va xalqona ohang bilan yo'g'rilgan she'rlarida ham fonetik xususiyatlar asosiy tasviriy vosita vazifasini o'taydi. Fonetik birliklarni bilish va ularni mahorat bilan qo'llash ijodkorlar uchun ahamiyatlidir. Ular yaratgan ijod mahsullarida fonetik birliklarning xususiyatlarini qo'llasalar, tinglovchilarning e'tiborini tez jalb qiladilar. Bu bilan matnning o'qishligini ta'minlaydilar va o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishadilar. Sevimli shoirimiz o'z she'rlarida o'rnini topib, fonetik birliklardan uslub talabiga mos holda foydalangan, shuning uchun asarlari betakror, ta'sirchan, ohangdor.

Til faqat kishilar o'rtasida aloqa vosita quroli emas, balki uning hayotiy vazifalari ham juda ko'p. Badiiy ijodda shu lisoniy boylıkdan foydalanish barobarida uni rivojlantiradi va bizga noma'lum bo'lgan imkoniyatlarini ochadi.

So'zning obrazga aylanishi oddiygina hodisa yoki jarayon emas. Bu – inson badiiy tafakkurning murakkab chiziqlaridan o'tib, voqelanadigan og'ir jarayondir. Buning uchun so'z estetik qimmatga ega bo'lgan matnda bo'lishi lozim. Faqat estetik qimmatga molik matngina so'zni obrazga aylantiradi: u biror holat, harakat yoki munosabat bajaruvchi estetik materialga aylanadi.

Buni qalban his etgan ulkan iste'dod egasi Mirtemir butun ijodiyfaoliyati jarayonida har doim bunga amal qildi.

Mirtemir o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatidagi realistik yo'nalishni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan, hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixidan milliy shoir sifatida mustahkam o'rin egallagan ijodkor.

Tahlil va natijalar. Iste'dodli shoirimiz Mirtemirning ijodiy merosini o'rganish va tadqiq qilish jarayonida uning barcha til birliklaridan mohirona foydalangan holda badiiy barkamollikka, g'oyaviy yetuklikka erishganligining guvohi bo'lamiz. Ohangdorlikni kuchaytirishda, ta'sirchanlikni oshirishda, tasvir tiniqligini ta'minlashda fonografik vositalar ham uslubiy vosita bo'lib xizmat qilganligini ochib berishga harakat qilamiz. Fonetik takrorlar nutq tovushlarining takrori asosida yuzaga keladi". Ammo, shuni ham aytish kerakki, alohida nutq tovushlari yoki fonetik usullar o'z holicha konkret bir mazmuni ifodalamaydi. Ular badiiy nutqning boshqa bir unsurlari (hijo, turoq, rukn, turkum, misra, bayt, poetik figuralar...) bilan bir butunlikni tashkil etgandagina konkret ma'no kasb etadi, she'rga emotsionallik bag'ishlaydi" [2].

Badiiy san'atlar orasida ayrimlari bevosita nutq tovushlarining takrorlanishiga asoslanadi. Ularning badiiy nutqdagi ahamiyati, xususan, she'riy asarlarda ohangdoshlikni oshirishga xizmat qilishi nutq tovushlarining takrori asosida yuzaga keladi. She'rning emotsionalligi vazn, ritm, qofiya, poetik figuralar, badiiy san'atlar bilan birga poetik fonetikaga ham bog'liq bo'ladi. Mana shunday takrorlar sirasiga *alliteratsiya*, *assonans*, *geminatsiya* kabi fonetik vositalarni kiritishimiz mumkin. Bunday uslubiy vositalarning har birida nutq tovushlarining o'ziga xos takrori kuzatiladiki, ular

ma'lum bir uslubiy vazifa bajarishga va she'riy asarlarning badiiyatini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida barcha til birliklarining, jumladan, fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'rda o'ziga xos ohangdorlik bo'ladi. Bu ohangdorlikda nutq tovushlari uslubiy vosita vazifasini o'taydi. She'rning ohangdorligini va ta'sirchanligini ta'minlashda fonetik vositalar, ayniqsa, alliteratsiya alohida ahamiyat kasb etadi.

Alliteratsiya. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta'sirchanligini ta'minlashda alliteratsiyaning o'rnini beqiyosdir. She'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishiga alliteratsiya deyiladi [3]. A.Haydarov she'riyatda alliteratsiya orqali obrazlilik va ta'sirchanlik bo'rttirilib, uslubiy ravonlik, so'zlarning ohangdorligi vujudga kelishini aytadi va uning gorizantal yoki vertikal yo'nalishda bo'lishini ta'kidlaydi [4]. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslik(“ilmi bade”) da alliteratsiya “tavzi san'ati” deb yuritilgan.

Mirtemir she'rlarida alliteratsiya misrada biror tovush takrori, bandda biror tovushning to'liq ohangdoshligi, ohangdosh so'zlarni yonma-yon qo'llash natijasida, shuningdek, ma'lum bir band misralarining bir xil tovush bilan boshlanishi yoki misralarning har birida alohida tovush takrorlanish asosida yuzaga kelgan. Binobarin, shoir she'rlarida ma'lum bir band misralari yoki misradagi so'zlar bir xil tovush bilan tugashi ko'plab uchraydi.

Alliteratsiyaning yorqin namunasi sifatida Mirtemirning mashhur “Toshbu” she'rining ilk satrlaridayoq duch kelamiz. Unda **ch** va **k** tovushi vositasida ohangdorlik yuzaga chiqqan, natijada she'rda badiiylik yanada yuqori pog'onaga kotarilgan:

*Chayirsan, **chechansan, chuchuksan** so'zsiz,
Ertakday ezgusan, buloq yanglig' pok.
Ko'z ololmas hatto ilg'asa ko'zsiz,
Holbuki, munglug'san. G'amdan ko'ksing chok.*

Mirtemirning sho'x, o'ynoqi she'rlaridan biri „Qarqaralik“da **q** tovushi vositasida alliteratsiyaning betakror namunasi yaratgan:

*Qarqaralik, qaydin kelding qoshimga,
Qaydagi savdoni solding boshimga.
Qaydagi savdoni solsang boshimga,
Qota ko'rma qatron mening oshimga!
Qosh ustiga qo'ndiribsan qarqara,
Qora soching qora tunda sharshara,
To'lqinida koshki o'zim cho'milsam...
Shaydoyingman gar qarama, gar qara.*

Satrlar garchand qarqaralik qizga shaydollik hislari bilan to'yingandek tuyulsa-da, aslida ushbu she'r uchun bu hislar emas, balki „qarqara“ bilan bog'liq so'z o'yinlarining (alliteratsiya) misralardagi tovlanib turishi muhimdir.

Shoirning “Yovga ters qaragan musulmon emas!..” she'rida esa **l** tovushi ohangdorlikni, musiqiylikni ta'minlashga vosita vazifasini o'tagan.

*Qilichin tashladi beklar nihoyat,
bosildi tulporlar,
tig'lar suroni,
urhoga o'rgangan tillarda oyat
Turkiylar tanida komil xudoni.
Qilichlar zangladi....
falokat hushyor,
turkiylar quvvatin berdi yerlarga.
Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov
komillik qidirgan jasur erlarga.*

*Ilvasin yigitlar, bobur yigitlar
sajdaga bosh qo'ydi, yovga ters qarab,
g'ullarni kemirib yig'ladi itlar
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab...*

Adibning “Baliq ovi” she’rida ham **b** tovushi vositasida alliteratsiyaning go‘zal namunasini uchratamiz:

*Bizning qishloq tog' bag'rida,
Tog' bag'rida - bog' bag'rida,*

Mirtemirning “El yurt maqtovi” she’rida **m** tovushi takrori bilan bog‘liq quyidagi misralarni ham keltirishimiz mumkin:

*Saratonim, sovurim, chillam,
Bog'-u rog'im, tutzorim pillam.
Qo'rgoshimim, tagi mo'l tillam,
Ipagimsan, qorako'limsan.*

Mirtemir she’riyatida alliteratsiyaning yana bir ko‘rinishi borki, bu hodisani she’riyatda juda kam uchratamiz. Bunda band misralarining har birida alohida tovush ohangdoshligi hosil qilingan. Mazkur she’rdagi takror tovushlar ohangdoshligi she’rning umumiy mazmuniga mos ravishda shakllangan. Shoir yurtning sifati va xususiyatlariga, boyligiga, farovonligiga o‘quvchi diqqatini tortish, ularni sanab o‘tish, va urg‘u berish maqsadida alliteratsiyaga murojaat qilgan. She’rda yurtimiz boyligi birma-bir tilga olingan. Lirik qahramon ular bilan faxrlangan. Bu faxrlanish hissi aynan alliteratsiya hodisasi vositasida obrazli, badiiy tasvirlangan. Misralardagi takrorlangan m tovushi o‘zi birikib kelgan so‘zlar oxirini yopgan, fikrning qat’iyligini xulosalagandek tuyuladi. Shuningdek, m tovushining I shaxs egalik qo‘shimchasi tarkibida mavjudligi shoirning ona yurtiga chinakam mehrini, bu mehrni qayta-qayta takrorlanishi shoirning sadoqati, iqrorini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shoirning “Baxshiyona to‘rtliklar” turkumiga kiruvchi ushbu “Kuning kelipti-da...” to‘rtligining birinchi misrasida **sh**, ikkinchi misrasida **o‘**, uchinchi misrasida **q**, to‘rtinchi misrasida **s** va **z** tovushlari takrorlanishida tasvirning o‘ziga xosligi, va folklor tili xususiyatlarining sezilarli ravishda ta’siri kuzatiladi...

*Shopirib-shopirib Shodmonjonga suz,
O'pirib-o'pirib O'rmonjonga suz.
Qarama hech kimning qosh-qovog'iga,*

Sanamay sakkiz de, o‘ylamay to‘qqiz.

Mirtemir ijodida bulardan tashqari yana juda ko‘p tovushlar takrori qalamga olingan. Mirtemirning “Onaginam” she‘ridan keltirilgan ushbu nutqiy parchada ham alliteratsiyaning noodatiy ko‘rinishini uchramiz. Har bir misrada ma‘lum bir undosh tovushning takrorlanishi she‘r ohangdorligini oshirgan. Misralardagi **t, s, ch, n** tovushlari vositasida alliteratsiyaning betakror namunasi yaratilgan:

Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g‘ashlik.

Bedavo sizloviqday sizlatguvchi – g‘ashlik.

Jigarimni qiymalab ahyon-ahyon,

***Chuch**varaga **ch**ekkuvchi – g‘ashlik.*

*Meni o‘ylab **not**avon va **nim**jon,*

*G‘ashimga **te**kkuvchi – g‘ashlik.*

U hissiyotlar dunyosi juda boy, hassos shoir bo‘lgani, xalqimiz turmushi, urf-odatlarini yaxshi bilgani uchun har qanday mavzuda nihoyatda ehtirosli, juda shirali, boy badiiy til bilan mavzuning mohiyatini ochib bera olar edi. Quyma, mag‘zi to‘q satrlar, bir o‘qishdayoq xotirada o‘rnashib qoladigan qofiyalar, hamohang tovushlar shoir Mirtemirning naqadar katta iste‘dod egasi bo‘lganidan dalolat beradi. Quyidagi misralarda **j** undoshi vositasida alliteratsiya san‘ati hosil qilingan. Bu kabi tasvirlar faqat Mirtemir ijodigagina xos xususiyat hisoblanadi:

Jindak zehnim, jindak she‘rim,

Jindak g‘azalxonligim,

Onalik mehri to‘ymagan mehrim,

Jindak yaxshilik va yomonligim,

Meni odam sanagan elimga baxshida, jafodiyda

Onaginam!

Mirtemirning mashhur “Toshbu” she‘rida esa, **s** tovushi vositasida alliteratsiyaning jozibali ko‘rinishini ko‘rishimiz mumkin:

Seni sal xo‘rlagan sira insonmas,

Ko‘zlarimga g‘urur va baxtdan yosh bu.

Sensiz O‘zbekiston — O‘zbekistonmas,

Sensiz keng jahon ham sira jahonmas,

Toshbu!

Shoir she‘riyatida fonetik usul sifatida alliteratsiyaning turli ko‘rinishlarda uchraganligining guvohi bo‘ldik. Undosh tovushlarning takrorlanishi badiiy nutqda tovushlarning talaffuzda yaqin va uyg‘unligini yuzaga keltirilgan, bu esa tasvirlanayotgan narsa-hodisalarga o‘quvchining diqqatini jalb qilish va misralarning badiiy-estetik ta‘sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Yuqoridagi misralarda ko‘rib o‘tganimizdek, Mirtemir she‘rlarida, asosan, **s, ch, m, sh, j** kabi undosh tovushlar takror qo‘llanib, ma‘lum uslubiy vazifa bajarib kelgan.

“Yashil yaproqlar” she‘rida mohirona qo‘llanilgan tasviriy detallar **s** undosh tovushi yordamida alliteratsiya hosil qilingan, bu o‘quvchi qalbiga o‘ziga xos iliq hislar olib kirishga ko‘maklashgan:

Salqin, silliq, so‘lim bahor ertasi,

Ufq bo‘ylab yonar shafaq bayroqlar.

*Yasharib tovlanar barra yaproqlar –
Qo‘shiqday taralar qushlar nag‘masi.
Dalada, sahroda, soy sirtlarida
Quyosh kokillari yotur parishon.
Poyonsiz ekinzor beradi nishon
Uzoq ufqlarda, ko‘k chetlarida*

Xulosa va takliflar. Xalqimizning suyuqli shoiri Mirtemir she‘riyati o‘zining xalqonaligi, betakror jozibasi, badiiy barkamolligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning she‘rlarini kitobxon shunchaki o‘qimaydi. Shoir she‘rlarining tili sodda, beg‘ubor. Iste‘dodli ijodkor til birliklarining har biridan juda ustalik bilan foydalanadi. Shoir she‘rlarini tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga alohida e‘tiborni qaratish lozim. Bu vositalar shoir she‘rlariga o‘ziga xos jozibador ohang baxsh etganligini ko‘ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizov Q. Mirtemir. Adabiy portret.-T.: 1969.
2. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san‘atlar.-T.:TDPU, 2001.114-b
3. Yo‘ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi:- T.:Fan, 2007.-.97-b.
4. Haydarov A. Badiiy matnning fonostilistik vositalari: Filol. Fanlari nomzodi...diss. Aftoref.- T.,2008. –11-b
5. Is‘hoqov Yo. So‘z san‘ati so‘zligi.-T.:Zarqalam, 2006.128-b.
6. Mamajonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o‘zbek she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi:Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref.-T,2004.-23-b.
7. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari.-Samarqand: SamDU, 1994.54-b.
8. Mirtemirning Asarlar (4 tomlik).-T.: “Adabiyot va san‘at”, 1980-83.
9. Mirtemir. “Qoraqalpoq daftari”, “Surat”. // Mirtemir. She‘rlari.-T.: O‘zadabiynashr, 1961.
10. Jalilov T. Mirtemir mahorati. -T.: 1980.
11. Xalilov T. Mirtemir mahorati.-T.: “Adabiyot va san‘at”, 1980.
12. Xudoyberganov N. Mirtemir ijodiga oid qaydlar. // Adabiyotimizning yarim asri.-T.: “Adabiyot va san‘at”, 1975.



VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINOLOGIYASI



Maxammadov Bobir Isan o'g'li,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti.v.b,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola Vindovs operatsion tizimi terminologiyasi va uning o'zbek tiliga moslashuviga bag'ishlanadi. Unda tizimda qo'llaniladigan asosiy atamalar tahlil qilinadi, ularning lingvistik va terminologik xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida terminlarning o'zbek tilidagi muqobillari, ularning qo'llanilishi, talaffuz va yozilishdagi o'zgarishlari, hamda terminlarning qabul qilinishi bo'yicha xulosalar beriladi. Tadqiqot natijalari Vindovs tizimining lingvistik jihatlarini tahlil qilishga hamda texnik terminlarni o'zbek tiliga moslash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi..

Kalit so'zlar: Vindovs operatsion tizimi, terminologiya, texnik terminlar, o'zbek tili, mahalliyashtirish, tarjima.

Аннотация. Статья посвящена терминологии операционной системы Windows и её адаптации к узбекскому языку. В ней анализируются основные термины, используемые в системе, их лингвистические и терминологические особенности. Исследование рассматривает узбекские эквиваленты терминов, их употребление, произношение и орфографические изменения. В заключении представлены выводы о принятии и переводе терминов. Результаты исследования направлены на углубление понимания лингвистических аспектов системы Windows и совершенствование процесса адаптации технических терминов на узбекский язык.

Ключевые слова. Операционная система Windows, терминология, технические термины, узбекский язык, локализация, перевод.

Annotation. This article focuses on the terminology of the Windows operating system and its adaptation to the Uzbek language. It analyzes the main terms used in the system, examining their linguistic and terminological features. The study explores Uzbek equivalents of the terms, their usage, pronunciation, and orthographic changes. Conclusions are drawn regarding the adoption and translation of terms. The results aim to enhance linguistic understanding of the Windows system and improve the adaptation process of technical terms into Uzbek.

Keywords. Windows operating system, terminology, technical terms, Uzbek language, localization, translation

Zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta'minotning rivojlanishi bilan kompyuter terminologiyasining o'zbek tiliga moslashuvi dolzarb masalaga aylandi. Vindovs operatsion tizimi dunyodagi eng ommabop tizimlardan biri bo'lib, uning interfeysidagi terminologiya turli tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Lekin, ba'zi atamalar bevosita qabul qilinib, tarjimasiz ishlatilmoqda. Ushbu maqolada Vindovs tizimining asosiy terminlari va ularning o'zbek tilida ishlatilishiga e'tibor qaratiladi.

Vindovs terminologiyasining tarjimasiz va moslashuvi masalasida ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" asarida o'zbek tilida ishlatilayotgan yangi terminlarning kelib chiqishi va moslashuvi tahlil qilingan. Bundan tashqari, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mutaxassislari tomonidan texnik terminologiya bo'yicha ilmiy maqolalar tayyorlangan. Shuningdek, zamonaviy texnologiya va dasturiy ta'minot sohasida "kompyuter lingvistikasi" bo'yicha tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar Vindovs terminlarini lingvistik va funksional jihatdan o'rganishda asos bo'lib xizmat qildi.

Maqolada kompyuter lingvistikasi va terminologiya tahlili usullari qo'llanildi. Tadqiqotda Vindovs operatsion tizimining interfeysidagi asosiy terminlar o'rganilib, ularning o'zbek tilida ishlatilish darajasi va tarjima usullari tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarning etimologik kelib chiqishi va texnik ko'nikmalarga mosligi bo'yicha tahlillar o'tkazildi. Metodologiyada terminlarni morfologik va semantik jihatdan tahlil qilish, qiyosiy usul yordamida ularning boshqa tillarga tarjimasiz bilan solishtirish qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari quyidagicha umumlashtirildi:

1. **Terminlarning qabul qilinishi:** Ko'pgina atamalar o'zbek tilida bevosita qabul qilingan, masalan, *fayl*, *papka*, *display*. Bu atamalar talaffuzga moslashtirilgan, ammo ma'no o'zgarishiga uchramagan.
2. **Mahalliyashtirish masalalari:** Ayrim terminlar o'zbekcha ekvivalentlariga ega, masalan, *nastroyka* uchun "sozlash", *parol* uchun "kalit so'z".
3. **Yangi terminlarning qabul qilinishi:** Vindovs interfeysidagi yangi atamalar, masalan, *clipboard* va *shortcut*, ko'pincha tarjimasiz qabul qilinadi yoki mahalliyashtirish jarayonida qisqartiriladi.
4. **Fonetika va yozuvdagi o'zgarishlar:** Ba'zi inglizcha atamalar o'zbek tilida talaffuz va yozilish jihatidan moslashtiriladi, masalan, *kompyuter* (computer)

Vindovs operatsion tizimi terminologiyasi global texnik tilning bir qismidir va uning o'zbek tiliga moslashtirilishi qator lingvistik va madaniy muammolarni keltirib chiqaradi. Quyida Vindovs tizimidagi asosiy terminlarning tahlili va sharhi keltiriladi:

1. Fayl (File)

Sharh: Ushbu termin o'zbek tiliga bevosita "fayl" shaklida qabul qilingan. U dasturiy ta'minotda ma'lumotlarni saqlash birligi sifatida ishlatiladi.

Izoh: O'zbek tili foydalanuvchilari uchun atama talaffuz va yozuv jihatidan

moslashtirilgan. Ushbu soʻzning ekvivalenti sifatida "hujjat" yoki "ma'lumot qismi" ishlatilishi mumkin boʻlsa-da, "fayl" keng tarqalgan

2. Papka (Folder)

Sharh: "Papka" rus tili orqali kirib kelgan va hozirda ham keng qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida "papka"ning muqobili sifatida "quti" yoki "yigʻma" taklif etilgan, ammo ulardan foydalanish cheklangan. **Izoh:** Koʻpchilik foydalanuvchilar "papka" soʻzini original shaklda qabul qilgan va bu atama mahalliyashtirishda umumiy foydalanishda qolgan.

3. Display (Display)

Sharh: Display terminining oʻzbek tilidagi varianti "ekran" boʻlishiga qaramasdan, texnik sohada "display" koʻproq ishlatiladi. **Izoh:** "Display" va "ekran"ning qoʻllanilishi kontekstga bogʻliq boʻlib, texnik jihatdan "display" soʻzi oʻz anʼanaviyligini saqlab qolmoqda.

4. Parol (Password)

Sharh: "Parol" soʻzi rus tili orqali kirib kelgan va keng tarqalgan. Uning ekvivalenti sifatida "kalit soʻz" ishlatilmoqda, lekin "parol" texnik doiralarda ustunlik qiladi. **Izoh:** "Kalit soʻz" milliyashtirilgan variant sifatida taklif qilingan boʻlsa-da, "parol" texnologik termin sifatida qabul qilingan.

5. Sozlash (Settings)

Sharh: "Sozlash" atamasi Windows tizimida "Settings" uchun oʻzbekcha moslama sifatida ishlatiladi. Bu termin foydalanuvchilar orasida tushunarli va qulay. **Izoh:** Mahalliyashtirishda muvaffaqiyatli misollardan biri boʻlib, bu atama oʻzbek tilidagi interfeysda keng qoʻllaniladi.

6. Klaviatura (Keyboard)

Sharh: "Klaviatura" soʻzi rus tilidan kirgan boʻlib, oʻzbek tilida ham shu shaklda qabul qilingan. Uning ekvivalenti sifatida "tugmachalar yigʻindisi" yoki "klavishlar taxtasi" ishlatilishi mumkin edi, ammo amaliyotda ishlatilmaydi. **Izoh:** Foydalanuvchilar ushbu termini oddiy texnik atama sifatida qabul qilgan.

7. Clipboard (Bufer)

Sharh: Windows tizimida *clipboard* uchun oʻzbekcha toʻgʻridan-toʻgʻri muqobil yoʻq, ammo baʼzan bufer atamasi ishlatiladi. **Izoh:** Terminologiyani bir xil qilish uchun mahalliyashtirishda aniqlik talab etiladi.

8. Shortcut (Tezkor tugma)

Sharh: "Shortcut" uchun oʻzbekcha "tezkor tugma" yoki "qisqa yoʻl" atamalari ishlatilgan boʻlsa-da, foydalanuvchilar koʻpincha inglizcha versiyasini ishlatadi. **Izoh:** Bu atamani standartlashtirish oʻzbek foydalanuvchilari uchun tushunishni osonlashtiradi.

Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida windows operatsion tizimi dasturlari yaratilishi jadal surʼatlarda kechmoqda. Mazkur jarayon windows operatsion tizimi terminologiyasiga oid yangi tushunchalarning dunyo tillariga kirib kelishiga sabab boʻlmoqda. Bu holat, oʻz navbatida, tizimda ishlatilgan oʻzbek, ingliz tilidagi terminlarning lingvistik xususiyatlarini oʻrganish, yaʼni, semantik va strukturaviy

jihaddan tahlil qilish hamda leksikografik xususiyatlarini aniqlash, tarjima uslublarini takomillashtirish, uch tilli lugʻatlarni yaratish kabi muhim topshiriqlarni kun tartibiga qoʻyadi.

Jahon tilshunosligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminlarini tartibga olish ishlari bir til terminlari doirasida ham, bir necha til terminlari doirasida ham amalga oshirilgan, shu bilan bir qatorda, ayni soha terminlari muayyan darajada tartibga solinib, koʻproq shu sohaga eʼtibor qaratilgan boʻlsa-da, lekin mobil ilovalarning terminologiyasiga qiziqish bildirilmagan. Bunga esa ingliz leksik-semantikasida terminlarning faqatgina maʼnosi oʻzgarishi orqali ilovalarda qoʻllanilgani sabab boʻlgan.

Milliy tilshunoslikda ham windows operatsion tizimi terminlarining lingvistik xususiyatlari (leksikografik, semantik va tarjimaviy) haligacha aniqlanmagan va soha terminlarini tartibga solish mezonlari ishlab chiqilmagan. Shunga koʻra, windows operatsion tizimi terminlarining mavzuviy guruhlarini aniqlash, leksik-semantik xususiyatlarini asoslash, terminlarning strukturaviy modellarini yoritish, oʻzlashma va baynalminal terminlarning milliy tillarda barqarorlashuv jarayonlarini tadqiq qilish, tarjima qilish uslublarini takomillashtirish, terminlardagi sinonimik, antonimik va variantlilik holatlarini tartibga solish hamda maqbullarini qoʻllash yuzasidan takliflar berish, leksikografik izohlarini koʻpaytirish, tarjima lugʻatlarini tuzish kabi masalalarning hal etilishi sifatli mobil ilovalar yaratilishi bilan birga, foydalanuvchilarga muayyan darajada yengillik yaratilishiga olib keladi.

Mazkur maqolada oʻzbek tilshunos olimlari R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova tomonidan yozilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” oʻquv qoʻllanmasi, B.Mengliyev tomonidan yozilgan “Hozirgi oʻzbek tili” darslik va til korpuslarini yaratish boʻyicha maqolalari, M.Umarxoʻjayevning “Umumiy tilshunoslik” nomli oʻquv qoʻllanmalari va M.Umarxoʻjayev tashabbusi bilan tashkil etilgan lugʻatshunoslik va tarjimashunoslik markazi (ALTAIIM) jamoasi tomonidan maktab oʻquvchilari uchun turli fanlardan yaratilgan koʻp tilli dasutr lugʻatida foydalanilgan terminlar yordamida tahlil qilindi.

Xususan windows operatsion tizimida berilgan terminlar haqida toʻxataladigan boʻlsak,

“Google chrome” windows operatsion tizimi dasturidagi bir terminga eʼtibor tortildi, “bukmarklar”, ingliz tilida bu atama “bookmarks” tarzida, rus tilida esa “закладки” tarzida keltirilgan. Bundan koʻrinib turibdiki, rus tilida bu soʻzning muqobili topilgan, lekin oʻzbek tilida ushbu soʻzning muqobili topilmaganligi sababli toʻgʻridan toʻgʻri “bukmarklar” atamasi qoʻllanilgan. Imloda shu holatda yozilishi mumkin, lekin “bookmarks” ingliz tilidagi talaffuzi butunlay boshqacha holatda beriladi. Shu sababli ham ushbu atamaning bu tarzda berilishi bir qancha chalkashliklarga olib keladi, na talaffuz va na imlo qoidalariga boʻysunadi. Xuddi terminlarning nomlariga oʻxshab ushbu atamaning imlodagi yozilishi ingliz tilida qanday boʻlsa, oʻzbek tilida ham shu tarzda qoldirilishi maqsadga muvofiq, faqatgina talaffuzda biroz farq qilishi lozim. Bundan tashqari ushbu atama boʻyicha qidiruv berilganda “Google translate” tizimda “bookmark”

so‘zining tarjimasi “xatcho‘p” tarzida qo‘llanilgan. Bu esa ushbu terminning muqobili mavjudligidan dalolatdir.

“Google chrome” windows operatsion tizimi dasturidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilgan atamalar ko‘plab uchraydi. “Yangi inkognito varag‘i” – uch komponentli birikmada etimologik jihatdan ikkita tildan kirib kelgan so‘zlar mavjud, ulardan biri “inkognito” (ingliz tili) va “varaq” (arab tilidan). Ko‘rinib turganidek, “inkognito” atamasining ham xuddi “bukmarks” atamasiga o‘xshab muqobili berilmagan, lekin ingliz-o‘zbekcha lug‘atlarda ushbu atamaning tarjimasi “yashirin”, “boshqa nom bilan” tarzida berilgan. Demak, o‘z-o‘zidan bu atama aynan o‘zlashgan atamalar qatoridan chiqib ketadi. “Varaq” xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, “varag‘i” – aslida “varaq” ko‘rinishida etimologik lug‘atlarda beriladi, {i} egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida {q} harfi {g} aylanadi hamda talaffuzda tovush o‘zgarishi hodisasi ro‘y beradi.

Windows operatsion tizimida qo‘llanilgan inglizcha terminlarning o‘zbek tiliga tarjimasi bo‘yicha shunday xulosaga kelish mumkinki, berilgan terminlarning barchasi ham operatsion tizimda to‘g‘ri tarjima qilinmagan va qo‘llanilishi jihatdan so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan birikmalardan foydalanilgan. O‘zbek tilining adabiy tilga xos so‘zlaridan foydalanilmagan va shu sababli ham operatsion tizimda qo‘llanilgan o‘zbek tilidagi tushunarsiz terminlar foydalanuvchilar uchun eslab qolish qiyinligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Butayev Sh, Irisqulov M – inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘at 70000 so‘z va ibora // Toshkent 2008, B.267
2. Hojiyev A, Nurmonov A., Zaynobiddinov S va boshqa - Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati - Toshkent.: «Sharq», 2001.— B.107
3. Berg T– The directionality of reduplicative plurality, 15(1), Word structure journal, Edinburgh university press PP 1-27.
4. Бурибаева М. А., Тюркизмы в русском языке: от вариантов к норме: монография - 2015.- 315, С. [3]
5. Baron, N. (2008). Always on: Language in an online and mobile world. Oxford University Press.
6. Divjak, D., & Gries, S. Th. (2012). Frequency effects in language learning and processing. Berlin: De Gruyter Mouton.
7. Ergasheva M. Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo‘linishi. «Молодой учёный». №3.1 (107.1) Filologiya . Fevral, 2016. – B.62.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ELEKTRON JURNALI**

**№ 2 (2),
2024 yil, MAY**

O‘zbekcha matn muharriri:

Ruscha matn muharriri:

Inglizcha matn muharriri:

Musahhah:

Texnik muharrir:

Yarashova Nasiba Jumayevna

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

Sharopova Ra'no Jaxonovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

**XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL
VA TALQIN ILMIY-METODIK
JURNALI
2-jild, 2-son**

**SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI
CENTURY
VOLUME 2, ISSUE 2**

Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy
Web-site: <http://linge.j.nspi.uz>
Tel: +998(97) 378 - 34 -45

Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city
Web-site: <http://linge.j.nspi.uz>
Tel: +998(97) 378 - 34 -45